



A.A. Yusupxodjayev, D. Aribjonova, G. Beknazarova, B. Karimjonov

PO‘LAT ISHLAB CHIQRARISH TEXNOLOGIYASI

DARSLIK

Toshkent - 2020

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

A.A. Yusupxodjayev

D.Ye. Aribjonova

G.B. Beknazarova

B.R. Karimjonov

**PO‘LAT ISHLAB CHIQARISH
TEXNOLOGIYASI**

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan oliy o‘quv yurtlari 5310300 “Metallurgiya” ta‘lim
yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Tashkent – 2020

UO'K 669.18(075.8)

KBK 34.327ya73

P 99

Po'lat ishlab chiqarish texnologiyasi [Matn] : darslik /
A.A.Yusupxodjayev [va boshq.]. - Toshkent : Shafoat Nur Fayz, 2020. -
240 b.

“Po'lat ishlab chiqarish texnologiyasi” fani metallurgiya fanlaridan biri bo'lib, metallar, qora va rangli metallurgiya haqida tushunchalarni, cho'yan, po'lat ishlab chiqarish jarayonlarini va unda qo'llaniladigan dastgohlar haqida ma'lumotlarni va qora metallarni ishlab chiqarish texnologiyalari haqidagi fandir.


“Po'lat ishlab chiqarish texnologiyasi” fanini metall saqllovchi xom ashyolarni qayta ishlashda boradigan kimyoviy reaksiyalarning fizik-kimyoviy asoslarini va qora metallarni ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnologik jarayonlarning asoslari bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

5310300 «Metallurgiya» ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. “Metallurgiya asoslari” fani “Metallurgiyaga kirish”, “Rudalarni qayta ishlashga tayyorlash”, “Metallurgik jarayonlarda issiqlik va massa almashuv”, “Gidrometallurgiya jarayonlari”, “Pirometallurgiya jarayonlari”, “Metallar retsiklingi” va ixtisoslik fanlarini o'rganishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Taqrizchilar: PhD, B.T.Berdiyarov – TDTU, “Metallurgiya”
kafedrası mudiri

PhD, P.T.Matkarimov – ToshKTI, “Silikat
materiallari va kamyob, nodir metallar
texnologiyasi” kafedrası dotsenti.

ISBN: 978-9943-6740-0-4



© A.A.Yusupxodjayev va boshqalar
© “Shafoat Nur Fayz”, 2020

KIRISH

Tabiat olamida inson hayoti va jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lmagan va muhim ahamiyat kasb etmaydigan narsaning o'zi yo'q.

Nafas olinadigan havo, ichiladigan suv, sanoat va qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan tabiiy zaxiralar – neft, gaz, yoqilg'i, metall, mineral o'g'itlar, har xil ma'danlar bo'lmasa, insoniyat halok bo'ladi. Ishlab chiqarish qurollarini yaratish, moddiy ma'naviy boyliklarni barpo etish, ilm–fan, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish uchun kerak bo'ladigan jamiki tabiiy boyliklarni odamzot tabiatdan oladi. Tabiat inson uchun tabiiy boyliklar manbaidir.

Ana shu ma'noni olganda yurtboshimiz Islom Karimovning: **“Ona zaminimiz – bovligimizning, mustaqilligimizning va go'zal kelajakka ishonchimizning asosiy manbaidir”**, - degan so'zlarida juda katta ilmiy – falsafiy mazmun bor.

Mustaqil Respublikamiz O'zbekiston o'zining yer osti boyliklari bilan xaqli ravishda faxrlansa arziydi. Unda Mendeleyev davriy sistemasining qariyb barcha elementlari mavjud bo'lib, rangli va qora metalli foydali qazilmalar alohida o'rin tutadi. Ayniqsa rangli metallurgiya Respublikamizda ancha rivojlangan bo'lib, hozirgi kunda u o'zida ishlab chiqarilayotgan mis, kaliy, oltin, kumush, uran molibden kabi metallar bilan jahon bozorida rivojlangan mamlakatlar bilan bellashib kelmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish konsepsiyasida yoritilgan eng muhim muammolardan biri, bu mamlakatning boy mineral-xomashyo resurslaridan ratsional va kompleks foydalanishdir.

O'zbekiston metallurgiya sanoatining asosiy va muhim yo'nalishlaridan biri, bu respublika hududida joylashgan yirik metall saqlovchi konlarni qazib olish va ishlab chiqarishga jalb etishdir va shunga respublikamizda barcha imkoniyatlar mavjud.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida», «Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida O'zbekistondagi konchilik sanoatiga alohida to'xtalib o'tgan. Tabiiy xomashyo resurslari haqida so'z yuritilar ekan, Amudaryo bilan Sirdaryo

oralig'ida joylashgan O'zbekiston o'z taraqqiyot istiqbollari jihatidan qulay jo'g'rofiy-strategik mavqega ega ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

Zaminimizning qimmatbaho mineral xomashyo resurslariga boyligi xalq xo'jaligining ichki tuzilishini tubdan o'zgartirish, respublikaning jahon bozoriga chiqishini ta'minlaydigan tarmoqlarni rivojlantirishga imkon beradi.

O'zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xomashyo resurslari to'plangan. Hozirgacha respublikada mineral xomashyolarning 95 turi borligi aniqlangan. Bu mineral xomashyolarning 700 dan ortiq koni mavjud. Amalda Mendeleyev jadvalidagi hamma elementlar respublikamizda bor. 370 ta kon ishlab turibdi, ulardan bir yil ichida qazib olinayotgan tog' jinslarining hajmi 200 mln. tonnadan oshadi.

O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni boshidan kechirar ekan, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq u o'zining imkoniyatlaridan foydalanish, iqtisodiyotni, ishlab chiqarishni dunyodagi eng ilg'or texnologiyalar asosida izchillik bilan rivojlantirishni maqsad qilib oldi. Ayni paytda mamlakatimizda bir necha o'n minglab qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish texnologiyasi butunlay o'zgarib bormoqda. Natijada xomashyo bazasidan oqilona foydalanib o'z-o'zimizni ta'minlash va xorijga tayyor mahsulot chiqarish hajmi tobora ortmoqda.

Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari - neft, gaz, oltin qazib olish, qora va rangli metallurgiya va h.q. lar sanoatini texnik qayta jihozlash va yanada rivojlantirish, hamda shu asosda mamlakatning boy tabiiy va mineral xomashyo resurslaridan to'la va samarali foydalanishga erishilmoqda.

Qazib olinayotgan mineral xomashyo sifatining tobora pasayib borishi sharoitida yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlaydigan yangi texnologik jarayonlar va dastgohlarni ishlab chiqish va qo'llash boyitish korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keladi. Texnologik jarayonlarni elektroenergiya va boyitma olishga sarflanadigan mahsulot sarfini kamaytirish, xomashyo tarkibidagi barcha qimmatbaho komponentlarni to'liq ajratib olishni ta'minlash, boyitish korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini yo'qotish yo'nalishida takomillashtirish talab etiladi.

Mazkur darslikda boyitishning texnologik jarayonlarining nazariy asoslari ko'rib chiqilgan, zamonaviy boyitish dastgohlarining tuzilishi va ishlash prinsipi bayon qilingan, turli foydali qazilmalarni boyitish amaliyotidan ma'lumotlar berilgan. Boyitishning texnologik jarayonlari va dastgohlarini takomillashtirishning imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

I BOB. QORA METALLURGIYANING ASOSIY TUSHUNCHALARI

1.1. O'zbekiston qora metallurgiyasini rivojlantirish

Qora metallar, umuman po'latning xalq xo'jaligida ahamiyati juda ham katta. Xalq xo'jaligida qora metall ishlatilmaydigan soha topilmaydi. Har qanday davlatni iqtisodiy qudrati darajasini birinchi o'rinda eritib olinadigan po'lat miqdori bilan aniqlanadi. Po'latsiz konchilik, neft va gaz tarmoqlari, mashinasozlik, transport, hatto qishloq xo'jaligi ham rivojlanmaydi.

Temir qadimgi Misrda ma'lum bo'lgan edi. U yerda temirni sof holatda (meteorit temiri) topishgan va uni oltin bilan teng hisoblashgan. Temirni ma'dandan ochiq usulda ajratib olish shu soha sanoatini tezlik bilan rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu insoniyatni rivojlanishi uchun juda katta hissa qo'shdi. Ushbu usul xom havo bilan purkash deb nomlandi. Chunki bu yerda oddiy qizdirilmagan havo ishlatilgan. Ushbu jarayonning mohiyati shundaki toshdan qilingan gorniga pista ko'mir va temir rudasi joylashtirilib, gornning tagidan yonish uchun kerakli bo'lgan havo yuboriladi. Yonganda hosil bo'lgan SO gazi (uglerod oksidi) temirni tiklaydi. Yonib bo'lgan ma'danni bolg'a bilan pachochlab, shlakdan tozalashgan. Bunday havo bilan tozalanagan temir bir xilda emas edi. Vaqt o'tgan sari ushbu usul takomillashib, yuqori haroratda kuydirilgandan so'ng, temir ma'dani suyuq cho'yanga aylana boshladi.

XIX asrgacha po'lat juda ham qimmat metall hisoblanardi, chunki po'lat ajratib olish uchun ko'p miqdorda pista ko'mir ishlatilar edi. Bu metallurgik zavodlar atrofidagi o'rmonlarning to'liq yo'q bo'lib ketishiga olib keldi. Bu muammoni yechish maqsadida puding jarayoni kashf etildi. Puding jarayonida toshko'mir koksi ishlatilib cho'yandan xamir ko'rinishidagi temir olina boshlandi. Pechning osti temir okalinasi va shlakdan tayyorlanar edi. Lekin bu jarayon ham keng tarqalmadi.

1864 yilda Fransuz injeneri Per Marten suyuq po'latni alangali pechda olishni ishlab chiqdi. Marten jarayonida issiqni boshqarish, metallardan oltingugurt va fosforni ajratib olish, ko'p miqdordagi

temir-tersakni qayta ishlash imkoniyati bor. Bu jarayon butun dunyoda keng tarqalgan.

Marten jarayoni bilan birgalikda birinchi elektr po'lat quyish pechlari paydo bo'ldi. Bunday pechlarda murakkab yuqori legirlangan po'latni eritish mumkin. Birinchi marotaba 1952 yilda Avstraliyada va 1957 yilda Dnepropetrovskda injener Mozgov N.I. taklifi bilan kislorod-konverter jarayoni joriy qilindi.

XX asrda rangli metallar, ayniqsa alyuminiy va mis ishlab chiqarish bir necha marotaba ko'tarildi. Lekin qora metall ishlab chiqarish dunyo ishlab chiqarishida o'zgarmay qolaverdi. Masalan, 1997 yilda dunyo bo'yicha po'lat ishlab chiqarish yiliga 1 milliard tonnani tashkil qildi.

Po'lat quyishning qo'shimcha omillari kimyo sanoati, mashinasozlik, neft va gaz tarmoqlari va boshqa sanoatlarning masshtabining kengayishini rivojlantirdi. Po'latning boshqa metallar bilan qotishmasi yangi konstruksion materiallarni ishlab chiqarishning ilmiy texnologiyalarini rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa, po'latning zanglamaydigan turlarini ishlab chiqarish tez suratlarda ko'tarildi.

Po'latni sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan miqdorda olish usullari **po'lat metallurgiyasi** deyiladi.

Temirning uglerod va boshqa elementlar bilan deformatsiyalanadigan qotishmasi po'lat deyiladi. Po'lat tarkibiga uglerod, marganets, kremniy, oltingugurt, fosfor kiradi. Maxsus xususiyatlar po'lat olish uchun metallga ligierlaydigan qo'shimchalar qo'shiladi: xrom, nikel, molibden, volfram, mis, neobiy, vanadiy va boshqalar, hamda ko'p miqdorda marganets va kremniy.

Temirni sof holatda olish qiyin va qimmat jarayon hisoblanadi. Sof holatdagi temir juda ham qimmat. U faqat maxsus maqsadlarda ishlatiladi. Odatda texnika va xo'jalikda po'lat ishlatiladi.

Po'lat tarkibiga kiradigan asosiy qo'shimcha bu uglerod. Uglerod ko'p jihatdan po'latning hususiyatini aniqlaydi. Uning miqdoriga qarab uglerodli temir qotishmalarini po'lat va cho'yanga ajratiladi. Temirning uglerodli qotishmasida $1,7 \div 2\%$ gacha uglerod bo'lsa po'lat, undan yuqori bo'lsa ($1,7$ dan $2,8 \div 3\%$ uglerod bo'lsa po'latli cho'yan, 3% dan yuqori bo'lsa oddiy cho'yan) cho'yan deb ataladi.

Po'lat yuqori haroratda plastik holatda bo'ladi. Qizdirilganda bolg'alanuvchan, prokatlanuvchan bo'ladi. Cho'yan bunday xususiyatlarga ega emas. Hozirgi kunda 1,2% dan yuqori bo'lmagan uglerodli po'lat, 3,5÷4,5% uglerodli cho'yan quyiladi.

Zamonaviy metallurgik texnologiyaning rivojlanish, erituvchi agregatdan yordamchi agregat yoki maxsus jixozlangan kovsh yordamida yuqori sifatli metall olish bilan xarakterlanadi. Erituvchi dastgohlarning ro'li asosan aniq bir tarkib va haroratdagi suyuq yarim mahsulot olishdadir. So'nggi vaqtlarda yirik konverter, marten yoki elektr yoyli pechlarida sifatli po'lat olish texnologiyasini sezilarli farqi aniqlanmoqda, ayniqsa agar ushbu agregatlarda qo'shimchalarning oksidlanishi vannani kislorod bilan purkash orqali amalga oshirilsa. Turli rivojlangan mamlakatlardagi ba'zi zavodlarda suyuq po'latning sifatini oshirish maqsadida agregetlar konstruksiyasining yangi variantlari yaratilmoqda. Yangi jarayonlar va amaldagi jarayonlarning turli xillari paydo bo'lmoqda. Ammo, sifatli po'lat ishlab chiqarish texnologiyasining umumiy prinsipi yagonadir.

Turli usullar bilan quyilayotgan po'latlar orasidagi farq o'zgarib turadi. Hozirgi vaqtda quyidagi asosiy usullar mavjud: kislorod-konverterli (50% dan yuqori), elektr po'lat quyuvchi (taxminan 20%) va marten pechlari (<30%dan kam).

Hozirgi vaqtda, po'latni metallurgik ishlab chiqarish sxemasi ikki bosqichda amalga oshiriladi.

- temirni ma'dan yoki boyitmadan domna pechlarida tiklanishi;
- po'lat quyish agregatlarida C, Si, Mn, P ni oksidlash, oltin-gugurtdan tozalash, ya'ni cho'yandan kerakli tarkibda po'lat olish.

Xozirgi vaqtda temirni rudadan bevosita olish texnologiyasi keng tarqalmoqda. To'g'ridan-to'g'ri tiklash qurilmalari asosan quyidagi xolatlarda quriladi:

1) zarurat bo'lganda keraksiz qo'shimchalardan xoli bo'lgan shixta olish va undan juda yuqori sifatli po'lat eritish;

2) zarurat bo'lganda yiriklashtirish qiyin bo'lgan chang ko'rinishidagi temir rudalarini va ishlab chiqarish chiqindilari (kaloshnik changi, changni ushlab qoluvchi qurilmalar yordamida yig'ilgan chang va boshqalar) qayta ishlash;

3) kichik ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan domna sexlarini qurish iqtisodiy jixatdan rentabel bo'lmaganligi uchun uncha katta bo'lmagan zavodlar (minizavodlar) qurilishida. Bunday tarkibdagi minizavodlar tarkibiga: to'g'ridan-to'g'ri tiklash qurilmasi, bir-ikkita po'lat quyish agregati (odatda yoyli elektropechlar), tayyor maxsulotni uzluksiz quyish mashinasi. Bunday zavodlarning ishlab chiqarish unumdorligi odatda yiliga 150-250 tonnani tashkil qiladi.

Agar Toshkent viloyati Piskent tumani Bekobod shaxrida bunday elektropechlarni ishlayotganini va Toshkent viloyatining Parkent tumanida temir ruda zaxiralari topilganligini hisobga olsak, ushbu ko'rinishdagi sxema ayniqsa bizning respublikamiz uchun juda aktualdir.

4) Yuqori metallashgan maxsulot kukunidan foydalanib to'g'ridan to'g'ri detal va tayyor buyumlar olish.

Xozirgi vaqtda dunyoda eritilayotgan po'latning faqatgina 5% ga yaqini to'g'ridan-to'g'ri tiklovchi uskunalarda olinmoqda. Po'latning asosiy qismi an'anaviy usullarda eritilishi qachongacha davom etishi xaqidagi savolni yechishda, uzluksiz xarakatlanuvchi po'lat eritish agregatlarini (SAND-doimiy qum po'lat eritish zavodi, UXPEA- uzluksiz xarakatlanuvchi po'lat eritish agregati) yaratishni, xamda, xozirgi vaqtda foydalanilayotgan yuqori xususiyatli, qudratli agregatlarni inobatga olish kerak:

a) xajmi 4-5 ming m^2 bo'lgan domna pechlari;

b) xajmi 300-350 tonna bo'lgan konverterlar;

v) xajmi 250-300 va undan yuqori bo'lgan yoyli elektro pechlar.

Konstruksion po'latning bir tonnasining narxi sifatiga qarab 150-400 AQSH dollariga teng.

Nazorat savollari:

1. Marten jarayonining mohiyati.
2. Po'lat metallurgiyasiga ta'rif bering.
3. Zamonoviy metallurgik texnologiyaning rivojlanishi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

1.2. Po'lat va uni ajratib olish usullari klassifikatsiyasi

U yoki boshqa usul bilan po'lat olish o'zining tarkibi va xossalariiga asosan turlichadir. Po'latning yagona dunyoviy sistemasi yo'q.

MDHda po'lat klassifikatsiyasi va uning tarkibi, sifatiga qo'yiladigan talablar o'sha davlatning standart va texnik sharoitlariga asoslanadi. Ular quyidagi alomatlariga binoan tasniflanadi.

1. *Ishlatilish maqsadi bo'yicha.* Ushbu alomatga asosan po'latni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: yonish va qozonxona, temiryo'l transporti usuli (temiryo'llar, temiryo'l g'ildiraklarini bandaji uchun va boshqalar), konstruksion (bino qurilishi uchun, metall konstruksiyalari ishlab chiqarish uchun, ko'prik, mashina va boshqalar), zoldrli podshipnik, instrumental (turli asboblar tayyorlash uchun, keskichlar va h.k.), ressor prujinali, transformatorli, zanglamaydigan, qurol, trubina va h.k.lar uchun. Po'lat markasining boshida turuvchi R harfi tez kesuvchi po'lat ekanini anglatadi. UXX6, UHX15 – keng podshipnikli, E – elektrotexnik, U7, Y8, Y13 – uglerodli instrumental po'lat (0,7% uglerod va h.k.). U7A, U8A–Yuqori sifatli uglerodli instrumental po'lat ekanini ko'rsatadi.

2. *Sifat bo'yicha.* Po'lat odatda quyidagi guruhlariga bo'linadi: oddiy sifatli, sifatli va yuqori sifatli. Ushbu guruhlardagi farq ularning tarkibidagi zararli qo'shimchalarga bog'liq (birinchi o'rinda oltingugurt va fosfor bog'liq), hamda metallmas qo'shimchalarning asosiy shartlariga binoan tarkibiga qarab. Masalan, oddiy sifatli po'lat tarkibidagi oltingugurt va fosfor 0,055 – 0,060% gacha bo'lishi mumkin, sifatli po'latda – 0,040 – 0,045% dan oshmasligi kerak, yuqori sifatli po'latda esa 0,020-0,030% dan oshmasligi kerak.

3. *Kimyoviy tarkib bo'yicha.* Po'lat uglerodli (shu bilan birga past uglerodli, o'rtacha uglerodli, yuqori uglerodli), past ligerlangan, o'rtacha ligerlangan va yuqori ligerlangan (shu bilan bir qatorda xromli, marganetsli va h.k.).

MDH davlatlarida po'latlarni kimyoviy tarkibini belgilashning quyidagi yagona shartli belgilari o'rnatilgan.

Element	C	Mn	Si	Cr	Ni	Mo	W	V	Al	Ti
Belgilanishi	Y	Г	C	X	H	M	B	Φ	Ю	T

Po'lat markasi belgilarida, GOSTga asosan marka boshida turgan raqamlar uglerodni foizining yuzdan bir bo'lagidagi o'rtacha tarkibini belgilaydi (instrumental po'latlar uchun foizning mingdan bir bo'lagida). Raqamlarning o'ng tomonida turgan harflar po'latdagi tegishli elementning borligini bildiradi. Harflardan keyin turadigan raqamlar tegishli elementlar (bir foizdan yuqori bo'lsa) foizdagi tarkibini ko'rsatadi. Marka oxiridagi "A" harfi po'latning yuqori sifatlilikini bildiradi. Masalan, yuqori sifatli konstruksion po'lat tarkibi 0,12%ga yaqin uglerod, 2% xrom va 4% nikel bo'lsa, 12X2H4A; po'latning 30XTC markasi ushbu po'latda 0,30%ga yaqin uglerod va taxminan 1% xrom, marganets va kremniy borligini bildiradi. Legirlangan po'lat kam legirlangan (2,5% gacha legirlovchi elementlar) va yuqori legirlangan (10% dan yuqori) po'latlarga bo'linadi. Po'latni legirlovchi elementlarga asosan bir komponentli (marganetsli 0,9G2, 14G2, 35G2, 40G2, kremniyli 55S2, 60S2, 80S), ikki komponentli (kremnemarganetsli 60S2XA, xromnikelli 40XN), uch komponentli (xromkremnemarganetsli 30XGSA, xromnikel-molibdenli 20XNM), to'rt komponentli va undan ortiq komponentliga bo'linadi.

4. *Po'latni qolipda qotish xususiyati bo'yicha.* Tinch, qaynovchi va yarim tinch po'latlar farqlanadi. Metallni qolipda kristallizatsiyalanishi uning kisloroddan tozalanish darajasiga bog'liq. Po'lat kisloroddan qancha to'liq tozalansa, quyma kristallizatsiyasi shuncha tinch bo'ladi. Kisloroddan tozalanish darajasiga qarab po'lat A, B, V guruhlariga ajratiladi. Marka nomeri 1, 2, 3 bo'lsa qaynovchi, yarim-tinch va tinch po'lat tayyorlanadi. 5 va 6 nomerli markalar – yarim-tinch va tinch hisoblanadi. Kisloroddan tozalash darajasini belgilash uchun po'latning marka nomeridan so'ng indeks qo'shiladi: KP – qaynovchi, yarimtinch, SP–tinch, masalan: St3ps; BSt3kp2; VSt4ps2.

5. *Po'lat ishlab chiqarish usuli bo'yicha* klassifikatsiyalanadi:

a) agregat turiga asosan – konverterli (shu jumladan kislorod-konverterli, bessemerov, tomasov), marten, elektropo'lat, elektroshlak quyish va h.k.

b) texnologiyaga asosan – asosiy va nordon martenli, asosiy va nordon elektro po'lat, vakumda ishlov berilgan, sintetik shlaklar bilan, inert gazlar bilan puflab tozalash va boshqalar. v) holatiga

binoan – qattiq holatda (shimuvchan temir – to‘g‘ridan – to‘g‘ri tiklash mahsuloti), elektrolitik (tarkibida temir bo‘lgan materiallar elektrolizi mahsuloti), kukunsimon (suyuq po‘latni mayda zarrachalarga bo‘lish jarayoni mahsuloti), xamirsimon (“Aston - Bayers” jarayoni mahsuloti), suyuq, quyma (konverter, marten jarayonlari mahsuloti).

MDH davlatlaridan Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Gruziya, O‘zbekistonda po‘lat quyiladi. Umuman olganda MDH davlatlari dunyo bo‘yicha eng ko‘p po‘lat quyuvchi davlat hisoblanadi. Po‘latning asosiy miqdori Rossiyada quyiladi – bir yilda taxminan 80 mln. tonna.

Po‘lat ishlab chiqarish bo‘yicha Rossiyadan keyin Ukraina – yiliga 40 mln. tonna Qozog‘iston – 12 mln. tonna, O‘zbekiston – yiliga 1,2 mln. tonna. Rossiyadagi eng yirik po‘lat quyuvchi korxonalar –Magnitogorsk, Kuznetssk, Nijnetagil, Novolipetssk, Novotulsk kombinatlaridir. Ukrainada – Dnepropetrovsk, Dneprodzerjinsk, Donetsk, Krivoyrog kombinatlari, Qozoqistonda – Qarag‘anda metallurgiya kombinati, O‘zbekistonda – Bekobod kombinati. Boshqa O‘rta Osiyo Respublikalarida po‘lat ishlab chiqarilmaydi. Sanoati rivojlangan davlatlarda bir yilda har bir aholi boshiga 400-600 kg dan ko‘proq po‘lat to‘g‘ri keladi. MDHda har bir aholiga bir yilda 600 kg dan to‘g‘ri keladi. 1999 yilda O‘zbekistonda 400 min tonna po‘lat quyib olingan. Bu Respublikamiznang har bir aholisiga 20 kg dan to‘g‘ri keladi. Hozirgi kunda mahsulotni hajmini ko‘paytirish va sifatini yaxshilash masalasi ko‘rilmoqda. Legirlangan po‘lat ishlab chiqarish takomillashtirilmoqda.

O‘zbekistonda faqat bitta kombinat – Bekobod metallurgiya kombinati qora metall ishlab chiqarish uchun ixtisoslashtirilgan. Bu kombinatda asosan marten usulida po‘lat quyiladi.

Qora metallurgiyani rivojlantirish uchun mini zavodlarda po‘latni rudadan bevosita ajratib olishni yo‘lga qo‘yish kerak.

Bunday usul XXI asrda ayniqsa O‘zbekiston uchun xarakterlidir. Chunki Toshkent viloyatining Parkent tumanida temir rudalarining uncha ko‘p bo‘lmagan zaxiralari mavjud, tamir-tersak va chiqindilari zaxiralari chegaralangan va nisbatan arzon yoqilg‘i – tiklovchi bor.

Bizning respublikamiz uchun bunday sxemaning aktualligi shundaki, Bekobod shaxrida bunday elektropech anchadan beri ishlab turibdi.

Nazorat savollari:

1. Po'latni ishlatilish maqsadi bo'yicha klassifikatsiyasini ta'riflab bering.
2. Po'latni sifat bo'yicha klassifikatsiyasini ta'riflab bering.
3. Po'latni kimyoviy tarkib bo'yicha klassifikatsiyasini ta'riflab bering.
4. Po'latni qolipda qotish xususiyati bo'yicha klassifikatsiyasini ta'riflab bering.
5. Po'latni po'lat ishlab chiqarish usuli bo'yicha klassifikatsiyasini ta'riflab bering.

Umumiy savollar

1. Marten jarayonining mohiyati.
2. Po'lat metallurgiyasiga ta'rif bering.
3. Zamonaviy metallurgik texnologiyaning rivojlanishi xaqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
4. Po'latni ishlatilish maqsadi bo'yicha klassifikatsiyasini ta'riflab bering.
5. Po'latni sifat bo'yicha klassifikatsiyasini ta'riflab bering.
6. Po'latni kimyoviy tarkib bo'yicha klassifikatsiyasini ta'riflab bering.
7. Po'latni qolipda qotish xususiyati bo'yicha klassifikatsiyasini ta'riflab bering.

II-BOB. HOMASHYO VA UNI PO‘LAT ERITISHGA TAYYORLASH

2.1. Domna pechi yordamisiz temir olish usullari.

Temirni rudadan bevosita olish jarayonining roli va ahamiyati

Temirni rudadan bevosita olish jarayoni deganda, domna pechi yordamisiz rudadan temirni g'ovak, qattiq yoki suyuq holatda olishda kechadigan kimyoviy, elektrokimyoviy yoki kimyoviy-termik jarayonlar tushuniladi. Bunday jarayonlar birinchidan koks ishlatilmasdan amalga oshirilsa, ikkinchidan ushbu jarayonlar juda xam toza metall olish imkonini beradi.

Temirni rudadan bevosita olish usullari anchadan buyon ma'lum bo'lib, lekin hozirgi kungacha bu usullardan keng foydalanilmaydi. 70dan ortiq to'g'ridan-to'g'ri temir olish usullar topilgan bo'lib, lekin ulardan juda kamchiligi hayotga tadbiiq etilgan.

Oxirgi yillarda bu usullar ko'pchilikni qiziqтира boshladi, chunki bu usullar koksni tejashdan tashqari temirni o'ta boyitish (70-71.8 %) va oltingugurt va fosfor singari zararli elementlardan yuqori darajada tozalash imkonini beradi. Masalan, Lebed konlaridagi rudadan olina-yotgan temir kontsentratiidagi oltingugurtning miqdori 0.01 % dan va fosforning miqdori esa 0.003 % dan kam bo'lib, bundan tashqari boshqa zararli qo'shimchalardan xam xolidir. Tabiiyki, yuqorida aytib o'tilgan turli xil zararli qo'shimchalardan tozaligi domna pechida eritilganda foydalanib bo'lmaydi. Chunki fosfor va ayniqsa oltingugurt koks bilan birga ko'p miqdorda kirib keladi. Shuning uchun yuqori darajada boyitilgan temir kontsentratiidan po'lat ishlab chiqarish, xamda temir kukuni olishda domna pechi yordamisiz temirni g'ovak shaklida olish usullaridan foydalangan maqul.

Metallashning turli usullarni texnika-iqtisodiy baholash shuni ko'rsatadiki, temirni ajratib olish uchun sarflanadigan xarajatlar temirni aniq bir darajada ajratib olingandagina minimal bo'lishi mumkin. Bu daraja temirni rudadan 60-80 % gacha ajratib olishni tashkil qiladi. Agar temir ajratib olishda ushbu daraja kamayib yoki ko'payib ketsa sarf-xarajatlarning xam ko'payib ketishiga olib keladi. Bunday darajada metallash po'lat va po'lat kukuni ishlab chiqarish uchun yetarli emas. Uni faqatgina domna pechi uchun qabul qilish mumkin. Po'lat ishlab chiqarish va kukunli metallurgiya uchun iloji

boricha yuqori darajada metallash zarur bo'ladi. Bu esa juda xam ko'p sarf-xarajatni talab qiladigan boshqa jarayondan foydalanishga olib keladi.

Shunday qilib, qo'llanilishi bo'yicha metallashgan shixtani quyidagi uchta guruxga bo'lish mumkin:

I- Domnada eritish uchun metallashgan shixta, metallizatsiya darajasi 60-90 %ni tashkil qiladi, lekin bundan kam miqdorda xam bo'lishi mumkin. Dastlabki shixtadagi temirning miqdori 60-66 % va tayyor maxsulotdagi metall ko'rinishdagi temir 68-76 % ni tashkil qiladi;

II- po'lat eritish uchun shixta, metallizatsiya darajasi 85-95 %, dastlabki shixtadagi temirning miqdori 68-70 % va tayyor metallashgan maxsulotdagi metall ko'rinishdagi temirning miqdori 90-93 % ni tashkil qiladi;

III- temir kukuni ishlab chiqarish uchun g'ovaksimon temir metallizatsiya darajasi 98-99.5 %, dastlabki shixtadagi temirning miqdori 71.8-72 % va g'ovaksimon temirdagi ko'rinishdagi temirning miqdori 98-99 % ni tashkil qiladi.

Temirni rudadan bevosita olish jarayonlari uchun qattiq yoki gazsimon tiklovchilar ishlatiladi. G'ovaksimon temir ishlab chiqarish uchun, hozirgi kunda temirni bevosita tiklashning ko'p sonli jarayonlari rivojlanib bormoqda. Shu vaqtning o'zida tarkibida temir bo'lgan materiallardan bevosita temir olish jarayonlari orqali suyuq maxsulot olish hozircha qo'llanilmayabdi.

2.1.1. Qalin qavatda gaz xolatidagi tiklovchilar yordamida g'ovaksimon temir ishlab chiqarish

Ushbu jarayonni amalga oshirishda shaxtali pechlardan va retortalardan foydalaniladi. Temirni tiklovchilar sifatida esa asosan, vodorod va uglerod oksididan tashkil topgan, qayta ishlangan tabiiy gaz ishlatiladi.


Hozirgi kunda shaxtali pechlar ishlab chiqarish quvvati $5-9 \text{ t/m}^3$ sutkaga teng bo'lib, bu domna pechdan 2-4 marta tezroq temir ajratib olish demakdir. Shaxtali pechlar xajmi unga hozirgi kunda uncha katta emas, ya'ni $100-200 \text{ m}^3$ (pech balandligi 10-14 m va diametri


3,5 metrga yaqin). Bu esa pechning sutkalik ishlab chiqarish unumdorligi 1000-1500 t temir ajratib olish imkonini beradi.

Shaxtali pechlarda temir olishning ko'p usullari mavjud bo'lib, shulardan ikkitasini, ya'ni sanoatchilikda qo'llaniladigan turlarni ko'rib chiqamiz. Ulardan biri shaxtali pechlarda kislorodda to'liq yonmagan tabiiy gaz yordamida temirni ajratib olish jarayonidir. Temirni ajratib oluvchi gaz kislorod reaktorida ishlab chiqariladi. Bu reaktorda ushbu reaksiya amalga oshiriladi:

$2\text{CN}_4 + \text{O}_2 = 2\text{CO} + 4\text{H}_2$ va 29 % CO, 55% H_2 va 13% oksidlovchilardan (H_2O va CO_2) tashkil topgan gaz olinadi. Ba'zi xolatlarda olingan gaz issiq bo'lib, boshqa holatlarda esa gazni oksidlovchilardan tozalanadi va qizdiriladi. Qizdirilgan gaz pechga 10-12 furma yordamida uzatiladi va okatishlangan mahsulotdan temirni ajratib oladi. Jarayon kechayotgan hajm pechning 0,6 qismini tashkil qiladi. Jarayon yuz berayotgan qismdan pastda okatishlangan mahsulot aylanma gaz yordamida sovutiladi. Qayta ishlangan gaz pechga 400 kPa bosimda uzatiladi. Temir ajratib olinayotgan, ya'ni jarayon kechayotgan qismda harorat 850-900 °C ni tashkil qiladi. Pechdan gaz harorati 300-400 °C bo'lgan holatda chiqib ketadi. Sovutilgan okatish holatidagi mahsulot pechdan to'xtovsiz elektr pechga po'lat ishlab chiqarish uchun uzatib turiladi. 1 tonna ajratib olingan temir uchun 550 m³ gaz sarflanadi. Umumiy gaz sarfi esa 2000 m³ ni tashkil qiladi. Temirni ajratib olish darajasi 95 %.

"Midlen Ross" firmasi ishlab chiqqan usulni ham ko'rib chiqamiz. Bu jarayonda ishlatilgan gaz yuqorida aytib o'tilgan jarayon uchun kerak bo'lgan gazdan farq qiladi va $\text{CH}_4 + \text{O}_2 = 2\text{CO} + \text{H}_2$ reaksiya amalga oshiriladi. Ushbu gaz 35% CO va 65% H_2 ni tashkil qiladi va pechga 1000 °C haroratda uzatiladi. Gaz sarfi 400 m³ ni tashkil qiladi. Ushbu jarayon Oskoldagi elektrda po'lat olish kombinatida amalga oshirilgan. Birinchi sanoatda ishlatiladigan pechlar 1957 yil Monterreyda ishga tushirilgan va 1960-1967 yillarda, keyinchalik esa Pueblo shaxrida. Ushbu pechlarning ishlab chiqarish quvvati 700 t/sutkaga etadi. Bu jarayonlar uchun gaz ushbu reaksiya yordamida olinadi:





2.1. - rasm. Shaxtali pechda temirni rudadan bevosita olish jarayonining sxemasi:

- 1- shaxtali pech; 2-reaktor; 3- chang yutgich;
4- skrubber; 5- suv ajratuvchi; 6- kompressor

Avval gaz oltingugurtdan tozalanadi. Tayyor gaz 14% CO, 58% H₂, 21% H₂O va 4-5% CO₂ moddalaridan tarkib topgan. Bu gaz suvdan ajratuvchi pechdan o'tkaziladi. Quruq gaz 73% H₂, 15-16% CO va 6-7% CO₂ ni tashkil qiladi.

Ushbu jarayonda ham bosim 400 kPa ga teng. Temirni ajratib olish darajasi 75-92% ga teng. 1 tonna g'ovak temir olish uchun 600 m³ gaz va 36 MDj elektr energiyasi sarflanadi.

Ushbu jarayon kamchiliklari shaxtali pechga qaraganda past darajadagi temir ajratib olish darajasi va jarayonning davriyligi (uzluksiz bo'lmagan) bo'lib hisoblaniladi. Shuning uchun ushbu firma hozirda shaxtali pechlarni ishlab chiqqan va taklif qilgan.

2.1.2. Yupqa qavatlangan holatda gaz yordamida g'ovak temir olish

Ushbu jarayon odatda harakatlanayotgan panjara ustki qismida aglomerat olish jarayonini eslatuvchi usulda amalga oshiriladi. Bu jarayonda gaz balandligi 200-300 mm bo'lgan yupqa qavatdan

yuqoridan pastga o'tkaziladi. Konveyer lentasida bo'lib o'tayotgan jarayon 3 qismga bo'linadi:

- Qizdirish.
- Temir ajratib olish.
- Sovutish.

Ushbu jarayonda gaz sarfi ko'p bo'lganligi uchun sanoatda qo'llash amalga oshirilmagan.

2.1.3. Qattiq uglerod yordamida temirni ajratib olish

Temirni ajratib oluvchi sifatida toshko'mir va koksdan foydalaniladi. Pechga temirni ajratib oluvchini uzatish usuliga qarab jarayon 3 ga bo'linadi:

tarkibida ko'mir bo'lgan okatishlangan temir rudasidan temir olish.

Bu usulda okatish tayorlanish vaqtida temir rudasiga 15-20% qattiq temir ajratib oluvchi qo'shiladi va tayyor bo'lgan okatishlar 1200-1250 °C xaroratda 20-30 minut qizdiriladi. Okatish tarkibidagi uglerod yordamida temir ajralish jarayoni sodir bo'ladi, ajratib olinish darajasi 50-80%ni tashkil qiladi. Qizdirish uchun har-xil pechlardan foydalaniladi: shaxtali, trubali va konveyerli.

okatishlangan temir rudasiga maydalangan yoqilg'i qo'shib temir olish.

Ushbu usulda olingan okatish tarkibi quyidagicha:

Temir rudasi, dolomit yoki ohaktosh 0,8-3,0 mm. Dolomit va oxaktosh oltingugurtdan tozalash uchun qo'shiladi. Pech sifatida trubasimon pech ishlatiladi yoki ushbu ketma-ketlikda agregatlar joylashuvi: qizdirish panjarasi – trubasimon pech – aylanib turuvchi trubasimon sovutgich. 1tonna uchun 350-600 kg qattiq yoqilg'i va 75-100 m³ tabiiy gaz sarflanadi.

Yurtimizda qizdirish panjarasi yuzasi 180 m³, trubasimon pechni diametri 7 metr va uzunligi 92 metr, sovutgichi diametri 3,8 m va uzunligi 108 metrli agregatlar ketma-ketligi mavjud. Temirni ajratib olish darajasi (80-95%) ga teng bo'lgan ushbu agregat yig'indisi eksperimentlarni sanoat darajasida o'tkazish uchun qurilgan. Loyiha bo'yicha agregat 80% darajada temir ajratib olsa, ishlab chiqarish

quvvati 2000 t/sutkaga yetadi. Agar 95%ga yetsa, ishlab chiqarish quvvati 2 barobarga tushadi. Ushbu usul oxirigacha o'rganib chiqilmagan. Bir biriga aralashmaydigan qavatlarida qattiq uglerod yordamida g'ovakli temirni ajratib olish.

Ushbu usulda qattiq yoqilg'i va okatish (yoki yuqori darajada boyitilgan konsentrat) tigelga yuklanadi va tigel pechlarga joylashtirilib temirni temir oksidlaridan ajratib olinadi.

Ushbu usul Shvetsiyada taklif qilingan va 1911 yilda birinchi marta sanoat darajasida Xyoganes shahrida amalga oshirilgan. Shunga o'xshash jarayon bizda ham amalga oshirilgan. Ushbu jarayonda kremniy karbidi (SiC) kapsula ko'rinishida ishlatiladi. Diametri- 530 mm, devor qalinligi- 40 mm, balandligi-1500 mm. Oltingugurtdan tozalash uchun ajratib oluvchiga 10-15% miqdorda maydalangan ohaktosh qo'shiladi.

Ushbu usulda olingan g'ovak temir 97-99% Fe, 0,1-0,2% S, 0,1-0,5% SiO₂, 0,010-0,016% S va 0,015% P tarkibida bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Temirni rudadan bevosita olish yangi fan, texnika va texnologiya yutuqlarini aytib bering?
2. Domna pechi yordamisiz temir olish usullari.
3. Temirni rudadan bevosita olish jarayonlarining roli va ahamiyati haqida tushuntiring?
4. Po'lat eritish pechlarida eritish uchun metallashgan materiallar olish jarayonlari haqida tushuncha berish?

2.2. Po'lat eritish pechlarida eritish uchun metallashgan materiallar olish

Oxirgi yillarda bu yo'nalish sanoat masshtablariga keng tadbqiqilingan va "temirni to'g'ridan to'g'ri olishning" asosini aniqlab beradi. Uning metallurgiyadagi ommaboblighi to'rtta omil bilan bog'liq.

2.2.1. Kokslangan ko'mirning dunyo bo'yicha zaxirasining keskin kamayishi.

Ba'zi xududlarda umuman kokslangan ko'mir konlari yo'qligi, hattoki ba'zi bir ana shu yoqilg'ining yetarlicha zaxirasiga ega mamlakatlarda zaxiralarning kamayib borayotganligi havotirli vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda. Domna jarayonida eritishda koksni to'liq boshqa yoqilg'i bilan alishtirishning imkoni yo'qligi uchun domnasiz metal olish judayam aktual. Yangi sxema bo'yicha metall olishni to'liq ravishda kokssiz amalga oshirish mumkin.

2.2.2. Po'lat sifatiga qo'yiladigan talablarning oshishi.

Sanoat tajribalari shuni ko'rsatadiki, metallashgan materiallardan (skrap bilan birga) foydalanib eritilgan po'lat bir qancha yaxshi xususiyatlarga ega bo'ladi. Asosiy sababi shundaki, metallashgan materiallarning lomlardan farqi shundaki, ular tarkibida zararli qo'shimchalar, rangli metallar yo'q. Qo'shimcha qilish kerakki, metallashgan materiallar tarkibida gazlar va metallmas qo'shimchalar yo'q.

2.2.3. Rivojlanayotgan davlatlar metallurgiya sohasida kam quvvatli rentabelli zavodlar qurish ehtiyojining paydo bo'lishi

natijasida yetarli darajada ishlab chiqarish programmasini va maxsulotlar assortimentini o'zgartirish imkoni mavjud bo'ladi. Metallurgik ishlab chiqarishning yangi sxemasi, iqtisodiy tejamkor, i/ch quvvati 0,1-1,0 mln.t. "mini-zavod"lar yaratish muommosini hal etadi.

2.2.4. Ekologik jixatdan afzalliklari.

An'anaviy sxemadan farqli ravishda atrof muhit uchun xavfsizlik mutloq kafolatlanadi.

Po'lat eritish pechlarida metallashgan materiallarning metallashganlik darajasi 80 % dan kam bo'lmasligi kerak, ya'ni tiklanish

darajasi ancha yuqori. Bunda metallashtirish samaradorligi tiklash usuli va qo'llanilayotgan agregatga kuchli bog'liq bo'ladi. Hozirgi vaqtga qadar sanoat maqyosidagi keng tadqiqotlar uch xil tipdagi agregatlarda olib borilgan: a) uzliksiz va davriy ravishda ishlovchi shaxtali dastgohlar;

b) qaynar qatlamda ishlovchi apparatlar; v) truba aylanmali pechlar va kombinatsiyalangan konveyerli mashina va truba aylanmali pech turidagi dastgohlar. Birinchi usulda tiklovchi sifatida gaz yoki qattiq yoqilg'ining gazifikatsiya maxsulotlaridan foydalaniladi. Keyingi usullar uchun qattiq va gaz turidagi tiklovchilardan birgalikda foydalaniladi. Hozirgi paytda truba aylanmali pechlardan foydalanish ancha kamaygan. Metallashgan materiallarning asosiy miqdori shaxtali pechlarda ishlab chiqarilmoqda. Jarayonning umumiy qonuniyatlari quydagicha:

1. Tiklanish qattiq fazali xududlarda o'tadi. Jarayonning suyuq maxsulotlari mavjud emas. Binobarin, bo'sh tog' jinslari metallardan oxirigacha ajralmasdan po'lat eritish agregatlariga yuboriladi. Po'lat eritish jarayonining iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqqan xolida (shlakning minimal miqdori), dastlabki, temir tarkibli xomashyo tarkibidagi miqdoriga qattiq talablar qo'yiladi, uning miqdori metallashgan maxsulotlar tarkibida 5 % dan oshmasligi kerak. Binobarin, dastlabki oksidlangan materiallar tarkibida 3 % dan kam bo'lishi kerak. Aniqlash mumkinki, dastlabki temir (masalan manetitli) tarkibli boyitma tarkibida, temirning miqdori (100-3) $0,724=70\%$ dan kam bo'lmasligi kerak, bu yerda 0,724-mannetit tarkibidagi Fe ning miqdori 168:232.

Shu kabi, birinchi sharoit bilan muxokama qilinayotgan jarayonni amalga oshirishda yengil boyitiluvchi, 69-70% temir tarkibli boyitma olish imkonini beruvchi materiallar talab etiladi.

2. Qattiq faza xududlarida tiklanish jarayonida zararli elementlarning (P,S,Ar,Cu i dr.) yo'qolishi amaliyotda sodir bo'lmaydi. Elektropechlarda energiyaning yuqori sarfisiz sifatli po'lat olish uchun dastlabki materialda bu elementlarning tarkibi kam bo'lishi talab qilinadi. Shuning uchun ikkinchi sharoit bilan metallashgan materiallar olishda, dastlabki temir tarkibli boyitma tarkibida zararli elementlarning miqdori 0,01-0,02% dan oshmaydi.

3. Shaxtali pechlarda temir tarkibli rudalarning tiklanish maxsuloti (tiklanish uchun xomashyo sifatida asosan okatishlar ishlatiladi) tashqi ko'rinishidan kelib chiqib, kovak temir (рубчатое железо) deb nomlanadi. Endi tiklanayotgan metallik temir shiddat bilan kuyib, kanglomerat xosil qilishi mumkin, bu esa shaxtali pechlar ish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Modomiki metallning intensiv kuyishi yuqori haroratlarda ortib boradi, shuning uchun jarayonning maksimal harorati 750-900°C dan oshmasligi kerak. Agar jarayonning harorati past bo'lsa, unda tiklanish tezligi pasayadi va jarayonning texnik iqtisodiy ko'rsatgichlari yomonlashadi.

4. Shaxtali pechlarda tiklovchi gazning berilishi qavatlariga yon tomonidan beriladi. Pechning ko'ndalang kesimi o'lchami qancha katta bo'lsa, qavat bo'ylab gazning baravar tarqalishi va qavatga tiklovchi issiqlikni berish qiyinlashadi. Ma'lum kesimlarda buning umuman iloji bo'lmay qoladi. Shuning uchun shaxtali pechlarning ishlab chiqarish quvvati 400-600 ming. t/yil. bilan chegaralanadi.

5. Yangi tiklangan kovak temirning oksidlanishga moyilligi yuqori bo'ladi, tiklash harorati qancha past bo'lsa, bu xususiyat shuncha oshib boraveradi. Shuning uchun metallashgan okatishlarni ishlab chiqarishda oksidlanuvchanlik va o'z-o'zidan alangalanishni oldini olish uchun maxsus choralar ko'riladi.

Shunday qilib, metallashgan materiallardan po'lat olish jarayoni, faqatgina ma'lum sharoitlardagina amalga oshadi:

- yengil boyitiluvchi va zararli qo'shimchalari bo'lmagan temir tarkibli materiallarning mavjudligida;

- arzon tiklovchi gaz manbalari mavjudligida;

- arzon energiya;

- mini-zavodlar qurish imkoni mavjudligida.

Bu sharoitlar hamma xududlarga ham mos kelavermaydi. Shubhasiz bu jarayon sifatli po'lat ishlab chiqarishda iqtisodiy samarali hisoblanadi.

Hozirgi kungacha ko'plab polimetall tarkibli rudalardan oxirigacha foydalanilmayabdi, yoki ulardan faqat qaysidir birgina element ajratib olinmoqda. Mana shunday rudalar uchun chiqindisiz texnologiyalar judayam muhim. Shu turdagi rudalarni samarali qayta ishlashning ratsional yo'llaridan biri temir oksidlarini metallashtirish

va undan so'ng qolgan tashkil etuvchilarini ajratib olish xisoblanadi. Bunday turdagi rudalarni metallashtirish uchun qattiq tiklovchilardan foydalaniladi, temirni boshqa komponentlardan aniqlovchi omil bo'lib, harorat xizmat qiladi. Bunda harorat shunday tanlanadiki, faqat temir oksidlarigina metall xoligacha tiklanadi, qolgan elementlar esa oksid formada qoladi.

2.3. Metallurgik jarayonlarda materiallar balansini va hisobini tuzish qoidalarini

1. Umumiy ma'lumotlar.
2. Temirni rudadan to'g'ridan to'g'ri olish jarayonlarida gidratlar karbonatlarning parchalanish jarayonlari.
3. Suvni yo'qotish usullari.
4. Jarayonda boradigan reaksiyalar va jarayonga ta'sir etuvchi omillar.

Materiallar hisobi issiqlik hisobi bilan bir qatorda asosiy texnologik hisoblar qatoriga kiradi. Material oqimini hisoblash natijasida kerakli ishlab chiqarish dastgohlarining konstruktiv hisobini qilishimiz va jarayonning iqtisodiy samaradorligini baxolashimiz mumkin.

Materiallar balansini quyidagi tenglama bilan ifodalashimiz mumkin: chap tomoni hamma turdagi xomashyolar massalarining yig'indisi ΣG , o'ng tomoni esa olinadigan mahsulot massasi bilan ΣG^I ishlab chiqarishdagi yo'qolishlar yig'indisi $\Sigma G^I_{yo'qol}$ ga teng bo'ladi.

$$\Sigma G = \Sigma G^I + \Sigma G^I_{yo'qol}$$

Material balansining asosi stexiometrik munosabat va modda massasining saqlanish qonuniga asoslanadi.

Material balans asosiy va qo'shimcha reaksiya tenglamalar yig'indisi asosida, modda massasining saqlanish qonuni asosida tuziladi. Material balans asosiy mahsulot (kg, t) dagi o'lchov biriligidagi yoki vaqt biriligidagi tuziladi. Kiritilayotgan va olinayotgan mahsulotlardagi komponentlar, qattiq, suyuq va gaz fazalari uchun alohida aniqlanadi. U quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$G_g + G_s + G_d = G_g^I + G_s^I + G_d^I$$

Jarayonda har doim ham hamma fazalar qatnashavermaydi, bir fazada bir nechta moddalar bo'ladi, bu esa tenglamaning soddalashishiga yoki murakkablashishiga olib keladi.

Nazariy materiallar balans reaksiyalarning stexiometrik tenglamalari orqali hisoblanadi. Buni bilish uchun reaksiya tenglamalarini va komponentlarining molekulyar massalarini bilish yetarli bo'ladi.

Amaliy materiallar balansida dastlabki xomashyo tarkibi va tayyor mahsulot tarkibi, xomashyodagi komponentlarning ortiqchaligi, komponentlarning mahsulotga o'tish darajasi, xomashyo va tayyor mahsulotning jarayon davomida yo'qolishi kabi omillar hisobga olinadi.

Hisoblangan material balansidan, xomashyo va qo'shimcha materiallar sarfini, mahsulotning tannarxini, tayyor mahsulot chiqishi, reaksiya zona hajmini, apparatlar soni va hajmini, ishlab chiqarish quvvatini, ishlab chiqarishdagi yo'qolishlarni aniqlash mumkin.

Material balans asosida issiqlik balans hisoblanadi, bu esa yoqilg'iga bo'lgan talabni, issiqlik almashuvchi yuzani, yoqilg'i yoki sovituvchi agent sarfini aniqlashga imkon beradi. Bu hamma ma'lumotlar jadvalga yozib boriladi.

2.3.1-jadval

Material balans

Mahsulotlar kirishi				Mahsulotning chiqishi			
Dastlabki materiallar	kg	m ³	%	Mahsulot	kg	m ³	%
G ₁				G ₅			
G ₂				G ₆			
G ₃				G ₇			
G ₄				G ₈			
Jami				Jami			

2.3.1. Sarf- xarajatlar koeffitsiyentining hisobi

Misol. Quyidagicha tarkibli rudadan cho‘yan eritib olishda (tarkibida 92% temir bo‘lgan va bo‘sh jinslari bo‘lmagan zararli qo‘shimchalarsiz xarajatlar koeffitsiyentini nazariy hisoblash.

Shpatli ohak FeCO_3 - 115.8 mol

Limonit $2\text{Fe}_2\text{O}_3 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$ - 373 mol

Getit $2\text{Fe}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ - 355 mol

Fe_2O_3 - 159.7 mol

Fe_3O_4 - 231.5 mol

Yechim. 1 kmol FeCO_3 dan 1 kmol Fe olish mumkin yoki 115.8 kg FeCO_3 dan 55.9 kg Fe olish mumkin. Bu yerda 92 % 1 t cho‘yan olish uchun qancha temir karbonat talab etiladi.

$$X = (1 - 0,92 \cdot 115,8) / 55,9 = 1,9 \text{ tn.}$$

Analogik ravishda boshqa rudalar uchun ham xarajatlar koeffitsiyentining nazariy hisobi qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Jarayonlarning an‘anaviy jarayonlardan farqli jixatlarini tushuntiring?

2. Temirni rudadan to‘g‘ridan to‘g‘ri olish jarayonlarining umumiy qonuniyatlari tahlilini bering?

3. Jarayonlarni olib borish uchun xizmat qiluvchi asosiy agregatlar tasnifini tushuntiring?

4. Metallurgik jarayonlarda materiallar balansi deganda nimani tushunasiz?

2.4. Gidratlar va korbonatlarning parchalanishi, suvni yo‘qotish

Kuydirilgan oksidli okatishlarni metallashtirish jarayonida tiklanish, issiqlik uzatish, qattiq va gaz holidagi muxitning xarakati katta ahamiyatga ega.

Agar bo‘laklash jarayoni bilan metallashtirish jarayoni birgalikda olib borilsa, mustaqil jarayonlar soni ortadi, ularning o‘zaro bog‘liqligi esa murakkablashadi. Bulardan bir qanchasi metallashgan

materiallar ishlab chiqarish ko'rsatgichlari hisoblanadi. Shuning uchun ular diqqat e'tiborni talab etadi.

Metallashgan materiallar ishlab chiqarish jarayonlari borishining umumiy sxemasini quydagicha tasvirlash mumkin.

1. Bo'laklash jarayoni paytida xomashyodan metallashgan

maxsulot olish.

Dastlabki material

↓
Quritish

↓
Gidrat va karbonatlarning parchalanishi

↓
Qattiq fazadagi reaksiya

↓
T i k l a n i s h

↓
Metallik Fe ga kuydirish

2. Bo'laklangan metallashgan

maxsulot olish

Dastlabki material

↓
T i k l a n i s h

↓
Qattiq fazadagi reaksiya

↓
Metallik Fe ga kuydirish

Metallashtirish uchun kuydirishga tushayotgan metallash-tiruvchi okatish xomashyosi yetarli darajada zich, xar xil diametrdagi shar shakliga ega bo'ladi. Okatishlarni shunday qayta ishlash talab etiladiki, bir tarafdin okatishlarning butunligi saqlanishi kerak ikkinchi tarafdin jarayon sekinlashmasdan, dastgoxning ishlab chiqarish unumdorligi tushib ketmasligi kerak.

Kuydirish jarayonida okatishlar ikki xil turda parchalanib ketishi mumkin: okatishlar yuzasida yoriq xosil qiluvchi va yuqori xaroratda mayda bo'lakchalarga sochiluvchi **portlovchi** parchalanish.

Yoriq xosil bolishi quritish jarayonining boshlang'ich davrida quritilayotgan okatish xajmida namlik borligi xisobiga sodir buladi. Boshlanishida okatishdan fizika-mexanika kuchlari bilan ushlanib suv tomchilari yo'qotiladi. Quritishning bu bosqichida okatish o'zini egiluvchan yelim kabi nomoyon qiladi. Egiluvchanlik moduli, parchalanishga qarshilik shiddatli ortishi. Bu bosqichda okatish tarkibida mustaxkam bog'lagan suv molekulalari mavjud bo'lishi

xisobiga o'zini egiluvchan plastik kabi nomoyon qiladi. Keyingi bosqichlarda qattik material yuzasidagi molekulyar kuch bilan ushlab turilgan kuchsiz bog'langan suv molekulalari yo'qotiladi. Natijada okatishlarning struktura-mexanik xossalarini o'zgartirib mo'rt sinuvchan xolatga keladi.

Agar quritish jarayonida qavatlarining ayrim bo'laklarida qayta namlanish sodir bo'lsa, u xolda materiallarning mexanik xossalarida kuchli o'zgarishlar kuzatiladi. Bunda qayta namlangan xududlar erkin namlik bilan to'yinadi. Erkin namlikning ortiqchaligida material tez parchalanuvchan bo'lib qoladi. Bunda yoriqlar paydo bo'ladi, ba'zan bunday xolatlar sanoat sharoitlarida ko'proq kuzatiladi.

Quritish jarayoni boshlanishida kappilyar suv tomchilari yo'qotiladi, bu asosan yoriqlar xosil bo'lishi nuqtai nazardan xavfli hisoblanadi.


Quritilganda okatishlarning mustahkamligini ortishiga yordam beruvchi va to'sqinlik qiluvchi kuchlar ortadi.

Musbat va manfiy omillarning nisbati okatishlar tuzilishining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xar xil bo'lishi mumkin.


Sanoat sharoitlarida okatishlarning pastki va o'rta qavatlarida odatda yoriqlar xosil bo'ladi. Yoriqlar xar xil uzunliklarda bo'lib, 2 mm gacha bo'ladi. Yoriqlar tayyor maxsulotlarning mustahkamligini shiddat bilan tushirib yuboradi. (2.2.-rasm)

Parchalanishning boshqa turi (portlash) jarayonning oxirgi davrida kuzatiladi. Bu parchalanishga okatishlarning yuqori qavatlariduch keladi. Bu xolatda ishlab chikarishdagi yo'qolishlar 7% ga yetadi.

Quritish paytida okatishlarning parchalanishiga bir qancha texnologik omillar ta'sir qiladi. Okatishlarning yoriqlar xosil qilishi va parchalanishga mustahkamligi shaxtadagi namlikga bog'lik bo'ladi. Namlik qancha yuqori bo'lsa, parchalanish harorati shuncha past bo'ladi. Okatishlarni konvertor mashinalarida qavatlab quritishda, suvning qavat balandligi bo'ylab qayta tarqalishi kuzatiladi. Natijada qavatlarining qaysidir uchastkalarida qayta namlanish kuzatiladi, bu esa okatishlarning strukturaviy mustahkamligini pasaytiradi.



2.2.-rasm. Kuydirish ohirgi haroratining okatish mexanik xususiyatiga ta'siri:
 1-odatdagi okatishlar; 2-okatishlar yuzasidagi yoriqlari bilan.



2.3.-rasm. Okatishning termomustahkamligiga bentonit qo'shimchasining ta'siri:
 1-Parchalanish harorati; 2-Yoriq xosil bo'lish harorati.

Bog'lovchi moddalarning miqdorining oshishi okatishlarning mustahkamligiga ta'sir qiladi. 3-rasm.


Okatishlanuvchi shixtalarni xarakterlovchi munosabat, 40-50% qattik moddalar, 15-20% namlik, 35-45% xavo. Okatish xosil qilishda gaz xosil qiluvchi faza kamayadi, quritishda esa teskarisi.

Okatishning sifatiga quritish texnologiyasi ham ta'sir qiladi. Kovak materiallarning quritilish nazariyasidan ma'lumki, dastlabki qizdirish yo'li bilan namlik gradientini tushirish mumkin. Okatishlarni dastlab qizdirib, keyin mashinada transportirovka qilish taklif qilingan.

Gidroskopik suvdan tashqari suvda gidratlar xam mavjud bo'ladi. Gidrat suvning bir qancha qismi bo'sh tog' jinslarida murakkab birikmalar ko'rinishida bo'ladi.

Ma'lumki, temir gidroksidlari suvni past haroratlarda oson yo'qotadi. Bunda 80-90 °C dan boshlab ligionit $\text{Fe}_2\text{O}_3 \cdot 1,5\text{H}_2\text{O}$ getitga $\text{Fe}_2\text{O}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$ o'tadi. Getitning degidratsiyasi 320 °C dan boshlab sodir bo'ladi. Faqatgina bir qancha birikmalar suvni yuqori haroratlargacha ushlab turadi. Kaolinit $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{SiO}_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$ 800-1000 °C gacha suvni o'zida ushlab turadi. Shuning uchun qiyin parchalanuvchi gidratlarni qayta ishlayotganda yuqori xarorat zonalarida issiqlik sarfini xisobga olish kerak.

Jarayonda namlik yo'qotishga yordam beruvchi qo'shimchalar jarayonda o'zini qanday tutishini bilish juda muhim. Shixta materiallari tarkibida kalsiy, magniy karbonatlardan tashqari marganets karbonatlari ham mavjud bo'lishi mumkin. Karbonatlarning parchalanishi quyidagi reaksiyalar orqali amalga oshadi.



Nazorat savollari:

1. Gidratlar karbonatlar deganda nimani tushinasiz?
2. Gidratlarning jarayonga ta'siri qanaqa?
3. Suvni yo'qotish deganda nimani tushunasiz?

2.5. Po'lat eritish pechlarida eritish uchun metallashgan materiallar olishning zamonaviy texnologiyalari.

Romelt texnologiyasi.

Temirli rudalardan temirni ajratib olishda ilg'or texnologiyalardan biri bu domna jarayoni hisoblanadi. Domna jarayonining rivojlanishini chegaralovchi omillardan biri kokslangan ko'mirning yuqori sarfi va uning zaxiralarining kamayib borishidir.

Shular bilan bog'liq ravishda, domna jarayonida koks sarfini kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlar ishlab chiqildi, (temir tarkibli xomashyolarni aglomerat yoki okatish ko'rinishida tayyorlash, chang ko'rinishidagi ko'mirni purkash, tabiiy gaz yoki kislorod). Xozirgi kunda gaz bilan tiklash bilan bir qatorda, yoqilg'i sifatida kokslanmagan energetik ko'mirdan foydalanishga qaratilgan texnologiyalar ustida ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarni quyidagi ikki guruhga ajratishimiz mumkin.

1. Past haroratli, bunda tiklanish 950-1100 °C da qattiq fazada sodir bo'ladi.

2. Yuqori haroratli 1400-1500 °C da suyuq fazada sodir bo'ladi.

Birinchi guruhga kiruvchi jarayonlar aylanuvchi trubali pechlarda va karuselli pechlarda olib boriladi, pechlarning ishlab chiqarish unumdorligi kam bo'lganligi sababli bu usul kamroq qo'llaniladi. Ikkinchi guruh jarayonlari esa suyuq fazada sodir bo'ladi, bu jarayonning rivojlanishi bir qancha istiqbolli hisoblanadi.

Hozirgi kunda ma'lum bo'lgan ikki bosqichli suyuq fazali jarayonlar Corex, Romelt, Dios, AISI, Hismelt usullari hisoblanadi.

Romelt texnologik jarayonida temir oksidlari yuqori haroratda suyuq eritmada tiklanadi. Yangi texnologik jarayonning asosiy prinsiplari quyidagilar hisoblanadi.

Homashyo sifatida turli xil temir oksidli materiallarni, ularni dastlabki tayyorlash jarayonlaridan o'tkazmasdan foydalanishligi.

Temir oksidlarini yuqori haroratda, suyuq shlak vannasida uglerod bilan tiklash.

Jarayonda issiqlik va massa almashuv jarayonlarini intensivlashtirish uchun yuqori darajada kislorodga to'yintirilgan havoni shlakli vannaga puflash.

Maksimal darajada yoqilg'i bilan tiklash va yoqilg'i sarfini kamaytirish maqsadida pechdan chiqayotgan yonuvchi gazlar (SO va N_2)larni pechning shlak ustki hajmida oxirigacha yonishini ta'minlash.

Bular Romelt texnologiyasining muhim prinsiplari hisoblanadi. Buning tadbiriq etilishi (boshqa ikki bosqichli suyuq fazali tiklash jarayonlaridan farqli ravishda) jarayon bitta bosqichda, bitta agregatda amalga oshiriladi va cho'yan bilan bir qatorda energetik maxsulotlar (par, elektr energiya) olinadi, shuning uchun bu jarayon energotexnologik jarayonlar qatoriga kiradi.

Romelt texnologiyasi yordamida domna jarayoni maxsulotlaridan farqli ravishda tarkibida kremniy va marganets kam bo'lgan (0.05-15%) cho'yan olinadi. Bundan tashqari istalgan turdagi temir tarkibli xomashyolarni, ularni dastlabki tayyorlovlarsiz qayta ishlash imkoniyati mavjud. Yoqilg'i sifatida metallurgik koksdan va ko'mir-dan foydalaniladi, energetik yoqilg'ilar dastlabki tayyorlash bosqichlarini talab qilmaydi.

Romelt jarayonining texnologik sxemasi.

Temir tarkibli konsentrat, ko'mir va ohak uzluksiz ravishda Romelt pechiga yuklanadi. Hamma asosiy fizika-kimyoviy jarayonlar qizdirilgan shlak eritmasida vannaning barbotaj qilinayotgan zonasida sodir bo'ladi. Bular quydagilarni o'z ichiga oladi.

- temirli rudalarning erishi
- qattiq yoqilg'i bilan temir, marganets, kremniy oksidlarining tiklanishi.

- Suyuq metall va shlak hosil bo'lishi.

- Temirning uglerodlanishi.

Tiklanish natijasida xosil bo'lgan metall tomchilari shlak qavati orqali o'tib, pechning tag qismiga cho'ka boshlaydi. Shlak, bo'sh jinslar, ko'mirning kuli, flyuslardan hosil bo'ladi.

Shlak eritmasiga pastki formalar orqali kislorod havoli aralashma puflanadi. Kislorod havo aralashmasining asosiy vazifasi ko'mir tarkibidagi uglerodni oksidlab massa va issiqlik almashish jarayonlarini tezlashtirish uchun barbotaj hosil qilish. Ko'mirning yonishidan va uglerdning temir oksidi bilan reaksiyaga kirishishi

natijasida hosil bo'lgan gazlar shlak qavatidan o'tib uni intensiv aralashtiradi, natijada temir tiklanishining tezlashishi ta'minlanadi. Birgina bunda ajralib chiqayotgan issiqlik eritmani kerakli haroratda ushlab turish uchun yetarli emas. Buni ta'minlash uchun esa pechdan chiqayotgan SO va N₂ tarkibli gazlar pechda shlak eritmasining ustki qismida joylashgan formalar yordamida berilayotgan kislorod bilan oxirigacha yondiriladi.

Romelt pechkasi

Romelt pechkasiga quyidagi asosiy elementlar kiradi:

- Pechning ishchi hajmi va shlak va cho'yan cho'kuvchi xajm;
- Havo o'ruvchi tuynik (apteyk);
- Cho'ktiruvchi xajm va ishchi hajmdagi olovbardosh qoplamalar;
- Sovutuvchi elementlar va suvli sovutish sistemasi;
- Shlak va cho'yan chiqaruvchi tuynik (jelob);
- Shlak vannasiga puflovchi pastki formalar;
- SO va N₂ ni oxirigacha yoqish uchun yuqorigi formalar;
- Cho'ktiruvchi hajm va shlak chiqaruvchi tuynikni qizdiruvchi gorelkalar;
- Romelt pechining ishlab chiqarish unumdorligi 31 t/s bo'lganda, uning tag qismi maydoni 24 m² ni tashkil etadi.

Pechning ishchi hajmi suyuq fazali tiklanish jarayonlarini amalga oshirish uchun xizmat qiladi va u quydagilarni o'z ichiga oladi:

- Eritish suyuq maxsulotlari uchun olovbardosh qoplamali vanna;
- Shlak eritmalari barbotaj bo'luvchi pechning pastki formali aktiv zonasi;
- Yuqori formalar bilan jihozlangan chiqindi gaz tarkibidagi yonuvchi moddalarni oxirigacha yondiruvchi zona;
- Pechning ishchi hajmi yuqori (shift) qismida shixta yuklash uchun ikkita tuynik bilan jixozlangan.

Ishchi hajm va shlak va metal cho'ktiruvchi qism umumiy karkasga ega.

Havo so'ruvchi tuynik (apteyk) pechning ishchi hajmidan yuqoriroqda joylashgan. Tuynikdan cho'yan va shlak cho'ktirish

zonasidan xam chiqindi gazlarni chiqarib oladi. Tuynik shlak cho'kuvchi tarafda joylashgan.

Shlak va cho'yan cho'kuvchi xajm pech ishchi hajmining yon qismida joylashgan va u bilan uzatuvchi kanal orqali bog'langan.

Shlak cho'kuvchi qismida shlakni davriy ravishda granula qiluvchi dastgoxga chiqarish uchun letkalar o'rnatilgan. Pechning tag pog'onasiga pech to'xtagan paytda pech xajmidagi xamma maxsulotni chiqarish uchun letkalar o'rnatilgan. Cho'yan va shlak cho'kuvchi hajmida olovbardosh qoplamali sovutuvchi qopqog'i mavjud. Qopqoqda chiqindi gazlarni chiqarish uchun tuynuklar mavjud bo'lib, bu gazlardan namuna olish uchun ham xizmat qiladi.

Olovbardosh qoplama pechning tag qismi va ishchi hajm devorining past qismiga, pastki formalargacha cho'yan va shlak cho'ktirish hajmini himoyalash uchun qoplanadi.

Qoplama sifatida grafitli, magnezitli va xromitli olovbardosh materiallardan foydalaniladi.

Ishchi hajmining yon devorlariga shlak va cho'yan chiqarilishi uchun va ishchi hajmni cho'ktirgich bilan bog'lash maqsadida kanallardan foydalaniladi. Kanallarni olovbardosh materiallar bilan qoplash uchun xromli materillardan foydalaniladi.

Metallni va shlakni davriy ravishda va butunlay chiqarish uchun tarnovlar o'rnatiladi. Tarnovlar pechning karkaslariga gardishlar (фланец) yoki ustunlar orqali qotiriladi. Kerakli paytda yechib olish imkoniyati mavjud.

Pechning sovutuvchi elementi sifatida yopiq konturda aylanuvchi kimyoviy tozalangan suv xizmat qiladi.

Pechga quyidagi forma va voronkalar o'rnatiladi.

Shlak vannasiga kislorod va havo purkovchi pastki qator formalari;

(SO i N₂) yonuvchi komponentlarni oxirigacha yondirish uchun kerak bo'ladigan kislorodni puflash uchun yuqori qatorga formalar;

Shlak tarnovini va cho'ktirgichni qizdirish uchun gorelkalalar.

Kovshni qizdiruvchi moslama

Yuqori haroratlarda qizdiriluvchi, choʻyan tashuvchi kovshlar pechga choʻyan quyish vaqtida maxsulotni yuqori haroratda ushlab turish uchun uni 1200°Cgacha qizdiriladi. Xar bir Romelt pechi uchun ikkita shunday kovsh xizmat qiladi.

Shlakni granula qiluvchi moslama

Pech oldi granulyatsiyalovchi dastgoxlarida suyuq shlakni qayta ishlash nazarda tutiladi.

Shlakni granulyatsiyalovchi texnologiya boʻyicha qotishma shlaklari maydalanadi, maydalangan shlaklar suvda sovutiladi. Bir vaqtning oʻzida shlakning fizik issiqligi hisobiga granshlak suvsizlantirilib, quritilib yuklash traktiga yuboriladi.

Xar bir granulyatsiyalovchi moslama quyidagi texnologik liniyadan tashkil topadi:

Qabul qiluvchi uzal va shlakni granulyatsiyalovchi uzal;

Granshlakni suvsizlantiruvchi va konveyerga chiqarish uzeli;

Yopiq suv taʼminoti sistemasi;

Par-havo aralashmasidan tozalovchi sistema va moʻri.

Granulyatsiyalovchi dastgohlarning maksimal ishlab chiqarish unumdorligi 1 t/min gacha.

2.6. Temirli rudalardan metallashgan materiallar olish uchun shixta tarkibini hisoblash

2.6.1. Dastlabki maʼlumotlar

Shixta tarkibi hisobi 1 tn metallashgan material uchun olib boriladi.

1. Shixta tarkibini hisoblash uchun metallashgan material (choʻyan) tarkibi 2.6.1. -jadvalda keltirilgan.

2.6.1 -jadval

Metallashgan material (cho'yan) tarkibi

Elementlar miqdori, %					
Si	Mn	P	S	C	Fe
0,6	1.4	0,08	0,04	4,2	93,68

1. Temir tarkibli rudalar shixtasining 85% qismi flyuslangan aglomeratdan, 15% flyussiz okatishlardan tashkil topadi.

2. Marganetsli ruda, flyus va koks tarkibi quyida keltirilgan. Koks kuli tarkibi va unung koks tarkibiga qayta hisoblanganligi 2.6.2. -jadvalda keltirilgan.

2.1.1. -jadval

Materiallar tarkibi

Miqdori %	Material			Koks	Ruda
	Aglomerat	Okatish	Koks kuli		
Fe	53,20	62,20	17,78	1,81	54,55
Mn	0,09	0,07	1,14	0,12	0,09
S	0,028	0,020	0,816	0,033	0,027
P	0,044	0,039	0,358	0,037	0,043
Fe ₂ O ₃	62,11	85,52	25,40	2,59	65,62
FeO	12,50	3,00			11,08
Mn ₃ O ₄			1,58	0,16	
MnO	0,11	0,09			0,11
SiO ₂	10,50	4,00	42,80	4,37	9,53
Al ₂ O ₃	1,30	2,10	22,40	2,28	1,42
CaO	12,86	4,40	2,80	0,29	11,59
MgO	0,40	0,40	2,16	0,22	0,40
P ₂ O ₅	0,100	0,090	0,820	0,08	0,099
FeS	0,050				0,043
SO ₃	0,070	0,050	2,040	0,21	0,067
H ₂ O	0,54				0,46

2.1.2. -jadval

Marganetsli rudaning kimyoviy tarkibi

Miqdori, %							
Fe	Mn	S	P	MnO	MnO ₂	Fe ₂ O ₃	SiO ₂
	37,38			5,00	53,00	2,10	28,00
Miqdori, %							
Al ₂ O ₃	CaO	MgO	SO ₃	P ₂ O ₅	n.n.n.	H ₂ O	
3,00	2,00	1,40	0,15	0,35	5,00	12,00	

2.1.1.-jadval

Ohakning kimyoviy tarkibi

Fe	S	P	CaO	MgO	SiO ₂	Al ₂ O ₃	Fe ₂ O ₃	P ₂ O ₅	SO ₃	CO ₂
			53,50	0,85	5,00	0,80	0,70	0,03	0,03	42,3

2.1.2.-jadval

Koks va uchuvchan moddalar tarkibi

Miqdori, %				
Koks tarkibi				
Kula ^c	Oltingugurt S ^c	Uchuvchan	Uglerod C ^c	H ₂ O _{гипр}
10,20	1,81	1,20	86,79	3,10
Uchuvchan koks tarkibi, %				
CO ₂	CO	CH ₄	H ₂	N ₂
27,0	32,0	1,6	3,8	35,6

3. Qo'shimcha yoqilg'i sifatida tabiiy gazdan foydalaniladi. Tabiiy gaz sarfi 1 tn metallashgan mahsulotga 120 m³.

2.1.1. -jadval

Tabiiy gaz tarkibi

CH ₄	C ₂ H ₆	C ₃ H ₈	C ₄ H ₁₀	C ₅ H ₁₂
92,0	4,6	0,9	0,8	0,2

4. Metallashgan mahsulotlar olish sharoitlari.
 - a. Shlakning asoslilik 1,06.
 - b. Harorat 1200 °C.
 - c. Quruq par tarkibi: issiq par tarkibidagi kislorodning miqdori $\omega = 0,25$; azotning miqdori $(1 - \omega) = 0,75$.
 - d. Issiq havo namligi $f = 1,2\%$ (hajm bo'yicha).
 - e. To'g'ridan - to'g'ri tiklanishning rivojlanish darajasi $r_{d4} = 0,32$.
 - f. Vodorodning tiklovchilik qobiliyatidan foydalanish darajasi, 0,3-0,5. Hisoblashda $\eta_{H_2} = 0,4$ deb qabul qilingan.
 - g. Chiqindi gazlar harorati 300 °C.
 - h. Metallashgan mahsulot entalpiyasi quyidagi formula orqali aniqlanadi: $Q_{cho'yan} = 147 + 0,756 \cdot t$
 Bu yerda t – metallashgan mahsulotning harorati, 1400-1450 °C cho'yan uchun. Hisoblashda 1410 °C deb qabul qilamiz.
 $Q_{cho'yan} = 147 + 0,756 \cdot 1410 = 1212,96 \text{ kJ}$.
 - i. Shlakning entalpiyasi quyidagi formula orqali aniqlanadi.
 $Q_{shlak} = 1459,5 + 2,1 \cdot (t - 1300)$ $t_{n1 \text{ shlak}} = 1300-1450 \text{ °C}$ da,
 $Q_{shlak} = 1774,5 + 1,68 \cdot (t - 1450)$ $t_{shlak} > 1450 \text{ °C}$ da.
 Bu yerda t – slakning harorati (1470 °C).
 $Q_{shlak} = 1774,5 + 1,68 \cdot (1470 - 1450) = 1808,1 \text{ kJ}$.
 - j. Issiqlikning yo'qolishiga quyidagilar kiradi: sovituvchi suv bilan yo'qoluvchi issiqlik, pech devorlari orqali konveksiya yo'li bilan yo'qoluvchi issiqlik, qiymati 1260 dan 2100 kJ/kg C_{koks} ga hisoblashda 1260 kJ/kg C_{koks} .
 - k. Ruda aralashmalarining koloshnik gazlari bilan yo'qolishi 2,7%, koks yo'qolishi – 1,2%.
 - l. Metan hosil bo'lishiga $[C]_{CH_4} = 0,8\%$ koks uglerodi sarflanadi.

2.6.2. Temir tarkibli materiallarning o'rtacha tarkibini hisoblash

$$[E]_{p.c.} = [E]_{agl} \cdot \eta_{agl} + [E]_{okat} \cdot \eta_{okat}$$

Bu yerda η_{agl} va η_{okat} – shixtadagi aglomerat va okatishning massa ulushlari.

Hisoblash natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

Temir tarkibli ruda, flyus va marganetsli rudalarning harajat miqdorlari 1 tn metallashgan material olish uchun aniqlanadi. Shixta-ning harajat koeffitsiyentlari balansli tenglama orqali olib boriladi. x, y va z harflari orqali ruda, marganetsli ruda va ohaklar belgilanadi.

Shixta komponentlaridan metallashgan materiallarning chiqishi

Metallashgan materiallarning chiqishi – bu kattalik bir birlik materialni eritganda hosil bo‘ladigan metallashgan material miqdorini ifodalaydi. Metallashgan materiallarning chiqishi elementlar orqali aniqlanadi. Metallashgan materiallar tarkibidagi elementlar (Fe, Mn, P, As, Ni, Cu, Cr, V va b.) miqdori shixta tarkibiga bog‘liq. Boshqa elementlar (C, Si, S, Ti) miqdori esa eritish sharoitlariga bog‘liq.

Shixta tarkibidagi elementlar eritish jarayonida cho‘yan, shlak va gazga tarqaladi.

Metallashgan materiallarning chiqishi quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$\eta = \frac{Fe \cdot \eta_{Fe} + Mn \cdot \eta_{Mn} + P \cdot \eta_P}{100 - [Si] - [C] - [S]} = \frac{A}{100 - B}$$

2.1.2. - jadval

Shixta materiallaridan metallashgan materiallarning chiqishini aniqlash

Parametr	Ruda aralashmasi	Marganetsli ruda	Ohak	Koks
Fe, %	54,550			1,810
Fe · η_{Fe}	54,277			1,801
Mn, %	0,087	37,380		0,120
Mn · η_{Mn}	0,048	20,559		0,066
P, %	0,043			0,037
P · η_P	0,043			0,037
A	54,368	20,559		1,904
B		4,840		
η	0,5713	0,2160		0,0200

Bu yerda Fe, Mn, P – Mos ravishda elementlarning materiallardagi miqdori; η_{Fe} , η_{Mn} , η_P – elementlarning cho‘yanga o‘tish koeffitsiyentlari, massa birligida; [Si], [C], [S] – Mos ravishda elementlarning metallashgan materiallardagi miqdori.

Cho'yanga o'tuvchi boshqa elementlar mavjudligida bu ifodaga mos ravishda qo'shimcha ko'paytuvchilar kiritiladi.

Shixtadan metallashgan materiallarning chiqishi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\begin{aligned} Q_{p.c.} \cdot x + Q_{m.p.} \cdot y + Q_{m3B} \cdot z &= 1000 \\ 0,571x + 0,216y &= 1000 \end{aligned}$$

Shixta komponentlarida marganetsning balansi

Agar har bir shixta komponentlari bilan kiritilayotgan marganetsning miqdorini cho'yan tarkibiga kerak bo'ladigan miqdorga hisoblasak, unda marganetsning ortiqchaligi yoki yetishmovchiligi kelib chiqadi.

2.1.3.-jadval

Shixta komponentlari bilan kiritilayotgan marganetsning ortiqchaligi (yetishmovchilik)

Parametr	Ruda aralashmasi	Marganesli ruda
$Mn \cdot \eta_{Mn}$	0,048	20,559
$[Mn] \cdot \psi$	0,7990	0,3020
$(Mn) = Mn \cdot \eta_{Mn} - [Mn] \cdot \psi$	-0,7510	20,2570

Marganets balansini ifodalovchi tenglama quyidagicha ko'rinish oladi:

$$-0,751x + 20,257y = 0.$$

Ma'lum nordonlikdagi shlakda nordon va kislotali oksidlarning balansi

Har bir shixta komponentning nordonligi, shlakning belgilangan nordonligidan farq qiladi, shunda shixta komponentlarida nordon oksidlar miqdorining ortiqchaligi yoki kamligi kelib chiqadi:

$$\pm \overline{RO} = CaO + MgO - B_{shl} \cdot (SiO_2 - \frac{60}{28} \cdot [Si] \cdot \psi + Al_2O_3),$$

Bu yerda $\pm \overline{RO}$ – shixta komponentlarida nordon oksidlar miqdorining ortiqchaligi yoki kamligi; CaO, MgO va va.b. – mos ravishda shixta komponentlaridagi miqdori; B_{shl} – shlakning

belgilangan nordonligi; $60/28 - \text{SiO}_2/\text{Si}$ lar molekulyar massalari; $[\text{Si}]$ — cho'yanda kremniyning miqdori; $[\text{Si}]$ — ma'lum komponentdan cho'yanga o'tgan kremniyning miqdori.

Shixta komponentlaridagi ortiqcha va yetmagan nordonlarning algebraik yig'indisi nolga teng bo'lishi kerak.

Nordonlik bo'yicha balans quyidagicha ko'rinish oladi.

$$(\pm \overline{RO})_{p.c} \cdot M_{p.c} + (\pm \overline{RO})_{u.p} \cdot M_{u.p} + (\pm \overline{RO})_{u.s} \cdot M_{u.s} = 0$$

Shunda

$$\overline{RO}_{r.a} = 11,591 + 0,40 - 1,06 \cdot (9,525 - \frac{60}{28} \cdot 0,6 \cdot 0,571 + 1,42) = 1,167$$

$$\overline{RO}_{u.s} = 2,0 + 1,40 - 1,06 \cdot (28,00 - \frac{60}{28} \cdot 0,6 \cdot 0,216 + 3,0) = -29,166$$

$$\overline{RO}_{u.s} = 53,50 + 0,85 - 1,06 \cdot (1,75 - \frac{60}{28} \cdot 0,6 \cdot 0,0 + 0,80) = 51,647$$

$$\overline{RO}_z = 0,286 + 0,22 - 1,06 \cdot (4,37 - \frac{60}{28} \cdot 0,6 \cdot 0,02 + 2,28) = 6,516$$

$$1,167x - 29,166y + 51,647z = 0.$$

Bitta birlik koks kulini shlakga o'tkazish uchun sarf bo'ladigan flyus sarfi;

$$z' = \frac{\overline{RO}_z}{\overline{RO}_{u.s}} \quad z' = \frac{6,516}{51,647} = 0,126.$$

Barcha koks kulini shlakga o'tkazish uchun sarf bo'ladigan flyus sarfi

$$z_x = z' \cdot K = 0,126 \cdot K.$$

Shunday qilib, quyidagi tenglamalar sistemasi hosil bo'ladi:

$$\begin{cases} 0,571x + 0,216y = 1000 \\ -0,751x + 20,257y = 0 \\ 1,167x - 29,167y + 51,647z = 0. \end{cases}$$

Tenglamalar sistemasini yechib, quyidagi natijalarni olishimiz mumkin:

$$x = 1727,092 \text{ kg}; \quad y = 64,029 \text{ kg}; \quad z = 2,867 \text{ kg}.$$

Nazorat savollari:

1. Texnologiyaning mohiyatini yoriting.

2. Tiklanish jarayoni qanday yoqilg'i yordamida amalga oshadi?
3. Energiya tejamkor texnologiya deganda nimani tushunasiz?
4. Aktivlik koeffitsiyentiga ta'rif bering.
5. 1 % li standart eritmaga nisbatan aktivlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?
6. Fe – Al eritmasi uchun aktivlik koeffitsiyenti qanday formula orqali aniqlanadi?

2.7. Temir va temir oksidlarining xossalari

Temir metallar orasida alohida ahamiyatga ega. Temir va uning qotishmalarini ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan sanoatning hamma tarmoqlarining texnik jarayonlari rivojlana boshladi. Qattiq temirning ikkita turli modifikatsiyalari mavjud: α -temir $20\text{ }^{\circ}\text{C}$ da elektron panjaralari markazlashgan kub shaklga ega, markaziy panjarasi $2.8606\text{ \AA}^0$ va γ -temir, 906°C da elektron panjarasi markazlashmagan kub shaklga ega, markaziy elektron panjarasi $3,59\text{ \AA}^0$ ga teng.

$768\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha α -temir o'zining magnitlanish xossasini saqlab turadi.

$768\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan 906°C gacha magnitlanish xususiyatiga ega bo'lmagan β -temir xolatida bo'ladi. 906°C da β -temir γ -temirga o'tadi. Harorat $1401\text{ }^{\circ}\text{C}$ da γ -temir δ -temirga aylanadi.

Temirning o'tish haroratida xususiyati juda tez o'zgaradi. Temir quydagi fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega:

Atom massasi 55.84

α -temirning atom massasi – 7.19

solishtirma og'irligi

α -temir 7,87-7,88

γ -temir $20\text{ }^{\circ}\text{C}$ da 8,1-8,2


erish harorati $1539\text{ }^{\circ}\text{C}$

qaynash harorati $3200\text{ }^{\circ}\text{C}$

qaynash issiqligi 3650 kkal/mol ;

bug'lanish issiqligi 84200 kkal/mol

$1600\text{ }^{\circ}\text{C}$ da qovushqoqligi – 0.060 pz.



2.1.3. -rasm. Fe - O Xolat diagrammasi

Temirning qaynash harorati unga boshqa qo'shimcha elementlar qo'shganda kamayadi. Masalan: 1% uglerod 73 °C ga, 1% kremniy 12 °C ga, 1% manganets-3°C ga, 1% fosfor 30 °C ga tushiradi. Suyuq temir o'zida ko'plab boshqa metallarni eritish xususiyatiga ega. Unda quyidaga metallar Al, Cu, Mn, Ni, Co, Si, Sb lar chegaralanmagan tarzda eriydi. Fe1-yO, Fe_3O_4 va Fe_2O_3 (7-rasm).

Vyustit tarkibida 23,1% dan 25,6% gacha O_2 bo'ladi. Vyustit NaCl kabi granmarkazlashgan kubik panjaraga ega bo'ladi. Agar panjaraning xamma uzellari mos ravishda kislorod ionlari bilan band bo'lsa, temir ionlari uzeli bo'sh joy mavjud bo'ladi. Shuning uchun panjarada uch valentli temir ionlari joylashgan bo'ladi, aks xolda elektronneytrallik sharti buziladi.

Ortiqcha musbat zaryadlangan temir ionlari panjara bo'ylab ikki va uch valentli temir ionlari orasida ko'chib yuradi. Bu zaryadlar defekt elektronlar deb nomlanadi, ular elektr toki tashuvchilar xisoblanadi va vyustitning elektr o'tkazuvchanligini keltirib chiqaradi.

Temir ionlarida bo'sh joy borligi tufayli, panjara bo'ylab temir ionlari xarakatlanadi, bunda temir ionlaridagi bo'sh joy qarama-

qarshi yo'nalishga adashadi. Temirning vyustitga o'z-o'zini diffuziyalash koeffitsienti D^*_{Fe} bilan vakantsiya D_v diffuziyasi orasida bog'liqlik mavjud:

$$yD_b = (1-y)D^*_{Fe}$$

y- Bo'sh joy konsentratsiyasi.

Bo'sh joy koeffitsienti unga bog'liq emas va quyidagicha topiladi:

$$D_b = D_0 \exp(-27800/RT), \text{ gde } D_0 = 4,5 \cdot 10^{-2} \text{ sm}^2/\text{s}.$$

Bo'sh joy konsentratsiyasi bilan vyustitning doimiy panjarasi deyarli chiziqli o'zgaradi.

2.7.1.-jadval

Vyustitning tarkibi va parametrlari

Tarkibi	Temir miqdori, %	Panjaralar o'lchami, nm	zichligi g/sm ³	Tarkibi	Temir miqdori, %	Panjaralar o'lchami, nm	zichligi g/sm ³
Fe _{0,91} O	47,68	0,4282	5,613	Fe _{0,93} O	48,23	0,4292	5,658
Fe _{0,92} O	47,85	0,4285	5,624	Fe _{0,945} O	48,65	0,4201	5,728

7500 °C da Fe-Fe_{1-y}-O va Fe_{1-y}O-Fe₃O₄ larning muvozanat chiziqlari kesishadi.

Binobarin, bundan past haroratlarda vyustit Fe va magnetitga ajralishi kerak.

Magnetit shpinnel turidagi panjaraga ega bo'ladi. Shpinnellar uchun xarakterli jixati ularning elektron panjalarida kislorod eng mustahkam kubik qavat hosil qilishi.

Magnetit $\alpha\text{-Fe}_2\text{O}_3$ da sekin eriydi.

Magnetit ferrimagnitli, Kyuri harorati 627- °C. Magnetitning oksidlanishida Fe₂O₃ ning bir xil ximik tarkibiga javob beradigan turli xil oksid fazalar olish mumkin.

Trigonal panjaraga ega bo'lgan gematit ($\alpha - \text{Fe}_2\text{O}_3$) mustahkam hisoblanadi, va uning boshqa oksidlardan farqli jixatlari 2.7.2.-jadvalda keltirilgan. Panjara parametri $a=0,5427$ nm. Gematit anti-ferromagnetit hisoblanadi.


2.7.2-jadval

Temir oksidlari xarakteristikasi.

Modda	Molekulyar atom massasi	Zichligi	Atomlarga nisbatan mol hajmlari	
			Temirning	Kislorodning
Fe	55,85	7,86	1	—
Fe _{0,95} O	69,05	5,73	1,78	1
α -Fe ₂ O ₃	159,70	5,26-	2,09-	0,82-0,83
γ -Fe ₂ O ₃	159,70	5,355	2,13	1
Fe ₃ O ₄	231,55	4,4	2,55	0,93
		5,1	2,10	

Magnetit γ -Fe₂O₃ ($\alpha=0,8322$ - $0,8340$ nm) ni ma'lum sharoitlarda olishadi. (asosiysi past xaroratlarda).

Temir oksidlarining termodinamik mustaxkamlik hududlari 5-rasmda keltirilgan.



2.1.4. -rasm. Temir oksidlarining termodinamik mustaxkamlik xududlari.

Nazorat savollari:

1. Temir elementining necha xil oksidlari mavjud?
2. Erish jarayonida temir oksidlarining xossalari qanday o'zgardi?
3. Temir oksidlari xossalari haroratning ta'siri qanday?



2.8. Temir oksidlarining tiklanish termodinamikasi

Temirning oksidlardan tiklanishi quyidagi sxema bo'yicha yuqori oksidlardan past oksidlarga tomon boqichma bosqich o'tish yo'li bilan amalga oshadi.



(570 °C dan yuqori) yoki $\text{Fe}_2\text{O}_3 \rightarrow \text{Fe}_3\text{O}_4 \rightarrow \text{Fe}$ (570 °C dan past).

Bunda Fe-O diagrammaga muvofiq, sistemada nafaqat past oksidlar va metallar, qattiq eritma ham hosil bo'ladi. Quyida temir oksidlarining gaz xolidagi tiklovchilar bilan tiklanish reaksiyalari keltirilgan:



Bu reaksiyalarning har biri uch komponentli va uch fazali reaksiyalar hisoblanadi. Binobarin, ularning xolatini xarakterlovchi kattaliklaridan (umumiy bosim, harorat, tiklovchi va tiklanuvchining partial bosimi) faqat ikkitasi o'zgarishi mumkin, qolganlari ularning funksiyalari hisoblanadi. Le-SHatele prinsipini inobatga olsak, u xolida reaksiya muvozanati umumiy bosimga bog'liq emasligini ko'rishimiz mumkin.

$$K = f(T) = \frac{P_{\text{CO}_2}(\text{h}_2\text{o})}{P_{\text{CO}}(\text{h}_2)} \quad (7)$$

va (4) reaksiyalar uchun mos ravishda

$$\lg K_r = 1720/T + 2,81 \text{ i } \lg K_r = -160/T + 4,48 \quad (8)$$

va (5) reaksiyalar uchun mos ravishda

$$\lg K_p = -1560/T + 2,00 \text{ i } \lg K_p = -3440/T + 3,67 \quad (9)$$

Bu reaksiyalar issiqlikning yutilishi bilan borganligi uchun muvozanat ko'effitsienti harorat ortishi bilan ortadi, CO va H₂ larning miqdori esa aralashmada kamayadi.

(3) reaksiyada issiqlik ajralishi kuzatiladi, natijasida esa harorat ortishi bilan reaksiya muvozanati chapga siljiydi. Bu reaksiya uchun

$$\text{LgKr} = 1190/T - 1,26 \quad (10)$$

reaksiya endotermik, shuning uchun reaksiya muvozanati o'nga siljiydi.

$$\text{LgKr} = -690/T + 0,405 \quad (11)$$

Magnetitning temirgacha tiklanish reaksiyalari:




(ekzotermik)



(ekzotermik)




1-6 reaksiyalarning grafik ifodasi quyidagi rasmda keltirilgan. (1)-(6), (14), (15) reaksiyalar uchun diagrammada har bir liniyada gaz fazasining tarkibi haroratga bog'liq ravishda o'zgarishini ko'ramiz.



2.8.1. -rasm. Fe-O-CO i Fe-O-H₂ muvozanat diagrammasi.

Liniya a-b (14), b-f (2), b-d (3), a-b (15), b-f (5), b-d (6). (1) va (4) reaksiyalarining liniyalari diagrammada yo'q, chunki ular obssissa o'qiga juda yaqin. Diagramma temir oksidlarini to'liq tiklash

uchun kerak bo'ladigan gazning tarkibi haqida ma'lumot beradi. Tiklovchi gazning ortiqchaligini inobatga olsak (2), (3), (5) va (6) reaksiyalar quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi.




Reaksiya uchun 800°C da gazning muvozanat tarkibida 70% SO va 30% SO_2 , shunda $K=1/(n-1)=30/70$; $n=10/3$ bo'ladi. Shu kabi tiklash uchun 1 mol tiklovchi emas, balki $1/3$ mol tiklovchi talab etiladi.

Egri chiziqlarning tahlili temir oksidlarining uglerod oksidi bilan tiklanish jarayonini shartli ravishda ikki "yengil" va "qiyin" jarayonlarga bo'linishini ko'rsatadi. Birinchi yengil bo'lakga temirning yuqori oksidlarining tiklanishini, ikkinchi qiyin bo'lakga esa, FeO ning tiklanishi kiradi. (14) va (15) reaksiyalarning borishi uchun gazli muhitda tiklovchi gazning yuqori miqdori talab etilmaydi. FeO ning tiklanishi gaz fazasida SO ning yuqori konsentratsiyasi bilan boradi.

(14)-(17) reaksiyalar 2.8.2.-rasmda temir oksidlarining vodorod va uglerod oksidlari bilan tiklanish termodinamikasida farq borligini tasvirlaydi. 810°C dan past haroratda vodorod SO ga qaraganda ancha kuchsiz tiklovchi hisoblanadi, modomiki aralashmada N_2 ning konsentratsiyasi uglerod oksidining miqdoridan oshiqcha bo'ladi. 810°C dan yuqori haroratlarda N_2 kuchli tiklovchiga aylanadi.

Temir oksidlarining qattiq uglerod bilan tiklanishi quyidagicha reaksiyalar bilan amalga oshadi:



(20) reaksiya uchun

$$\text{LgKr} = -7730/T + 7,84 \quad (21)$$


Manfiy issiqlik effektining yig'indisi effekt 4240 kDj/kg temir.

Qattiq uglerod ishtirokidagi temir oksidlarining tiklanishini taxlil qilishda

S-SO-SO₂ sistema muvozanatini inobatga olish zarur.




(20) reaksiya uglerodning gazifikatsiyalanish reaksiyasi yoki Bella-Buduar reaksiyasi deyiladi va bosimga bog'liq. Bosim ortganda muvozanat chapga siljiydi, 10-ramda reaksiyaning xolat liniyalari keltirilgan.



2.8.2.-rasm. Bosim, kPa: 1 – 50; 2 – 100; 3 – 150 bo'lganda C – CO – CO₂ sistema muvozanati.

(22) reaksiya qaytar reaksiya hisoblanadi. Muvozanat egri chiziqdan chap tomonda reaksiya uglerod oksidi parchalanishi tomonga boradi:



O'ng tomonda esa uning hosil bo'lishi bilan boradi:




Modomiki, reaksiyaning borishi bosimga bog'liq ekan rasmda bitta gazning liniyasi emas, balki hamma gazlarning liniyalari keltirilgan.

Gaz yuqori harorat rayonlarida SO dan tashkil topadi, tiklashga shaxtali pechga kirayotgan gaz 15-16% SO₂ i 19-20% SO tarkibga ega bo'ladi yoki SO+SO₂ yig'indisiga qayta hisoblanganda 40-45%


SO₂ i 55-60% SO. Pechda gazning real tarkibining o'zgarish diapozoni shtrixlangan. 2.9.3.-rasm

Fe-O-CO i C-CO-CO₂ muvozanat sistemaning birlashgan diagrammasi keltirilgan.



2.8.3.-rasm. Fe-O-CO i S-SO-SO₂ xolat diagrammasi

Birlashgan diagrammadan ko'rinib turibdiki, yuqori haroratlarda gaz tarkibida SO₂, miqdori kam bo'ladi, chunki $SO_2 + S = 2SO$ reaksiya tezligi juda yuqori. Shuning uchun yuqori haroratlarda tiklanish qattiq uglerodning sarfi bilan borgani bilan tiklash uchun uglerod oksidi xizmat qiladi. Bundan kelib chiqib tiklanish reaksiyasini quyidagicha yozish mumkin:



Gaz xolidagi tiklanish maxsulotning turidan kelib chiqib, tiklanish to'g'ridan to'g'ri va to'g'ridan to'g'ri bo'lmagan tiklanishga farqlanadi.

Tiklanish maxsuloti sifatida SO xosil bo'lsa to'g'ridan to'g'ri. SO₂ yoki N₂O xosil bo'lsa to'g'ridan to'g'ri bo'lmagan tiklanishga mansub bo'ladi.


(25) reaksiya to'g'ridan to'g'ri tiklanish mexanizmini tushuntirish uchun qulay sxema hisoblanadi.

Nazorat savollari.


1. Termodinamika qonunlarini bilasizmi?
2. Temir oksidlarining tiklanish bosqichlari qanday?
3. Reaksiyalar borishiga ta'sir qiluvchi omillar?

2.9. Boshqa elementlarning tiklanish termodinamikasi

Marganets oksidlarining tiklanishi. Marganetsning yuqori oksidlari past haroratlarda yengil tiklanadi:




$$\text{Lg } K_p = 12480/T - 1,77$$



$$\text{Lg } K_p = 11230/T - 1,96$$


Bu reaksiyalarning muvozanat konstantalari past haroratlarda ham ancha yuqori, muvozanatdagi reaksiya gazlarida CO_2 ning miqdori koloshnikov gazlaridagiga qaraganda ancha yuqori. Shuning uchun marganetsning yuqori oksidlari $400-500^\circ\text{C}$ tiklanib bo'ladi.



$$\text{Lg } K_p = 525/T + 0,64$$

Bu reaksiya $600-1000^\circ\text{C}$ intervallarida sodir bo'ladi.

Metallashtirish jarayonida MnO ni uglerod oksidi bilan amaliyotda tiklashning iloji yo'q:



$$\text{Lg } K_p = -5350/T - 0,75$$

1200°C da $K_r = 10-5$. Reaksiya borishi uchun gaz fazasida SO_2 ning miqdori $0,01\%$ dan kam bo'lishi kerak, buning esa iloji yo'q. Gaz fazasidagi SO_2 tarkibi reaksiyaning davom etishi uchun $0,01$ dan kamni talab qiladi, bunga erishib bo'lmaydi. O'zgina miqdorda ham uglerod 4 oksidi mavjudligida ham reaksiya orqaga borishi mumkin.

Shu kabi marganets, marganets oksididan faqatgina quydagicha to'g'ridan to'g'ri tiklanadi:




$$\text{Lg } K_r = -14260/T + 8,36 \text{ (do } 1500\text{K)}$$

Marganetsning yuqori oksidlari ham qattiq uglerod bilan oson tiklanadi.

1100°C dan yuqori haroratda marganets karbida Mn_3C , xosil bo'ladi.

Silikatlardan marganetsning tiklanishi quyidagi reaksiyalar orqali boradi:




Reaksiyalardan ko'rinib turibdiki, silikatlardan marganets qattiq uglerod bilan tiklanganda, marganets karbida yoki metallik marganets xosil bo'lishi mumkin.

Ergan temirda marganets uglerodning aktivligini kamaytirib uning eruvchanligini oshiradi.



Kremniy oksidlarining tiklanishi. Kremniy shixta bilan birgalikda SiO_2 ko'rinishda keladi.



SiO_2 -qiyin eruvchi oksid bo'lib, yuqori dissotsialanish issiqligiga egaligi uchun kremniy yuqori haroratlarda tiklanadi va katta miqdorda issiqlik sarflanadi. Kremniy oksidini vodorod va uglerod oksidi tiklay olmaydi, faqatgina qattiq uglerod bilan tiklash mumkin.





Kremniy temir silitsidlarini xosil qilishi mumkin



Kremniyning tiklanishiga pechdagi bosimi katta ta'sir qiladi. Bosim qancha katta bo'lsa, tiklanish shuncha va kech boshlanadi.

Fosfor oksidlarining tiklanishi. Fosfor metallashtirish jarayoniga uning tuzlari ko'rinishida keladi, fosforli tuzlarning asosiylari quydagilar vivianit $Fe_3(PO_4)_3 \cdot 8H_2O$ va apatit $Sa_3(PO_4)_2 \cdot CaF_2$.

Fosforning tiklanishi past haroratlarda boshlanadi. Birgina ahamiyatli jihati 900-1000°C da va yuqori haroratlarda (vodorod bilan) va 1000-1200oC (uglerod oksidi) bilan tiklanadi



Tenglamalardan ko'rinishicha bir vaqtning o'zida temir va fosfor tiklanadi, temir fosforitini xosil qiladi. Fosfor yoki uning fosforitlari temirda aktiv eriydi va butunlay metall tarkibiga o'tadi.

Boshqa elementlarning tiklanishi. Vanadiyning beshta oksidi mavjud: V_2O_5 , V_2O_4 , V_2O_3 , VO , V_2O .

Vanadiyning yuqori oksidlari past haroratlarda gazlar bilan yengil tiklanadi, qattiq uglerod bilan esa faqat yuqori haroratlarda tiklanadi. (1200°C va yuqori).


Xrom analogik ravishda Mn va V kabi tiklanadi. Cr ni metallga o'tkazish uchun qattiq tiklovchining yuqori sarfi va yuqori harorat talab etiladi.

Eritmalar mavjudligida oksidlar tiklanishining asoslari.

Eritmalardagi oksidlarning tiklanishi.

Temirda erigan FeO oksidining tiklanishi misolida ko'rib chiqamiz.

To'g'ridan to'g'ri bo'lmagan tiklanish quydagicha sodir bo'ladi:



Sistema uch komponentli. Agar eritma to'yinmagan bo'lsa fazalar soni 2 ta (eritma va gaz) erkinlik darajasi esa 3 ga teng bo'ladi. To'yingan eritmalarga eritma bilan muvozanatda turgan oksid faza qo'shiladi va sistema ikki valentli bo'ladi. O'zgarish hajm o'zgarishsiz sodir bo'lganli sababli bosim muvozanatga ta'sir qilmaydi. Binobarin to'yinmagan eritmalarda gazning tarkibi FeO konsentratsiyasi va harorat orqali amalga oshadi, to'yingan eritmalarda esa faqat harorat orqali:



$$K' = a_{\text{Fe}} \text{P}' \text{CO}_2 / a_{\text{FeO}} \text{P}' \text{CO} = a_{\text{Fe}} \text{CO}'_2 / a_{\text{FeO}} \text{CO}',$$

Bu erda a_{Fe} va a_{FeO} temir va uning oksidining aktivligi; CO_2' va CO' – eritma tiklanganda SO_2 va SO larning muvozanat konsentrat-siyalari. Agar $a_{\text{Fe}} = 1$, $a_{\text{FeO}} = \gamma_{\text{FeO}} N_{\text{FeO}}$, bu erda γ_{FeO} vyustitning aktivlik koeffitsienti; N_{FeO} eritmada vyustitning mollardagi ulushi, $K' = \text{CO}_2' / \text{CO}'$,

$SO_2'/CO' = (CO_2/CO) \gamma_{FeO} N_{FeO}$ ni xosil qilamiz.

FeO ning kontsentratsiyasi kamayishi bilan CO_2/CO nisbatligi kamayadi ya'ni oksidning miqdori qancha kam bo'lsa, tiklash shuncha qiyin bo'ladi.


To'g'ridan to'g'ri tiklanish quydagicha sodir bo'ladi



Sistema to'yinmagan eritmalarda ikkivalentli, doimiy bosimda esa bir erkinlik darajasini oladi. Oksidning kontsentratsiyasi kamayishi bilan uni tiklash qiyinlashadi.

Tiklanish maxsulotlarining eritmaga o'tishi.

MnOning tiklanishini ko'rib chiqamiz, bunda reaksiya maxsuloti (Mn) temirda eriydi:



Komponentlar soni 4 ga teng. Mn oksidi kam eriydi va amaliyotda mustaqil faza xosil qiladi. Temirning marganetsga to'yinmagan eritmasida sistema uch fazali (Mn eritmasi, MnO va gaz) bosimning ta'sirini inobatga olmay, quydagini xosil qilamiz.

$$K' = a_{Mn} CO_2' / a_{MnO} CO'$$

$$a_{MnO} = 1 \text{ i } a_{Mn} = \gamma_{Mn} N_{Mn} \text{ da}$$

$$SO_2'/CO' = CO_2/CO * 1/\gamma_{Mn} N_{Mn} \text{ ni olamiz.}$$

Bu yerdan ma'lumki, temirning erituvchisi mavjudligida qachonki $N_{Mn} < 1$ bo'lganda gazning muvozanat tarkibi toza metall olishdagiga qaraganda uglerod oksidiga kambag'al bo'ladi. Maxsulotning eritmaga o'tishida tiklanish yengillashadi, shuning uchun uning disosatsiyasi ortadi.

2.10. Qotishmadagi komponentlarning aktivligi bo'yicha hisoblar

Misol 2.10.1. Fe-Cu eritmasida 1823 K da misning aktivligi toza misning standart holatiga nisbatan quyidagicha:

x_{ii}	0,020	0,015	0,010	0,005	0,002
a_{Cu}^R	0,1845	0,1416	0,0966	0,0494	0,0200

Fe-Su eritmasida 1% li standart eritmaga nisbatan misning aktivligini va aktivlik koeffitsiyenti f_{Su} ni aniqlang. Ifoda $\gamma_{Su} = 10,1$.

Yechish. 1%li standart eritmaga nisbatan misning aktivligini aniqlaymiz. Modomiki, eritmada misning konsentratsiyasi yuqori emas, unda aktivlikni hisoblash uchun soddalashtirilgan ifodadan foydalanamiz:

$$a_{Cu(1\%)} = a_{Cu}^R \frac{100 M_{Cu}}{\gamma_{Cu}^0 \cdot M_{Fe}} = a_{Cu}^R \cdot \frac{100 \cdot 63,54}{10,1 \cdot 55,85} = 11,26 a_{Cu}^R.$$

Eritmada misning foiz ulushi:

$$[\%Cu] = x_{Cu} \cdot 100 \frac{M_{Cu}}{M_{Fe}} = x_{Cu} \frac{100 \cdot 63,54}{55,85} = 113,8 x_{Cu}.$$

Fe-Su eritmasida 1 % li eritmaga nisbatan misning aktivlik koeffitsiyenti:

$$f_{Su} = a_{Su}(1\%) [\%Su].$$

Mol ulushdagi eritma uchun $x_{Si} = 0,02$: $a_{Su(1\%)} = 11,26 \cdot 0,1845 = 2,08$; $[\%Su] = 113,8 \cdot 0,020 = 2,28$; ni hosil qilamiz.

Eritmadaga misning boshqa konsentratsiyalari uchun analogik ravishda hisobotlar olib boramiz. Quyidagi jadvalda Fe-Su eritmasida 1823 K da $[\%Su]$ konsentratsiyasi, $a_{Su}(1\%)$ aktivligi va f_{Su} misning aktivlik koeffitsiyentini hisoblash natijalari keltirilgan.

2.10.2. - jadval

Misning aktivlik koeffitsiyentini hisoblash natijalari

$x_{Cu} \dots\dots\dots$	0,020	0,015	0,010	0,005	0,002
$\frac{R}{a} Cu \dots\dots\dots$	0,1845	0,1416	0,0966	0,0494	0,0200
$\gamma_{Cu} \dots\dots\dots$	9,2	9,44	9,66	9,88	10,0
$[\%Cu] \dots\dots\dots$	2,98	1,71	1,14	0,57	0,23
$a_{Cu}(1\%) \dots\dots\dots$	2,08	1,59	1,09	0,56	0,23
$f_{Cu} \dots\dots\dots$	0,91	0,93	0,96	0,98	1,00

Shunday qilib, eritmada misning konsentratsiyasi kamayishi bilan aktivlik koeffitsiyenti f_{Cu} birga yaqinlashadi, aktivlik ifodasi esa $a_{Cu}(1\%)$ misning konsentratsiyasiga yaqinlashadi. Bu vaqtda temirda erigan mis eritmaları Raul qonunidan bir qancha og'ishni ko'rishimiz mumkin, bu esa aktivlik koeffitsiyentining yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Misol 2.10.2. Fe-Al va Fe-Si binarli sistemalarda, 1600 °C da suyuq eritmalar uchun y) f_i va γ_i aktivlik koeffitsiyentlari orasidagi munosabatni aniqlash.

Yechish. Fe - Al eritmasi uchun f_{Al} aktivlik koeffitsiyenti formulaga muvofiq topiladi.

$$y) f_{Al} = \frac{\gamma_{Al}}{\gamma^o_{Al}} \cdot \frac{1}{\left\{ 1 + \frac{[\%Al](M_{Fe} - M_{Al})}{100 \cdot M_{Al}} \right\}}$$

Adabiyotlardan $\gamma^o_{Al} = 0,029$.ni topamiz.

Unda

$$f_{Al} = \frac{\gamma_{Al}}{0,029} \cdot \frac{1}{\left\{ 1 + \frac{[\%Al] \cdot (55,85 - 26,98)}{100 \cdot 26,98} \right\}} = \gamma_{Al} \frac{34,5}{1 + 0,0107[\%Al]}$$

Analogik ravishda f_{Si} va γ_{Si} lar orasidagi bog'liqlikni topamiz.

$$f_{Si} = \frac{\gamma_{Si}}{0,0013} \cdot \frac{1}{\left\{ 1 + \frac{[\%Si] \cdot (55,85 - 28,09)}{100 \cdot 28,09} \right\}} = \gamma_{Si} \frac{769}{1 + 0,0099[\%Si]}$$

Nazorat savollari:

1. Termodinamika qonunlarini bilasizmi?
2. Boshqa oksidlarining tiklanish bosqichlari qanday?
3. Reaksiyalar borishiga ta'sir qiluvchi omillar?
4. Aktivlik koeffitsiyenti deganda nimani tushunasiz?
5. 1% li standart eritmaga nisbatan misning aktivligi qanday aniqlanadi?
6. Fe-Al eritmasi uchun faol aktivlik koeffitsiyenti qaysi formulaga muvofiq topiladi?

Umumiy savollar.

1. Temirni rudadan bevosita olish yangi fan, texnika va texnologiya yutuqlarini aytib bering?
2. Domna pechi yordamisiz temir olish usullari.
3. Temirni rudadan bevosita olish jarayonlarining roli va ahamiyati haqida tushuntiring?
4. Po'lat eritish pechlarida eritish uchun metallashgan materiallar olish jarayonlarini haqida tushuncha berish?
5. Jarayonlarning an'anaviy jarayonlardan farqli jixatlarini tushunting?
6. Temirni rudadan to'g'ridan to'g'ri olish jarayonlarining umumiy qonuniyatlari tahlilini bering?
7. Jarayonlarni olib borish uchun xizmat qiluvchi asosiy agregatlar tasnifini tushuntiring?
8. Gidratlar korbonatlar deganda nimani tushinasiz?
9. Gidratlarning jarayonga ta'siri qanaqa?
10. Suvni yo'qotish deganda nimani tushunasiz?
11. Texnologiyaning mohiyatini yoriting.
12. Tiklanish jarayoni qanday yoqilg'i yordamida amalga oshadi?
13. Energiya tejamkor texnologiya deganda nimani tushunasiz?
14. Temir elementining necha xil oksidlari mavjud?
15. Erish jarayonida temir oksidlarining xossalari qanday o'zgaradi?
16. Temir oksidlari xossalari haroratning ta'siri qanday?
17. Termodinamika qonunlarini bilasizmi?
18. Temir oksidlarining tiklanish bosqichlari qanday?

19. Reaksiyalar borishiga ta'sir qiluvchi omillar?
20. Termodinamika qonunlarini bilasizmi?
21. Boshqa oksidlarining tiklanish bosqichlari qanday?
22. Reaksiyalar borishiga ta'sir qiluvchi omillar?
23. Termodinamika qonunlarini bilasizmi?
24. Tiklovchi gazning bo'lakcha kovaklari orqali ularning yuzasiga diffuziyalanishi?
25. Gazning tashqi diffuziyasi?

III-BOB. OKSIDLARNING TIKLANISH KINETIKASI

3.1. Oksidlarni tiklashdagi asosiy muammolar.

Adsorbion-avtokatalitik nazariya

Oksidlarning tiklanishi murakkab va ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi.

Umumiy xolda xar qanday tiklanish jarayonini ko'rib chiqqanda ikkita asosiy muommoni hal etish tilab qilinadi.

Oksiddan kislorodni olib tashlashga qaratilgan kimyoviy ta'sirlashish mexanizmi qanday muhitda boradi?


Jarayonning sxemasiga bog'liq ravishda, jarayonning umumiy tezligini aniqlovchi qaysi bosqich eng sekin boradi.

Umumiy xolda metall oksididan kislorodni chiqarib yuborish gaz fazasida metal-oksidi yoki past oksid-yuqori oksid chegarasida sodir bo'lishi mumkin.



A.A.Baykov birinchilardan bo'lib oksidlarning tiklanish mexanizmi sxemasini quydagicha deb taklif bildirgan:



Jarayon ikkita bosqichdan tashkil topgan: metal oksidining MeO dissosiasiyalanishi va tiklovchining oksiddagi kislorod bilan oksidlanishi. Ta'kidlash kerakki, dissotsiatsiya aynan (1) sxema orqali o'tishi kerak emas. Dissotsiatsiya atomar kislorod ajralishi bilan borishi ham mumkin:



O'ttizinchi yillarning o'rtalarida oksidlarning tiklanish mexanizmi to'g'risida adsorbionno-avtokatalitik nazariya nomi mashxur bo'lgan yangi tasavvur paydo bo'ldi.



Tiklanish reaksiyalari uchta bosqichda bo'lib o'tadi: tiklovchi gazning tiklanayotgan oksid yuzasiga adsorbsiyalanishi, oksid yuzasidagi kimyoviy reaksiya, tiklanish maxsulotining desorbsiyasi.

Shunga o'xshash, alohida jarayonlarning yig'indisidan iborat va xar qaysisi o'zining muvozanat konstantasi bilan xarakterlanadi. Umumiy xolda tiklanish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- Tiklovchi gazning temir ruda material bo'laklari yuzasiga urilishi (tashqi diffuziya);

- Tiklovchi gazning bo'lakcha kovaklari orqali ularning yuzasiga diffuziylanishi;

- Tiklovchi gazning oksid yuzasiga adsorbsiylanishi;

- Tiklovchi gaz yoki ionlarning qattiq fazaga diffuziylanishi;

- Oksid molekulasidan kislorodni olish xususiy kimyoviy reaksiyasi;

- Metall fazasi kurtaklarining xosil bo'lishi (зародышей);

- Tiklanish maxsulotlari desorbsiyasi;

- Tiklanish maxsulotlarining bo'lakcha kovaklaridan chiqarilishi;

Gazning tashqi diffuziyasi.

Ma'lumki, moddaning diffuziyasi sistemaning xar xil bo'laklarida, uning xar xil kontsentratsiyalariga asoslangan va yuqori kontsentratsiyadan past kontsentratsiya tomon harakatlanadi. Bunday diffuziya molekulyar yoki erkin diffuziya deyiladi va Fikning ikkita qonuniga bo'ysinadi:

$$J = -D \left(\frac{\partial c}{\partial x} \right) \quad \frac{\partial c}{\partial \tau} = \frac{\partial}{\partial x} \left(D \left(\frac{\partial c}{\partial x} \right) \right)$$

Bundan tashqari, temir tarkibli ruda materiallari bo'lakchalaridan o'tuvchi gazning xarakatlanish paytida konvektiv diffuziya sodir bo'ladi, bu esa sistemaning aloxida ulushlarida xar xil zichliklarga egaligi bilan asoslanadi. Bunday diffuziya faqatgina xarakatdagi muhitda kuzatiladi. Diffuziya tezligi oqim xarakatining xarakteriga bog'liq oqim xarakati laminar va turbulent bo'lishi mumkin. Kuzatilayotgan diffuziya tezligi quyidagi formula bilan aniqlanishi mumkin

$$J = D(C_1 - C_2/L)$$

Tashqi ko'chishni baxolashda odatda o'xshashlik mezonidan foydalaniladi. Reynolds mezoni xarakatdagi muhitning yopishqoqligi bilan inertsia kuchi orasidagi munosabatni xarakterlaydi.

$$Re = \frac{fud}{\eta},$$

Bu yerda, u -muxitning tezligi; f -muxitning zichligi; η - dinamik qovushqoqlik koeffitsienti; d -oqimning o'rtacha o'lchami.

Pekle mezoni konveksiya (udc/dx) va diffuziya (Dd^2c/dx^2) hisobiga ko'chuvchi moddaning miqdorini xarakterlaydi:

$Pe=ud/D$, gde D - gazning diffuziya koeffitsiyenti

Pe ning katta qiymatlarida molekulyar diffuziya konvektiv diffuziyadan kamroq bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, real sharoitlarda temir tarkibli bo'lakchali materiallar qavatlarida tiklanish jarayonlarida, tashqi diffuziya, tiklanish jarayonini limitlovchi hisoblanmaydi.

Material bo'lakchalari kovaklarida gazning diffuziylanishi.

Kovaklarda gazlarning xarakatlanishi, agar kovaklarning o'lchami molekulaning erkin xarakatlanishiga imkon bersa, yuqorida keltirilgan qonuniyatga o'z kuchini saqlab qoladi. Kichkinaroq kovaklarda molekulalarning kovak devorlariga urilib xarakatlanishi katta kovaklarga qaraganda ancha ko'p. Gazning bunday xarakatlanishi molekulyar deb ataladi. Molekulyar diffuziya koeffitsienti quyidagicha ifodalanadi.

$$D_k = 8/3d(RT/2\pi M)^{1/2}$$

Bu yerda, d -kovakning «foydali» o'lchami (r – kovakning aylanasi), diffuziya oqimi esa (1 sekundda $1m^2$ yuzadan o'tuvchi moddaning mollari miqdori) quyidagicha ifodalanadi.

$$J_k = 8/3d \Delta P/L(2\pi MRT)^{-1/2}$$

Bu yerda ΔR –diffuziya yo'li boshi va oxiridagi gaz bosimlarining farqi; L -kovak uzunligi.

Molekulyar diffuziya koeffitsienti bosimga bog'liq emas, bu vaqtda diffuziya oqimi kattaligi sifatida bosimga bog'liq bo'ladi.

Aktivlanish energiyasi E kovaklar o'lchamiga bog'liq. Molekulyar diffuziya oqimida $E=0$ bo'ladi. Judayam mayda kovaklar uchun

$$D_1 = D_0 \exp(-E/RT)$$

Shuning uchun diffuziyaning bunday turi aktivlangan deyiladi. Bunday xolda diffuziya oqimi Fik qonuniga binoan quyidagi tenglama orqali aniqlanadi.

$$J = D_a \Delta C/L,$$

Bu yerda D_a - aktivlashgan diffuziya koeffitsienti; ΔS -qattiq material ichida diffuziya yo'li L bo'yicha gaz konsentratsiyasining o'zgarishi.

3.2. Fe-S sistemasida eksperimental ma'lumotlar bo'yicha hisobotlar

Misol: 1560°C da Fe-C qotishmasining muvozanati haqidagi eksperimental ma'lumotlar asosida SO-SO₂ gazlar aralashmasi bilan standart holatdagi grafitga nisbatan uglerodning aktivligi aniqlangan. Bunda $a^R_C = 1$. Uchta tajriba bo'yicha o'rtaqchalatish yo'li bilan olingan uglerodning uchta konsentratsiyasi uchun aktivlik ifodalari quyida keltirilgan:

$$\begin{array}{lll} x_s & . & . & . & 0,0090 & 0,0272 & 0,0543 \\ a^R_C & . & . & . & 0,0060 & 0,0191 & 0,0596 \end{array}$$

0,1 dan 1,0% gacha konsentratsiyali uglerod uchun 1 % li standart holdagi eritmaga nisbatan aktivlik koeffitsiyentini aniqlash.

Yechim. Uglerodning uch xil konsentratsiyasi uchun γ_s aktivlik koeffitsiyentini aniqlaymiz:

$$x_s = 0,0090; \quad \gamma_s = \frac{a^R_C}{x_C} = \frac{0,0060}{0,0090} = 0,667;$$

$$x_s = 0,0272; \quad \gamma_s = \frac{a^R_C}{x_C} = \frac{0,0197}{0,0272} = 0,724;$$

$$x_s = 0,0543; \quad \gamma_s = \frac{a^R_C}{x_C} = \frac{0,0596}{0,0543} = 1,098;$$

Olingan γ_s ifodalarni $\gamma_s - x_s$ bog'liqlik grafigiga kiritamiz. Uglerodning mol konsentratsiyasiga ($x_C \rightarrow 0$), γ_s ifodani γ_s^0 qiymatidan foydalanib, $\gamma_s^0 = 0,665$.

f_s aktivlik konsentratsiyalariga mos ravishda uglerodning konsentratsiyalari quyidagicha bo'ladi:

$$x_s = 0,0090; \quad [\%S] = 100 \cdot 0,0090 \cdot \frac{12}{55,85} = 0,19;$$

$$f_s = \frac{0,667}{0,665} \cdot \frac{1}{\left\{ 1 + \frac{[\%C] \cdot (55,85 - 12)}{100 - 12} \right\}} = 1,01$$

Uglerodning boshqa konsentratsiyalari uchun ham analogik ravishda hisoblar olib boramiz.

$$X_C = 0,0272; \quad [\%C] = 0,58; \quad f_C = 1,02;$$

$$X_C = 0,0543; \quad [\%C] = 1,17; \quad f_C = 1,72.$$


Shunday qilib, qotishmada uglerodning konsentratsiyalari 0,6% gacha bo'lganda, bunday eritmalar Genri qonuniga yaxshi mos kelishini va Raul qonunidan sezilarli darajada og'ishini ko'rishimiz mumkin. Uglerodning yuqori konsentratsiyalarida Genri qonunidan musbat og'ishni kuzatishimiz mumkin. Aytish kerakki, standart holdagi toza grafitni tanlayotganda Fe-C qotishmasida uglerodning yuqori va past konsentratsiyalarida Raul qonunidan turli xilda og'ishi kuzatiladi. Uglerodning suyuq temirda erishi chegaralangan. Uglerodning temirda erishi harorat bilan bog'liq.

$$[^\circ\text{O/S}]_{\text{nas}} = 1,34 + 2,54 \cdot 10^{-3} \cdot (T - 273).$$

1833 K- $[\%S]_{\text{nas}} = 5,30 \%$ yoki $x_S = 0,207$ haroratlar uchun uglerodning to'yingan temir eritmasida aktivlik koeffitsiyenti:

$$a_S = \frac{1,0}{0,207} = 4,83.$$

Shunday qilib, Fe-S sistemalarida uglerodning konsentratsiyasi 1,1 % dan yuqori bo'lgan hududlarda Raul qonunidan musbat tomonga og'ish kuzatiladi.



3.1.1. – rasm. 1560°C da Fe-C qotishmasida aktivlik koeffitsiyenti γ_S ning uglerodning mol miqdoriga bog'liqligi

Nazorat savollari.

1. Termodinamika qonunlarini bilasizmi?
2. Tiklovchi gazning bo'lakcha kovaklari orqali ularning yuzasiga diffuziylanishi?
3. Gazning tashqi diffuziyasi?
4. Fe-C qotishmasida grafitga nisbatan uglerodning aktivligi qanday aniqlangan?
5. Qotishmada C ning konsentratsiyalari qaysi qonunda sezilarli darajada og'ishini ko'rish mumkin?

3.3. Oksidlarning tiklanish kinetikasi. adsorbsiya qattiq fazadagi jarayonlar. Fazalar chegarasida reaksiya

Adsorbsiya

Qattiq materialning gaz bilan reaksiyaga kirishishi uchun ular orasida kontakt bo'lishi kerak. Lekin oksid bilan faqat molekulalar ta'sirlashishi mumkin, buning uchun molekula qattiq material yuzasiga urilib, bir qancha vaqt o'tgandan keyin material yuzasiga singib bog' xosil bo'lishi kerak. Harorat yuqori bo'lgan xududlarda oksid yuzasida molekulalar kimyoviy kuchlar ta'siri tufayli tiklanish shiddat bilan boradi. Kimyoviy adsorbsiyalangan molekulalarda ichki molekulyar bog'lar susaygan bo'lishi yoki mutloqo yo'qolib ketishi mumkin. Qayta hosil bo'layotgan adsorbsion molekulalar bilan qattiq material yuzasidagi element atomlari orasidagi bog' ancha mustaxkam bo'lib, keyingi adsorbsiylanishda atomlar qattiq materialdan gazga o'tadi. Shuning uchun oksid bilan gaz orasidagi reaksiyaning maksimal tezligi bir vaqtning o'zida oksid yuzasiga urilgan gaz molekulalari miqdori bilan chegaralanadi.

Oksid molekulasiga urilgan gaz molekulalarining urilishlar sonini quyidagi ifodadan aniqlash mumkin.

$$Z_i = P_i N_L / \sqrt{2} \pi R T M_i$$

Bu yerda R_i -tiklovchi gazning partsial bosimi; M_i -tiklovchi gazning molekulyar massasi; N_L -loshmid soni, mol^{-1} .

Masalan, vodorod uchun 1000°C da va 98KPa da urilishlar soni $Z_i = 5 \cdot 10^{23}$ urilish/ $(\text{cm}^2 \cdot \text{s})$.


Gaz bilan qattiq material orasidagi ta'sirlashish kuchining o'lchami va turiga qarab 2 guruhga bo'linadi: fizik adsorbsiya va xemosorbtsiya. Fizik adsorbsiyaning samaradorligini gaz zarrachalari bilan o'zaro ta'sirlashish kuchi belgilaydi. Xemosorbtsiyada o'zaro ta'sirlashish kimyoviy bog'larda namoyon bo'ladi. Bu vaqtda fizik adsorbsiyada adsorbsiyaning issiqligi 10kJ/mol dan oshmaydi, xemosorbtsiyada adsorbsiya issiqligi kattaligi 800-900 kJ/mol bo'ladi.

Fizik adsorbsiya rudalarni tiklanish jarayonini limitlovchi bosqich hisoblanmaydi.

Qattiq fazadagi jarayonlar.

Tiklanishning boshqa geterogen jarayonlaridan farqli ravishda, jarayon boshlanishida reaksiya maxsulotlari qavatlarini hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Jarayonning keyingi bosqichlarining borishi ana shu qavat xarakteristikasiga chambarchas bog'liq: kovak qavatlar hosil bo'lganda tiklovchi gaz, bo'lakchalar ichiga diffuziylanadi. Mustaxkam qavat hosil bo'lganda, jarayon qattiq fazadagi reaksiya va diffuziyasiz sodir bo'lmaydi.


Gematitning tiklanish jarayoni borishida Fe-FeO, FeO-Fe₃O₄, Fe₃O₄-Fe₂O₃ lar bir biri bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Vyustitning tashqi qavatini tiklovchi gaz bilan o'zaro ta'sirlashadi masalan,



Jarayon oxirigacha davom etishi uchun tiklanishning qattiq maxsulotlarida diffuziya sodir bo'lishi kerak.


Tiklanishning umumiy tezligiga eng past okidning diffuziyasi ta'sir qiladi. Ichki qavatlardagi diffuziya tiklanish tezligiga ta'sir qilmaydi.

Diffuziya bilan birgalikda tiklanmagan maxsulotlarda qattiq fazali reaksiyalar sodir bo'ladi.



Tiklanish jarayoning qattiq fazadagi reaksiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qattiq oksid hajmining 10 % i tiklovchi gazni o'zidan o'tqazishi mumkinligi hisoblashlar yo'li bilan topilgan. Shuning uchun tasdiqlash joizki, tiklanishning xohlagan sharoitlarida, uni limitlovchisi qattiq fazadagi reaksiyalar hisoblanadi.

Misol tarzida Z.I.Nekrasov va V.F.Morozlarning oxirgi tadqiqotlarini yodga olishimiz mumki. 12-rasmda vyustitning xar xil nestexiometrik darajasi bilan tiklanishlari grafigi keltirilgan. Grafik tiklanish darajasining va vyustit kristal panjarasidagi bo'sh joy ulushining qattiq fazadagi diffuziyaga bog'liqligini xarakterlaydi.



3.2.1.-rasm.Vyustit nestexiometrikligining uning tiklanishiga ta'siri. (800°Cda, vodorod bilan).

Fazalar chegarasida reaksiya

Tiklanish jarayoni sodir bo'lishi uchun oksid bilan tiklovchi o'zaro kontaktda bo'lishi kerak. Oksid bilan reaksiya sodir bo'lishi uchun hetarlicha vaqt davomida qattiq material yuzasida bo'lgan tiklovchi gaz molekulari reaksiyaga kirishishi mumkin. Shuning uchun tiklanishning maksimal tezligi qattiq materialga urilgan tiklovchi gaz molekulari miqdori bilan chegaralanadi. Adsorbsiyalangan molekularlar temir oksidlari bilan reaksiyaga kirishadi.

Mak-Kevin ifodasini, tiklanish darajasi $R=1-r_1^3/r_0^3$ ni hisobga olgan xolda quyidagicha yozish mumkin:

$$D_0 r_0 [1 - (1 - R)^{1/3}] = k \tau,$$

Bu erda R_1 -tiklanmagan qismning radiusi; r_0 -Oksid sharining dastlabki radiusi; d_0 -bo'lakchadagi kislorodning dastlabki miqdori; k -proportsionallik koeffitsienti.

Mak-Kevin tajribalari kovak bo'lmagan zich rudalar bilan bajarilgan. Birgina jarayonni kimyoviy reaksiya limitlashi mumkin, agar ruda bo'lakchalar yetarli darajada kovaklikka ega bo'lsa.

Metall kurtaklari xosil bo'lishi.

Oksiddan kislorodni olib tashlashda, metall yuzasida Me-O munosabatining o'zgarishi sodir bo'ladi. Birinchi erkin metall aloxida kurtak xolida ajralib chiqadi. Kurtaklarning soni va tarqalishi oksid yuzasi strukturasiga bog'liq. Kurtaklarning o'sishi uchun metallning kisloroddan ajralgan joydan kurtakgacha transportirovkasi bo'lishi kerak. U metall ionlarining oksid yuzasi bo'ylab diffuziyanishi yo'li bilan amalga oshadi. Kislorodning ajralish va metallning diffuziyanish tezligi quydagicha aniqlanadi; birinchi kurtaklar xosil bo'layotgan hududlarda kurtakning metall bilan to'yinishi kuzatiladimi yoki yo'qligi; kurtaklarning zichligi ortishi bilan, kurtaklarning turi formasi va ularning rivojlanishi kurtaklarning zich qavatlar-ga yoki gubkaga aylanishi bilan aniqlanadi.

Metallgacha tiklanishda kovak gubkalar xosil bo'lishi kuzatiladi.

Umuman olganda kurtaklar xosil bo'lishi, xosil bo'layotgan qavatlar strukturasini o'zgartirib, tiklanish jarayoni kinetikasiga ta'sir qiladi.

Tiklanish jarayoni va uning limitlovchi bosqichi.

Tiklanish jarayonining alohida bosqichlarini ko'rib chiqib, quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin: jarayon tezligini limitlovchi bosqichlar uchga bo'linadi, kovaklarga gazning diffuziyanishi, fazalar chegarasidagi kimyoviy reaksiya va qattiq fazadagi jarayonlar.

Temir tarkibli materiallar ichki yuzasining tiklanish jarayonida qatnashish darajasi bo'lakchalarda gazning diffuziyanish tezligi va uning kovak yuzasiga reaksiyasi munosabatlariga bog'lik. Agar diffuziyanish tezligi tiklovchining qattiq oksid bilan xususiy reaksiyasi tezligidan ortib ketsa, unda SO va N₂ larning kovaklardagi kontsentratsiyasi bo'lakcha yuzasidagi kontsentratsiyadan farq qilmaydi va jarayonda xamma yuza qatnashadi. Bunday rejim kinetik rejim deb nomlanadi. Gazning qarama-qarshi munosabatda

kovaklardagi diffuziyasi bilan kimyoviy reaksiyasiga ichki diffuzion rejim deyiladi.

Ya.B.Zeldovich va E.Tilelarning ko'rsatishicha, ichki yuzadan foydalanilish darajasi φ , μ ga bog'liq.

$$M = \sqrt{2} RT/D_r 273, (1)$$

Bu yerda k - kovak yuzasidagi jarayon tezlik konstantasi; D - bo'lakcha kovaklariga gazning diffuziyalanish koeffitsienti; r -kovak radius; T -harorat, K .

R – radiusli shar uchun φ

$$\Phi = 3/\mu R [\text{cth}(\mu R) - 1/\mu R] \text{ ga teng.}$$


Qalinligi $2L$ bo'lgan plastina uchun

$$\Phi = \text{th}(\mu L)/\mu L$$

K.K.Shkodin va M.R.Kakavandi boshqa bog'liqlikni taklif qilishgan.

$$\Phi = 16/\pi \mu R \int_0^1 x^2 + \text{th}(\mu R) \sqrt{1-x^2} dx,$$

Bu yerda x -koordinata kovak o'rtasidan shar markazigacha bo'lgan masofa. Hisob natijalari 1.11.-rasmida keltirilgan.



3.2.2. - rasm. Ichki yuzadan foydalanilish

3.2.3. darajasi hisobi natijalari:

1-Tile formulasi bo'yicha; 2-Shkodina-Kakavandi formulasi bo'yicha.

μR ning kamayishi bilan φ parametr 1 ga intiladi. Agar $\mu R < 0.2$, bo'lsa, unda $\varphi > 0.993$.

Agar $\varphi = 1 (\mu R < 0.2)$, unda tiklanishning kinetik rejimiga ega bo'lamiz.

$\mu R > 15$ bo'lganda, ichki diffuzion rejim amalga oshadi. $0,2 < \mu R < 15$ bo'lganda o'tish rejimi kuzatiladi. Bu ko'rsatgichning asosiy kamchiligi shundaki, materiallarda kovaklar har xil o'lchamga ega bo'ladi (1) formula esa faqatgina kovakning o'rtacha o'lchamni hisobga oladi. Shuning uchun S.T.Dostovuev ko'rsatgichi

$$S = \sqrt{\kappa \alpha / D \beta} * R,$$

bu erda k-kimyoviy reaksiyaning tezlik konstantasi; D-kovalardan o'tuvchi gazning tezlik konstantasi; α -kovakning solishtirma yuzasi; β -kovakning solishtirma hajmi.

S ko'rsatgich ham kamchiliklarga ega. (S i μR) larning ikkovi ham qattiq fazadagi jarayonlarda qaysi bosqich limitlovchi ekanligini xarakterlab berolmaydi. Shunday qilib, bu ko'rsatgichlar faqat tiklanishning boshlang'ich bosqichlarini xarakterlashi mumkin.

Nazorat savollari.

1. Adsorbsiya nima?
2. Qattiq fazadagi jarayonlarga misollar keltiring.
3. Fazalar chegarasida qanday reaksiyalar oqib o'tadi?
4. Metall kurtaklari nima hisobiga xosil bo'ladi?

3.4. Tiklanish jarayoni tezligiga turli omillarning ta'siri

Haroratning ta'siri.

Diffuziya tezligi harorat bilan diffuziyanish tezligiga bog'liq: yirik kovaklarda va gaz fazasida gazlarning erkin xaraktatlanish tezligi $T^{0,5-1,0}$ ga proporsional tarzda o'zgaradi, kichik kovaklarda esa xattoki $T^{0,5}$ ga proporsional ravishda sekinlashadi. Gazning yoki komponentlarning qattiq fazada diffuziya tezligi bir-biriga bog'liq ravishda o'zgaradi, buning natijasida reaksiya yuzada jarayon keskin tezlashadi, bir vaqtning o'zida tiklovchi gaz ta'sir qiluvchi kovak yuzasi qisqaradi. Shuning uchun diffuziya tezligiga haroratning ta'siri yirik kovakli materiallar uchun keskin bo'lishi kerak.

Bosimning ta'siri.

Tiklanish jarayoniga bosimning ta'siri, tiklovchi turi va tiklanish sharoitiga bog'liq. Agar tiklovchi sifatida H_2 yoki CO dan foydala-

nilsa, unda qaysi bosqich limitlovchiligiga bog'liq bo'ladi. Tashqi diffuziya jarayoni bosimga bog'liq emas.

Kimyoviy reaksiya tezligi v va tiklovchi gazning partzial bosimi orasidagi bog'liqlik quyidagi tenglama orqali ifodalanadi.


$$v = kp/(1+kp) \text{ yoki } v \sim kr^n,$$

bu yerda k , n -konstantalar, $n < 1$.

Shu kabi kinetik mintaqada gaz bilan tiklanish tezligi bosim oshishi bilan oshishi kerak. Bosimning o'zgarishi ichki diffuziya tezligiga sezilarli ta'sir qiladi. Shuning uchun bosimning oshishi gazning kovaklardagi diffuziyalanishini tezlashtiradi. Qachonki tiklanayotgan material kovaklari o'lchami kichik bo'lsa tiklanish tezligi ortadi.

Qattiq tiklovchilar bilan tiklanishda bosim ancha murakkab ta'sir qiladi. Bosim oshirilganda birinchi navbatda $\text{CO}_2 + \text{C} = 2\text{CO}$ muvozanati chapga siljiydi. Bunda bosimning oshirilishi reaksiyaning borishini tezlashtiradi. Tajriba ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, bosim oshishi bilan uglerodning gazifikatsiyalanish jarayoni tezlashadi. Faqatgina navbatdagi xar bir bosimning oshirilishi kam samara ko'rsatadi.

Ruda ke'mirli okatishlarni kuydirish jarayonida bosim oshishi bilan tiklanish jarayoni tezlashgan va tiklovchi sarfi sezilarli kamaygan.




3.3.1.-rasm. SO_2 ning uglerod bilan (900°C) o'zaro ta'sirlashuv tezligiga bosimning ta'siri:

1- koks; 2- koks; 3- koks.

3.3.2.-rasm. Tiklovchi gaz sarfining ta'siri.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tiklovchi gaz sarfining aniqlangan ma'lum chegarasigacha oshirilishi tiklanish jarayonini anchagina tezlashtiradi. Yana uning sarfining oshirilib borishi, jaryonga kam ta'sir qiladi va kritik chegaraga yetgandan so'ng u amaliyotda tiklanish jarayoniga ta'sir ko'rsatmay qoladi. (15 rasm).



3.3.3. - rasm. 700°C haroratda magnetitning vodorod bilan tiklanish ko'rsatgichiga tiklovchi gaz tezligining ta'siri. Egri chiziqlardagi sonlar-vaqt minutlarda.

Umumiy xolatda tiklanish jarayoni tezligi qattiq materialning samarali reaksiyon yuzasi va reaksiyaga kirishuvchi gaz konsentrat-siyasiga bog'liq:

$$v = g S_{ef} k (CO - CO') = g S_{ef} k (CO_2' - CO_2),$$


bu yerda v -tiklanish tezligi, $sm^3 SO_2/s$; g -qattiq modda massasi, g ; k -jarayonning tezlik konstantasi, sm/s ; S_{ef} - jarayonda qatnashuvchi xududning ichki yuzasi yig'indisi, sm^2/g ; SO , SO_2 va SO' , CO_2' - gazli aralashmalardagi komponentlar miqdori.

Tiklovchi gaz tarkibining ta'siri.

Tiklovchi gaz tarkibi uning sarfining va tezligining o'zgarishisiz ta'sir qiladi.

Ko'plab tadqiqotlar vodorod va uglerod oksidi bilan tiklash natijalarini solishtirishga bag'ishlangan. Vodorod temir oksidini past va yuqori xarotalarda tiklashda, uglerod oksidiga qaraganda ancha energetik tiklovchi hisoblanadi. Buning muhimligi shundaki, bunda pechga gaz xoldagi va suyuq uglerodlar puflanadi, bu esa domna pechi gazida vodorod ulushining oshib ketishiga olib keladi. 16-rasmda 1.5 mm li magnitli temir va rudaning turli harotalarda 10 min davomida tiklanish natijalari keltirilgan. Bu va boshqa dalillar gazli aralashmaga vodorod qo'shilganda tiklanish jarayoni tezlashishini tasdiqlaydi.

Tiklovchi gaz tarkibining o'zgarishi, boshqa sharoitlar kabi turli tuzilishli materiallar tiklanish tezligiga har xil ta'sir qiladi. Tiklovchi aralashma tarkibida kislorod miqdori oshganda materiallar tiklanishi tezlashadi.



3.3.4.- rasm. Rudalarning vodorod bilan va uglerod oksidi bilan tiklanishi:
a – magnetitli temir oksidi; b – ruda

Temir birikmalari va temir oksidlari xossalari va tuzilishining ta'siri.

Tiklanish tezligiga temir oksidlari asosida qattiq eritma xosil bo'lishi ta'sir qiladi. Tajribalarning ko'rsatishicha 1-10% CaO ning vyustitga qo'shilishi uning tiklanuvchanligini oshiradi. Tiklanishning oxirgi maxsuloti bo'lib, CaO va metallik temir hisoblanadi. MnO ning qo'shilishi ham temir oksidining tiklanuvchanligini oshiradi.


Zarracha qavatlarida tiklanish jarayonining asoslari.

Birgina zarrachaning tiklanishidan zarrachalar qavatlarining tiklanishiga o'tishida sharoit o'zgaradi. Ko'pgina xollarda tiklanish qavatlar ustidan yoki pastidan berilayotgan gazlarning filtrlanishi yo'li bilan boradi. Bunda uchta rejim bo'lishi mumkin. 1. Gaz tezligi past bo'lganda jarayon reaksiyasi gazning kirish zonalarida sodir bo'ladi. 2. Tiklovchi gaz miqdori yuqori bo'lganda tiklanish jarayoni qavatlar hajmida sodir bo'ladi. 3. Uchinchi holatda, tiklamagan qavat qismlariga kirayotgan gaz miqdori bitta qavatda reaksiyaga kirishayotgan gaz miqdoridan ortib ketadi. Shuning uchun tiklanish "reaksion zona" deb nomlanuvch qavatning bir qancha qismlarida sodir bo'ladi. Reaksion zonalarining o'lchamlari berilayotgan gaz miqdori bilan, elementar hajmlarda tiklanish tezligi bilan va b.lar bilan aniqlanadi.

Qavatlarda tiklanishning kinetik qonuniyatlari N.L.Goldshteyn tomonidan yoritilgan. Model sifatida 18-rasmda keltirilgan oksid bo'lakchalari qavatlari bilan to'ldirilgan silindr olingan. Pastidan tiklovchi gaz kiritiladi. Gaz bilan oksid orasida qaytar reaksiya sodir bo'ladi. Reaksiya har bir elementar qavatlarda doimiy tezlik bilan boradi. Unda

$$Da/d\tau = k(N_p - N') = k(N - N_p) = k\Delta N_1, \quad (3.1.)$$

Bu yerda $da - d\tau$ vaqt birligida ma'lum hajm xosil bo'luvchi tiklanish maxsulotlari miqdori (CO_2 yoki H_2O), dI - tiklovchi gazning elementar qavatlarida bo'lish vaqti; k - tezlik konstantasi; N_p i N - oksidlovchining faktik va muvozanat kontsentratsiyalari; N_p va N - lar ham tiklovchilar uchun. 18-rasm.



3.3.5.-rasm. Qavatlarda tiklanish sxemasi (N_0 va N_k -kirishdagi tiklanish konsentratsiyasi; N'_0 i N'_k -kirish va chiqishdagi maxsulot konsentratsiyalari).

(3.1.) formulani o'zgartirish yo'li bilan quyidagicha ko'rinishga ega bo'lamiz.

$$dN'/dx = k/\omega (N' - N_p) = k/\omega (N - N_p) = k/\omega \Delta N \quad (3.2.)$$

k va ω kattaliklari birinchi qatordagi reaksiyalar uchun bir xil o'lchamga ega bo'ladi (vremya^{-1}). Shuning uchun bunday xollar uchun

$k/\omega = U$ ga teng bo'ladi.

U - qavatda tiklanishning o'lchamsiz mezonini belgilaydi, bu kattalik jarayon turini belgilaydi.

Nazorat savollari.

1. Tiklanish jarayonida bosim orttirilsa jarayon tezligi qanday o'zgaradi?
2. Haroratning ta'sirini aytib bering?
3. Tiklovchi gaz bosimi va konsentratsiyasi orttirilsa nima bo'ladi?

3.5. Granulalangan cho'yan olish texnologiyasi.

Bu texnologiya bo'yicha flyus-ruda-ko'mirli okatish tagi aylanuvchi pechlarda qizdiriladi va 1450 gradusda eriydi, tiklanadi natijada cho'yan granulasi va shlak bir biridan ajraladi. Shlak oxirgi bosqichda sovutilgandan so'ng cho'yandan ajraladi va pechdan chiqishda granulalangan cho'yan (naggets) xosil bo'ladi. Cho'yaning metallashish darajasi 100%, tarkibida uglerodning miqdori 1.5-4.5 % gacha yetkaziladi. ITmk-3 texnologiyasining asosiy xarakterli jixati shundaki, bunda hamma jarayonlar alohida nam okatishning o'zida sodir bo'ladi. Okatishning tarkibi shunday tanlanadiki, hamma jarayonlar belgilangan vaqt oralig'ida (8-12 minutda) tugab, kerakli tarkibga ega bo'lgan mahsulot olinishi kerak. Pechning ichki atmosferasi nam okatishni keraklicha qizdirib, okatishning atrofida tiklash muhitini ushlab turishni ta'minlab beradi.

Sochiluvchan materiallarni to'g'ridan to'g'ri tiklash jarayonida materiallarni bir muncha noaniq tarkib bilan ishlab chiqarishadi. Modomiki, ITmk3 jarayonlarida issiqlik va massa almashuvi alohida xar bir okatishning o'zida sodir bo'ladi, shuning bilan bu jarayon xomashyo materiallarining xususiyatlarining o'zgarishiga egiluvchan (gibkiy) bo'ladi. Tarkibida 5% zararli moddalar mavjud bo'lgan naggetslardan po'lat olishda, bu zararli moddalar metall vannasining yuzasiga qalqib chiqib ajralishi qiyin bo'lgan shlak xosil bo'ladi. Suyuq po'latda erigan oltingugrt va fosfor kabi elementlar tayyor maxsulotning fizik xususiyatlariga yomon ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun suyuq po'latni qo'shimcha desulfurizatsiyalantiradi. Ko'rishimiz mumkinki, naggetslar ishlab chiqarishda okatish xomashyosiga CaO tarkibli moddalarni qo'shib, shlakning asosligi orttirilganda naggetslar tarkibida oltingugurtning foizini kamaytirish mumkin. Naggetslar tarkibida 0.08 % va undan kam miqdorda oltingugurt bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar cho'yan bo'lakchalarining o'lchami 3 mm dan kam bo'lsa, ularni pechdan chiqarishda muommolar yuzaga keladi bundan tashqari, shlak komponentlari bunday bo'lakchalar bilan aralashib ketadi. Okatishlar o'lchamining yuqori chegaralari texnologik talablar orqali belgilanadi. O'lchami 25 mm gacha bo'lgan naggetslarni olish uchun xomashyo sifatida juda katta o'lchamli okatishlardan

foydalanish talab etiladi. Bunday katta o'lchamdagi okatishlardan foydalanishda erish, qattiq tiklanish, uglerodlanish jarayonlariga issiqlik yetkazib berish vaqtini uzaytirib yuboradi, bu esa jarayonning samaradorligini pasaytirishga olib keladi.

Granulalangan cho'yanning o'lchamlariga juda ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi (okatish o'lchami, materialning tarkibi, ruda turi, pechning harorat rejimi, okatishlarning pechga yuklanish intensivligi va h.

Pechga yuklash tezligi ortib ketganda pechning tubida uglerodlanishdan so'ng kogeziya yo'li bilan erigan, yirik o'lchamdagi naggetslar xosil bo'ladi.

Pechning naggetslar xosil bo'lish qismlarini shartli ravishda 4 ta asosiy qismga bo'lish mumkin. Z1, Z2, Z3 va Z4

Pechning gorelkalar bilan jixozlangan tag qismida joylashgan okatishlar Z1 qism orqali harakatlanib, issiqlik nurlanishi hisobidan ham ko'proq qiziydi. Okatish tarkibidagi temir oksidlari ko'mir yoki uglerod oksidi bilan tiklanganda okatishlar xali qattiq xolatda bo'ladi.

Keyinchalik qattiq tiklanish uglerod oksidining oxirigacha yonishi xisobiga Z2 qismida sodir bo'ladi. Bu qismda ham okatishlar qattiq xolatini saqlab turadi.

Keyin pechning gorelkalar bilan jixozlangan Z3 qismida uglerodlanish va erish sodir bo'lib, erigan temir bir biri bilan yopishib, o'zidan shlaklarni ajratib, naggetslar xosil qila boshlaydi. Xosil bo'lgan shlak va metall granulalari pechning to'rtinchi Z4 qismida sovutilib pechdan chiqarib olinadi.

Agar harorat tiklanish qismida Z2 ya'ni metalning erish haroratiga yetsa, temir oksidlari tiklanmasdan turib erib ketadi. Natijada esa tiklanish jarayonlari eritmada sodir bo'ladi bu qattiq xolda tiklanishdan farqlanadi. Qachonki bunday sharoitda eritma xolatida tiklanishda tiklangan temirning shlakdan ajralishi qiyin kechadi va bundan naggetslar xosil bo'lmaydi. Odatdagi texnologik jarayonlarda 16-19mm li okatishlar pechga yuklanganda tiklanish qismida harorat 1300-1350 S da ushlab turiladi. To'liq tiklangan temir erish qismiga o'tkaziladi va harorat 1350÷1450°C gacha ko'tariladi. Agar okatishning qattiq tiklanishi, metallashtirish darajasi 80% ga yetganda to'xtab erish boshlanib ketsa, unda metallik temir yuzasi tiklanmagan


oksidlar bilan qoplanadi va bunday temirdan naggetslar shakllanishi murakkab kechadi. 1200 °C haroratda qattiq tiklanish jarayoni juda sekin boradi va pechda materialni ushlab turish vaqti uzayib ketadi natijada ishlash unumdorligi tushib ketadi. 1500 °C haroratda metallik naggetslar bir biri bilan yopishib, noto'g'ri formadagi yirik-yirik massalar xosil bo'ladi. Bunday maxsulotlar sifatli hisoblanmaydi.

Tag kukuni pechning tag qismi bo'ylab, yupqa qavat qilib yoyiladi, bunda uglerodlanish va erish bosqichida tiklovchi muhit hosil qilish ta'minlanadi. Shunday qilib, okatishlarga yaqin hududlarda va okatishlar ichki qismida (Z3 zonada) okatishlar ichidagi qoldiq uglerod va tag kukuni hisobiga kuchli tiklovchi muhit xosil bo'ladi. Gaz atmosferasida tiklanish darajasi $CO/(CO + CO_2)$ 0,5 dan 0,7 gacha bo'lganda ham burilish oksidlanish sodir bo'lmaydi.

Amaliyotda metallik temirning shlakdan batamom ajralishi uning erishi va kogeziyasi bilan bir vaqtda sodir bo'ladi.

ITmk3 jarayonida foydalaniladigan tag kukuni 2mm gacha yiriklikda yanchiladi. Tag kukuni tayyorlashda ko'mir sifatda, kuyishga moyilligi bo'lmagan, plastikli nolg teng yoki yaqin bo'lgan ko'mir tanlanadi. Bunday ko'mirlarga antratsid va koks maydalari mansub bo'ladi.

Tag kukuni to'shama qalinligining aniq chegarasi yo'q, faqatgina to'shama qavat qalinligi tiklovchi atmosfera xosil qilish uchun 2 mm bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.



3.4.1. Granulalangan cho'yan

Tag kukuni to'shama qalinligining aniq chegarasi yo'qligi haqida gapirganda, uning yuqori chegarasi nazarda tutiladi. Jarayonda tiklovchi atmosferani boshqarish uchun koks yoki antartsidlardan ulardan SO gazi ajralib chiqmaguncha foydalanish mumkin. Ko'rsatilgan materiallardan alohida-alohida yoki birgalikda foydalanish mumkin.

Tag kukuni okatish yuklanguncha yoyiladi. Shuning uchun u erish tiklanish jarayonida oqib ketadigan shlaklardan olovbardosh g'ishtlarni himoyalash vazifasini ham bajaradi.

3.6. Uglerod bilan to'yingan temir eritmalarida marganetsning miqdoriy tarkibini hisoblash

Misol. Quyidagicha tarkibli shlak bilan muvozanatda turgan uglerod bilan to'yingan temir eritmalaridagi marganetsning miqdorini aniqlang, %: 35SiO_2 ; $44,5\text{SaO}$; $20\text{Al}_2\text{O}_3$; $0,5\text{MnO}$. Sistemada bosim $1,7 \cdot 10^{-5}$ Pa. Harorat 1500°C .

Yechim. Tenglama bo'yicha 1500°C harorat uchun K_{Mn} kattaligini aniqlaymiz:

$$\lg K_{\text{Mn}} = -\frac{12200}{1773} + 9,56 = 2,679; \quad K_{\text{Mn}} = 478$$

100 g shlakdagi mollar sonini aniqlaymiz:

$$n_{\text{SiO}_2} = 0,582; \quad n_{\text{CaO}} = 0,793; \quad n_{\text{MnO}} = 0,007;$$

$$n_{\text{Al}_2\text{O}_3} = 0,196; \quad \Sigma n = 1,578.$$

Shlak tarkibini foiz misollarda hisoblaymiz. (I mol %) = $(n_i / \Sigma n) \cdot 100$: $(\text{SiO}_2) = 36,9$; $(\text{SaO}) = 50,3$; $(\text{Al}_2\text{O}_3) = 12,4$; $(\text{MnO}) = 0,4$.

Kiritilgan tarkibli shlak uchun diagrammadan γ_{MnO} aktivlik koeffitsiyentini topamiz. $\gamma_{\text{MnO}} = 0,5$. Uglerod bilan to'yingan suyuq temirdagi marganetsning aktivlik koeffitsiyentini aniqlaymiz. Suyuq temirda uglerodning erish chegarasining harorat bilan bog'liqligi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi.

$$[\%S]_{\text{max}} = 1,34 + 2,54 \cdot 10^{-3} (T - 273) = 1,34 + 2,54 \cdot 10^{-3} \cdot 1500 = 15\%;$$

$$\lg f_{\text{Mn}} = e_{\text{Mn}}^c [\%C] = -0,07 \cdot 5,15 = -0,361;$$

$$f_{\text{Mn}} = 0,44$$

Ifodadan K_{Mn} ni topamiz:

$$[\%Mn] = K_{Mn} \frac{\gamma_{MnO} x_{MnO}}{f_{Mn} P_{CO}} = 478 \frac{0,5 \cdot 0,004}{0,44 \cdot 1,7} = 1,28\%.$$


Kelgusida talabalar aniq amaliy mashg'ulotlarni o'qituvchi tomonidan berilgan vazifalar asosida bajaradi.

Nazorat savollari:


1. Granullangan cho'yanning sanoatdagi ahamiyatini gapirib bering?
2. Granulalangan cho'yan sifatiga ta'sir qiluvchi omillar?
3. Uglerod bilan to'yingan Fe eritmasidagi Mn ning miqdori qaysi formula orqali topiladi?
4. Uglerod bilan to'yingan suyuq temirdagi marganetsning aktivlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?
5. Suyuq Fe uglerodning erish chegarasining harorat bilan bog'liqligi qaysi tenglamada ifodalanadi?

3.7. Metallning uglerodlanishi



Domnasiz metal ishlab chiqarish agregatlarida kam uglerodli va uglerodli metal olish mumkin. Bunda metalldagi uglerodning miqdori tiklovchi turi va jarayon haroratiga bog'liq. Toza temir 1539°C da qaynaydi. Uni uglerodlantirilsa uning qaynash harorati pasayadi. Uglerod suyuq temirda, qattiq temirga nisbatan yaxshi eriydi. 1150°C da qattiq temirda 2% gacha uglerod eriydi. Suyuq temirda esa 5-6% gacha uglerod eriydi. Temirning uglerodlanish mexanizmi oxirigacha aniqlanmagan. Temirning uglerodlanishi, hali temirning qattiq holatida $450-600^{\circ}\text{C}$ haroratdan boshlanadi. Uglerodlanishning kimyoviy reaksiyasini quyidagicha tasvirlash mumkin.



950°C dan yuqori haroratda temirning uglerodlanishida uglerod oksidi ishtirok etadi.



Oxirgi reaksiya ikkita bosqichda sodir bo'ladi.



Birgina harorat 900 °C dan yuqori bo'lganda temir karbidi vyustit bilan reaksiyaga kirishishi mumkin va metallik temir xosil bo'ladi.



Okatishlarni 1200°C gacha va undan yuqori haroratlarda qizdirilsa uglerodlanish jarayoni kuchayadi. Tiklangan temirni tezroq eritish uchun, qattiq tiklangandan so'ng yetarlicha miqdorda uglerod qolishi kerak. Okatishlarning tarkibida uglerodning ortiqcha bo'lishining sababi quydagicha:

Birinchidan, uglerodning ortiqchaligi uglerod oksidining miqdorini oshiradi, bu esa tiklanish jarayonini tezlashtiradi va tiklangan temir bilan uglerodning reaksiyasi natijasida xosil bo'luvchi temir karbidi miqdorini oshiradi. Ikkinchidan, uglerodning ortiqcha miqdorligi okatishda pech atmosferasiga bog'liq bo'lmagan holda kerakli reaksiyalarning borishiga imkon yaratadi.

Bu esa yoqilg'ining to'liq yonishini minimumlashtiradi. Bundan tashqari okatishlarda ortiqcha uglerodning bo'lishi tiklangan temir va temir karbidini pech atmosferasida CO bilan qayta oksidlanishidan himoya qiladi.

Uglerodning ortiqcha miqdorligi okatish ishlab chiqarishda foydalaniladigan uglerod tarkibli moddalar va temir tarkibli rudalar miqdori bilan aniqlanadi. Tajriba ma'lumotlari shuni tasdiqlaydiki, uglerod tarkibli moddalar miqdori shunday tanlanishi kerakki, bunda metallashtirish koeffitsienti 100% ga etkazilganda uglerodning ortiqchaligi 1.5 % ni tashkil etishi kerak, bu esa tez uglerodlanish va suyuqlanish haroratining tushishiga olib keladi. Agar qoldiq uglerodning miqdori 1.5% dan kam bo'lsa suyuqlanish harorati pasaymaydi. Kafolatlangan metallik cho'yan (tarkibidagi uglerod miqdori 2-4%) olish uchun qoldiq uglerodning miqdori 2.5-4.5 % diopozonlarda boshqarilib turilishi kerak. SHuni ta'kidlash kerakki xatto okatish tayyorlanayotganda aniqlangan uglerod miqdori pechda gaz atmosferasida tiklanish darajasiga qarab o'zgaradi.



3.7.1.-rasm. Granulatsion cho'yan ko'rinishlari.

Metallashtirish jarayonida gazodinamika va issiqlik almashuvi asoslari.

Bo'lakchalangan materiallar qavatlarida gazlarning harakati.

Shixtali turdagi agregatlarda tiklanish jarayonining samardorligiga shixta materiallari qavatlaridan o'tuvchi gaz xarakatining ahamiyati katta. Shixta bo'lakchalarining tiklovchi gaz bilan tekis to'qnashishi yuqori ko'rsatgichlarga erishish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

Bir xil o'lchamdagi bo'lakchalar qavatlarida gazning harakatlanishi.

Temir tarkibli okatishlarini tiklashda shixta materiallari qavat-lari biri biriga yaqin o'lchamdagi sharlar ko'rinishida bo'ladi. Shixta bo'lakchalarining o'lchamlarini bir xil deb qabul qilib, matematik bog'liqlikni soddalashtirish mumkin.

Gazning uncha katta bo'lmagan tezliklarida qavatlarida, shixta bo'lakchalari orasida gazning laminar oqimi o'rnatiladi. Katta tezlik-larda esa bosqichma-bosqich trubulent oqimga o'tishi kuzatiladi.


Eksperimentlar asosida gaz oqimi qarshiligining va gaz va shixta xususiyatlarining laminar va trubulent rejimlar uchun universal bog'liqligining matematik formulasi keltirilgan. Bu bog'liqlikni olish uchun qarshilik ψ va Reynolds Re mezonlaridan foydalanilgan:

$$\psi = \Delta P \varepsilon^3 d F g / H \rho u^2 (1 - \varepsilon); \quad Re = \rho u d F / \eta (1 - \varepsilon).$$

Bu yerda d -shixta bo'lagining diametri, m; Δp - qavat bosimining yo'qolishi, Pa; ε - qavatda bo'sh hajmning butun qavat hajmiga nisbati, m^3/m^3 ; N -qavat qalinligi, m; ρ - gaz zichligi, kg/m^3 ; η -gazning

dinamik qovushqoqligi, $\text{kg}/(\text{m}^*\text{s})$; u-gaz tezligi, m/s ; g-og'irlik kuchi tezligi, m/s^2 ; F-forma koeffitsienti, 1,0 shar uchun 1 ga teng va boshqa formadagi materiallar uchun 0,6-1,0 ga teng.

Matematik bog'liqlik $\psi = f(\text{Re})$ ko'rinishida yoziladi va 19-rasm-da tasvirlangan.



3.7.2. -rasm. Qarshilik mezonining Reynol'ds mezoniga bog'liqligi.

Turli o'lchamdagi bo'lakchalar qavatlaridagi gazning harakati.

Ma'lumki, turli o'lchamdagi bo'lakchalar qavatlarini, bo'lakchalarning o'rtacha arifmetik diametri bilan xarakterlash mumkin emas. Ko'p komponentli qavatlarda katta bo'lakchalar orasi mayda bo'lakchalar bilan to'lgan bo'ladi. Bunday xollarda bo'lakchaning ekvivalent diametri quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$d_{\text{ekv}} = 1 / \sum_{i=1}^n c_i / d_i,$$

bu yerda d_i - i-chi fraksiya bo'lakchasining diametri; c_i = i-chi fraksiya bo'lakchasining hajmiy ulushi.

Yirik fraksiyada bo'lakchalar sonining kamayishi bilan yana bo'laklar orasidagi hajm to'la boshlaydi. Bunda qavatning kovaklik darajasi kamayadi, materialning solishtirma og'irligi ortadi.

Shu kabi jarayon boshida mayda fraksiyaning qavatga qo'shilishi uning strukurasini yomonlashtiradi, kovakligini kamaytiradi va gaz oqimiga qarshilikni oshiradi. Kovaklik darajasi yirik va

mayda fraksiyaning nisbatiga kuchli bog'liq. Mayda fraksiya ulushining kam miqdorda oshishi partial bosim Δp ning kuchli yo'qolishiga sabab bo'ladi.

3.8. Suyuq temirdagi kislorodning muvozanat konsentratsiyasi hisobi

Misol. 1650° haroratda nordonlikni yo'qotish jarayoni uchun suyuq temirdagi kislorodning muvozanat konsentratsiyasini hisoblash:

- a) 0,5; 1,0; 1,5% konsentratsiyalarda marganes bilan;
- b) 0,2; 0,5 i 1,0 %konsentratsiyalarda kremniy bilan;
- v) 0,05; 0,10 i 0,15%konsentratsiyalarda alyuminiy bilan.

Nordonlikni yo'qotish jarayonida MnO , SiO_2 va Al_2O_3 oksidlari hosil bo'ladi, bunda aktivlik 1 ga teng.

Kremniyning o'zaro ta'sirlashish parametrie $S_i^{Si} = 0,11$.

Yechim. $K_{Mn(1923)} = 2,6 \cdot 10^{-3}$; $K_{Si(1923)} = 6,1 \cdot 10^{-5}$; $K_{Al(1923)} = 7,6 \cdot 10^{-14}$. tenglamalardan foydalanib, ma'lum haroratlarda K_{Mn} , K_{Si} va K_{Al} lar uchun reaksiyalarning muvozanat konstantalarini aniqlaymiz.

Adabiyotlardan o'zaro ta'sirlashish parametrlaridan foydalanib, reaksiyalarda ishtirok etayotgan moddalar uchun aktivlik koeffitsiyentini aniqlaymiz:

$$Igf_o^{Mn} = eo^{Mn} = -0,021 [\%Mn];$$

$$Igf_o^{Si} = 0,11 [\%Si];$$

$$Igf_o^{Al} = -0,131 \% [\%Al];$$

Kislorodning muvozanat konsentratsiyalarini aniqlaymiz:

$$[\%O]_{Mn} = K_{Mn} \frac{1}{[\%Mn]^{1/2}}$$

$$[\%O]_{Si} = \sqrt{K_{Si} [\%Si]^{1/2}}$$

$$[\%O]_A = 3\sqrt{K_{Al} [\%Al]^2}$$


Olingan ifodalarga muvozanat konstantasi ifodalarini qo'yib, nordonizlantiruvchilarning konsentratsiyalarini va aktivlik koeffitsiyentlarini qo'yib, kislorodning aktivlik koeffitsiyentini topamiz va 3.5.1. - jadvalga kiritamiz.

3.5.1.- jadval

Kislorodning muvozanat konsentratsiyalari hisobi natijalari

Raskislitel	[%R]	f_o^{Mn}	e_{Si}^{Si}	f_o^{Si}	[%O]ravn	lg[%R]	lg[%O]
Mn	0,5	0,98	-	-	0,0531	-0,301	-1,275
	1,0	0,95	-	-	0,0274	0	-1,562
	1,5	0,93	-	-	0,0186	0,176	-1,730
Si	0,2	-	1,05	0,94	0,0405	-0,699	-1,392
	0,5	-	1,14	0,86	0,0170	-0,301	-1,770
	1,0	-	1,29	0,74	0,0093	0	-2,032
Al	0,05	-	-	-	0,00034	-1,301	-3,468
	0,10	-	-	-	0,00021	-1,000	-3,678
	0,15	-	-	-	0,00016	-1,824	-3,796

Hisoblash natijalari asosida grafik chizamiz(3.5.1.-rasm). Bunda kislorodning muvozanat konsentratsiyasi 0,017 % ga teng bo'lganda, qotishmada kremniyning foiz ulushi 0,5% ga tengligi ta'minlanadi. Suyuq temirni marganets bilan nordonsizlantirish jarayonida kislorodning xuddi shunday konsentratsiyasini olish uchun qotishmada marganetsning miqdori 2 % bo'lishi kerak.



3.4.1. - rasm. 1650° haroratda nordonlikni yo'qotish jarayoni uchun suyuq temirdagi kislorodning muvozanat konsentratsiyasi

Kelgusida talabalar aniq amaliy mashg'ulotlarni o'qituvchi tomonidan berilgan vazifalar asosida bajaradi.

Nazorat savollari:

1. Metallni nima uchun uglerodlantirish zarur?
2. Uglerodning metall xossalariga ta'siri qanday?
3. Cho'yan va po'latda uglerodning foiz ulushlari qanday?
4. Nordonlik deganda nimani tushunasiz?
5. Suyuq temirdagi kislorodning muvozanat konsentratsiyalari qanday aniqlanadi?
6. Nordonsizlantirish deganda nimani tushunasiz?

3.9. Metallashtirish jarayonida issiqlik almashuv asoslari

Qavatlarida issiqlik almashinuvi.

Bo'lakchali materiallar qavatlarida issiqlik almashuvi murakkab jarayondir. Qattiq materiallarni qizdirish konveksiya va issiqlik o'tkazuvchanlik bilan amalga oshiriladi. Qattiq tiklanish maxsulotlarni olishda, nurlanish katta rol o'ynaydi. Gazdan materialga issiqlik o'tkazishning asosiy turi konveksiya hisoblanadi, bunda material qizdirilishi bilan issiqlik, bo'lakchalar yuzasidan markazga uzatiladi. Shuning uchun bo'lakchalar o'lchami qancha kichik bo'lsa, issiqlik almashuv jarayonida issiqlik o'tkazuvchanlik shuncha tezroq bo'ladi.

Bo'lakchalangan material qavatlarida issiqlik uzatilishi uchta qonuniyatga bo'ysinadi.

Qavatlarni tashkil qiluvchi material bo'lakchalari yuzasidagi harorat faqatgina gazdan material qavatlariga issiqlik uzatilishi bilan emas, balki, bo'lakcha ichiga kirib borishi bilan amalga oshiriladi.

Shaxtali pechlarda ishchi haroratlarda issiqlik uzatilishi konveksiya va nurlanish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ichki issiqlik o'tkazuvchanlik bo'lakchalarning o'lchami va issiqlik o'tkazuvchanligiga bog'liq bo'ladi.

Qavatlarga uzatilayotgan issiqlik miqdori umumiy issiqlik balansida unchalik ko'p miqdorni tashkil etmaydi.

Metallash jarayonida past harorat zonalarida gazdan materialga issiqlik uzatishning asosiy turi konveksiya hisoblanadi. Shaxtali pech normal ish jarayonida shixta bir xil tezlik bilan pastga tushadi. Har

bir gorizontda shixta va gazning doimiy harorati o'rnatiladi. Shixta bo'lakchalari va gazning harorati ularning balandligi N orqali aniqlanadi. Shuning uchun gaz haroratini $t_g=f(H)$ va shixta haroratini $t_{sh}=\delta(H)$ deb hisoblash mumkin. Vaqtga bog'liq holda $N=R_m \tau$ ga teng bo'ladi. Bu yerda R_m — materiallar harakatlanish tezligi m/s , yoki shixta oqimi hajmiga $m^3/(m^2 \cdot ch)$.

Ko'tarilib boruvchi gaz oqimining yoki bo'lakchalangan shixta qavatlarining haroratini aniqlash uchun bu oqimlarning suv ekvivalentini bilish kerak.

Gaz yoki shixtaning suv ekvivalenti deganda, vaqt birligi ichidagi gaz yoki shixta oqimining massa yoki hajm birligidagi sarfining shu oqimni tashkil etuvchi moddalarning solishtirma issiqlik sig'imiga ko'paytirilganiga teng kattalikga aytiladi.

$$W=gc,$$

Bu erda g - oqimning massa yoki hajm sarfi (shixtaning), kg/ch (m^3/ch); s -oqimning solishtirma issiqlik sig'imi, $Vt/(kg \cdot ^\circ C)$.

Oqimning suv ekvivalenti shu oqim haroratini $1^\circ C$ ga o'zgartirish uchun qancha miqdorda issiqlik sarflanishini ko'rsatadi. Issiqlik o'zgarishining konveksiya yo'li uchun:

$$g_{sh} c_{sh} dt = \alpha_F (t_g - t_{sh}) F d\tau,$$

bu yerda g_{sh} -material miqdori, kg ; s_{sh} -shixtaning solishtirma issiqlik sig'imi, $Vt/(kg \cdot ^\circ C)$; t_g i t_{sh} — gaz va shixtaning harorati, $^\circ C$; α_F -konveksiya yo'li bilan issiqlik uzatish koeffitsienti, $Vt/(m^2 \cdot s \cdot ^\circ C)$; F -materiallar yuzasi, m^2 ; τ -vaqt, s .

Shunda gazning oxirgi harorati

$$t_g - t_{sh} = t_k \{ \exp [- (\alpha_F F / g_{sh} s_{sh}) (1 - g_{sh} s_{sh} / g_g s_g) \tau] \}$$

bu yerda g_g -gaz miqdori, m^3 .

Shaxtali pechda oddiy qizdirishdan tashqari turli reaksiyalar sodir bo'ladi. Bunda ham issiqlik yo'qotilish holatlari kuzatiladi.

Bu holatlarga aniqlik kiritish uchun B.I. Kitaev solishtirma issiqlik sig'imi tushunchasini kiritgan. Solishtirma issiqlik sig'imi jarayon normal sharoitda borayotganda issiqlik yo'qotilishini hisobga olgan holda modda oqimini $1^\circ C$ ga sovutish yoki isitish uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdori tushuniladi.

Bu tushunchadan foydalanib issiqlik sig'imini

$$G_g s_g dt_g = g_{sh} s_{sh} dt_{sh} + (q_p + q_r) d\tau,$$

deb yozish mumkin, bu yerda q_p -fizik-kimyoviy jarayonlarning issiqlik effekti, Vt ; q_p -pechning ma'lum gorizontida issiqlik yo'qolishi, Vt . Tenglamadan reaksiya issiqligi va yo'qolishini olishimiz mumkin.


$$\begin{aligned} W_g dt_g &= W_{sh} dt_{sh} + (q_p + q_p) d\tau, \\ W dt_g &= W_{sh} dt_{sh}, \quad W_{sh} = W_{sh} [1 + q_p / W_{sh} dt_{sh} / d\tau], \\ W_g &= W_g [1 - q_p / W_g dt_g / d\tau] \end{aligned}$$

Soddalashtirish maqsadida, kelgusida W ko'rsatgich o'rniga W dan foydalanamiz. Issiqlik almashishning asosiy tenglamasidan

$$W_g(t_g^{nach} - t_g^{kon}) = W_{sh}(t_{sh}^{kon} - t_{sh}^{nach})$$

Aytish kerakki, issiqlik almashuvi suv ekvivalentiga bog'liq $m = W_{sh} / W_g$. m kattaligining shaxtali pech balandligi bo'yicha o'zgarishi ikki zona mavjudligini ko'rsatadi: ($m < 1$) yuqori va ($m > 1$) pastki.

Shaxtali pechlarda issiqlik almashuvining zamonaviy nazariyasi B.I.Kitayev va uning o'quvchilari tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariyaga muvofiq shaxtali pechlarda issiqlik almashuvning ikki bosqichi mavjud (yuqori va pastki). Yuqori zonasi uchun $W_g > W_{sh}$, bunda hamisha gazning issiqligi shixta issiqligidan yuqori bo'ladi. Bunda koloshnik gazlari harorati atrof muhit haroratiga teng bo'lishi mumkin emas. (3.6.1.-rasm).



3.6.1-rasm. Shaxtali pech balandligi bo'yicha gaz va shixta haroratining o'zgarishi

Birgina bo'lakchani qizdirilishini kuzatib shunday quyidagicha xulosalar olingan. Issiqlik uzatish koeffitsienti α 1°C farqida gaz va qattiq faza yuzasida qancha miqdorda issiqlik almashishini ko'rsatadi. Shu kabi issiqlik oqimi uchun quyidagini yozish mumkin.

$$J_a = \alpha (\vartheta - T),$$

Bu yerda ϑ - gaz harorati; T - qattiq material yuzasidagi harorat.



3.10. Yoqilg'ining yonish harorati hisobi

Misol. Quyidagicha tarkibli koksning yonish haroratini aniqlash. massalarda.

C - 70 %, N_2 - 6,5 %, O_2 - 10 %, S - 2,0 %, H_2O - 1 %, kul miqdori - 5,5 %, namlik - 5 %.

Havoning ortiqchalik koeffitsiyenti $\alpha = 1,55$. Havoning nisbiy namligi 70 %. 25°C da namlikning to'yinish darajasi $23,1 \text{ g/m}^3$. Koks va havo yonish gurelkasiga 25°C da kelib tushadi. Issiqlikning yo'qolishini (issiqlikning kutyol devorlaridan va shlak bilan yo'qolishi) umumiy issiqlik kelishidan 8 % deb qabul qilamiz.

Yechim: Yonish quyidagi reaksiyalar orqali amalga oshadi:



Hisobni 1 kg koks uchun olib boramiz.

Mendeleevning quyidagi formulasiga asosan koksning past yonish issiqligi:

$$Q_v^r = 339,3\text{S} + 1256\text{N} + 109(\text{O}-\text{S}) - 25,2(9\text{H}+\text{W})$$

$$Q_v^r = 339,3 \cdot 70 + 1256 \cdot 6,5 + 109(10-2) - 25,2(9 \cdot 6,5 + 5) = 29650 \text{ kJ/kg} \quad (7110 \text{ kkal/kg})$$

Koksning o'rtacha issiqlik sig'imida $0,78 \text{ kDj}/(\text{kg} \cdot ^{\circ}\text{C})$, 25°C da 1 kg koksdan $st = 0,78 \cdot 25 = 19,5 \text{ kDj/kg}$ issiqlik ajralib chiqadi.

Havoning nazariy sarfini quyidagi tenglama orqali hisoblash mumkin:

$$G_{\text{havo}} = 0,116 \cdot 70 + 0,348 \cdot 6,5 + 0,0435(2-10) = 10,05 \text{ kg yoki } 10,05/1,2928 = 7,77 \text{ m}^3.$$

Shu bilan bir qatorda azotning

$$(77.7 \cdot 79) / 100 = 6,14 \text{ m}^3 \text{ va kislorod } 1,63 \text{ m}^3.$$

Yonish kamerasiga kirayotgan havoning issiqligini (6.1) formuladan topamiz. Buning uchun 1 kg havo tarkibidagi namlikni aniqlash zarur:

$$(23.1 \cdot 7.77) / 10.05 = 17,9 \text{ g N}_2\text{O yoki } 0.0179 \text{ kg N}_2\text{O}$$

$$Q_{\text{havo}}^{\text{f}} = 1.55 \cdot 10.05 (1.02 + 1.95 \cdot 0.0179) \cdot 25 = 392,8 \text{ kJ}$$

Binobarin jami kiruvchi issiqlik:

$$Q = 29650 + 18.2 + 392.8 = 30061 \text{ kJ}$$

Issiqlik yo'qolishini hisobga olgan holda:

$$Q = 30061 \cdot 0.08 = 2410 \text{ kJ}$$

Yonish kamerasi gazlari bilan chiqib ketuvchi issiqlik:

$$Q = 30061 - 2410 = 27651 \text{ kJ}$$

Quyidagicha tarkibli 1 kg koksning yonish mahsulotlari tarkibini aniqlaymiz:

Koksning yonish haroratini hisoblash uchun shartli ravishda 1300 °C ni qabul qilamiz.

Gazlarning entalpiyasi kJ/kmol:

	1300 °C	1400 °C
H ₂	39300	42600
O ₂	43400	47606
N ₂	41600	45600
SO ₂	66800	72700
N ₂ O.....	52200	56800

1300 °C da chiqindi gazlarning issiqlik miqdori quyidagini tashkil qiladi:

$$Q = 0.058 * 66800 + 0.0485 * 52200 + 0.0007 * 67900 + 0.4254 * 41600 + 0.04 * 43400 = 25940 \text{ kJ/kg}$$

Binobarin, $Q < Q$. Shuning uchun ham $t=1400$ °C da chiqindi gazlarning issiqlik miqdori quyidagini tashkil qiladi

$$Q = 0.058 * 72200 + 0.0485 * 56600 + 0.0007 * 73800 + 0.4254 * 45600 + 0.04 * 47606 = 28432 \text{ kJ/kg}$$

Demak, $Q > Q$.

Farqni aniqlaymiz:

$$Q - Q = 28432 - 25940 = 2492 \text{ kJ/kg}$$

$$\Delta t = 1400 - 1300 = 100 \text{ °C}$$

$$Q - Q = 27651 - 25940 = 1711 \text{ kJ/kg}$$

$$\Delta t = t - 1711 \text{ °C}$$

Shunda

$$\Delta t = (1711 * 100) / 2492 = 69 \text{ °C}$$

$$\text{Koksning yonish harorati } 1300 + 69 = 1369 \text{ °C}$$

3.9.1.- jadval

Havo va yoqilg'ining tarkibiy tashkil etuvchilari		Yonish mahsulotlari, kmol				
Mahsulot	kmol	SO ₂	N ₂ O	SO ₂	N ₂	O ₂
C	0.7/12=0.058	0.058				
H ₂	0.065/2=0.033		0.033			
S	0.02/32=0.0007			0.0007		
N ₂	0.01/28=0.0004				0.0004	
O ₂ (ortiqcha)	0.9/22.4=0.04					0.04
Havodagi namlik	(1.55*10.05*0.0179)/18=0.0155		0.0155			
Jami:		0.058	0,0485	0,0007	0,4254	0.04

Nazorat savollari

1. Metallurgiyada qanday yoqilg'ilar qo'llanadi?
2. Yonish qaysi reaksiyalar orqali amalga oshiriladi?
3. Koksning yonish mahsulotlari tarkibi qanaqa?
4. Issiqlik almashuvining qanday turlarini bilasiz?
5. Qavatlarda issiqlik almashuvining qaysi turi kuzatiladi?

3.10. Metalshtirish uchun temir tarkibli xomashyolar va tiklovchilar

Temir tarkibli materiallarga qo'yiladigan talablar.

Metallashtirishga yuborilayotgan temir tarkibli materiallarga qo'yiladigan asosiy talablar, ularning kimyoviy tarkibiga va metallashtirish jarayonida o'zini tutishiga qo'yiladigan talablar hisoblanadi.

Kimyoviy tarkibga qo'yiladigan talablar.

1. Zararli qo'shimchalar miqdori. Vaholanki, tiklanish jarayonida zararli komponentlar shixtadan amaliyotda yo'qota olmaydi va materiallarni zararli komponentlari (P, S, As, Cu, va boshqalar) bilan tiklash talab qilinadi. Oltingugurt va fosfor miqdori 0,015% dan oshmasligi kerak. Oltingugurtni oksidlangan okatishlar ishlab chiqarishda yo'qotish mumkin. Fosfor oksidlovchi kuydirishda yo'qolmaydi, shuning uchun past fosfor tarkibli rudalardan foydalaniladi.

2. Nordon oksidlar miqdori. Dastlabki ruda tarkibidagi nordon oksidlar miqdori po'lat ishlab chiqarishda hosil bo'luvchi shlak massasini aniqlaydi va elektroenergiya sarfiga, jarayonning iqtisodiy ko'rsatgichlariga kuchli ta'sir qiladi. Temir tarkibli materiallar tarkibidagi nordon oksidlar miqdori 3% dan oshmasligi kerak, aks holda metallashtirish iqtisodiy samarasiz hisoblanadi.

3. Flyus materiallardan foydalanish imkoni mavjudligi. Metallashtirish uchun shixtalardan foydalanish qator afzalliklarga ega. Birinchidan, tiklovchi qayta ishlashda temir tarkibli materiallarning mustahkamligi ortadi, ikkinchidan okatishlar ishlab chiqarish uchun agregetlarning ishlab chiqarish unumdorligi orttiriladi, uchinchidan

okatishlarni metallashtirishda ularning uglerodlanishiga sharoit yaratiladi.

4. Legirlangan metallashgan okatishlar olish. Shixtaga legirlovchi qo'shimchalarning qo'shilishi po'lat tarkibida bu qo'shimchalarning teng taqsimlanishini ta'minlab beradi va temir bilan birga tiklanadi.

Tiklanishda o'zini tutishi.

Temir tarkibli materiallarning turli xil agregatlarda, qarama qarshi oqim prinsipida ishlovchi shaxtali pechlarda tiklanishda asosiy talab qattiq materiallarning granulometrik tarkibiga qo'yiladi. Dastlabki temir tarkibli materiallarga qo'yiladigan muhim talablardan biri, tiklanishda ularning mustaxkamligi va tarkibida mayda fraksiyaning (0-5mm) kamligidir. Shu bilan bir qatorda ta'kidlab o'tilganki, tiklanish jarayonida barcha temir tarkibli materiallar o'zining mustahkamligini yo'qotadi. Olib borilgan umumiy tadqiqot natijalaridan temir tarkibli materiallarni tiklash jarayoni haqida quyidagicha xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Temir tarkibli materiallarni tiklovchi qayta ishlashda barcha materiallarning (ruda, aglomerat, okatish) mustaxkamligi kamayadi. Mustaxkamlikning sezilarli pasayishi 500°C dan boshlanadi. Yanada harorat oshirilsa bu holat kuchli kuchliroq nomoyon bo'ladi, keyinchalik, $950-1000^{\circ}\text{C}$ da kuchsizlanadi. Eng kuchsiz mustaxkamlik, tiklanish darajasi 20-25 % bo'lganda sodir bo'ladi. Bu vyustit mavjud bo'lgan hududlarga to'g'ri keladi.

2. Qoidaga binoan, materiallar mustaxkamlagining yo'qolishi bilan ular hajmining oshishi kuzatiladi. Agar hajmning oshishi kuza-tilmasa, demak, mustaxkamlik kamaymayotganligidan dalolat.

3. Temir tarkibli materiallarni issiq tiklovchi qayta ishlab olishda ular bir qancha yuqori mustaxkamlikga ega bo'ladi, bu materiallar tiklanganda mustahkamligi yanada ortadi. Shuning uchun aglomeratlar okatishlarga qaraganda yuqori mustaxkamlikga ega bo'ladi.

4. Past haroratlarda temir rudali materiallar uglerod oksidi atmosferasida, vodorod oksidli atmosferaga nisbatan o'zining mustaxkamligini ko'proq yo'qotadi.

Temir tarkibli materiallarni tiklash jarayonida materiallar mustaxkamligining yo'qolishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

1.Ma'lumki, gematitning magnetitga kristallokimyoviy o'zgarish davomida oraliq birikmalardan o'tadi, bunda qonuniyat bo'yicha hajm o'zgarishi kuzatiladi.

Kuchlanish paydo bo'lganda na'munada yoriqlar paydo bo'lib, mustahkamlikning yo'qolishiga olib keladi.

Eksperimentdan tasdiqlanishicha imatitning tiklanish maxsuloti sifatida, xossalari jixatdan magnetitga yaqin bo'lgan nestexiometrik magnetit hosil bo'lgan. Uning hosil bo'lishi past haroratlarda (900°C gacha) tiklanishida imatit-magnetit kristallik o'tishida issiq mustahkamlikning pasayishi kuzatiladi.

2.Temir oksidlarining turli kristallografik o'qlaridagi anizotropiya, panjaralarda "tolali" yoki "ignali" metallik temir hosil bo'lishiga olib keladi va bu struktura umumiylikini buzuvchi va namuna tuzilishining buzilishiga olib keladi. Bunday holatning paydo bo'lishiga sabab oxirigacha aniqlanmagan, ammo bu sabablardan biri sifatida temir oksidi panjaralariga ishqoriy metallarning ta'siri bo'lishi mumkin.

3.Tiklanishda temir tarkibli materiallar mustahkamligining kamayishi ularda o'tirgan uglerodning olib tashlanishi bilan ham asoslanadi, lekin bu ham past haroratlarda sodir bo'ladi.

Qoidaga binoan tiklanish jarayonining tezlashishi materiallar mustahkamligiga salbiy ta'sir qiladi, vaxolanki kuchlanish yetib bormasdan na'muna tuzilishi buzilib, unda yoriqlar paydo bo'ladi.

Modomiki, tiklanish jarayoni tezligi qattiq oksid bilan tiklovchi gaz orasidagi kontakt maydoniga bog'liq ekan, tiklanish jarayonida materiallarning o'zini tutishiga ularning struktura tuzilishi ta'sir qiladi.

Kovaklarning solishtirma yuzalari qancha katta bo'lsa, tiklanish okatishlarning barcha hajmlarida sodir bo'ladi va tiklanish tezligi ham shuncha yuqori bo'lib, okatishlar mustahkamligi esa shuncha pasayib boradi.

Mustahkam struktura tuzilishiga ega bo'lgan okatishlar olinishini ta'minlashga qaratilgan chora tadbirlar, olib boriladi. Bunda asosiy tadbirlardan biri metallashtirishda tarkibida bo'sh tog' jinslari mavjud bo'lgan materiallardan foydalanish hisoblanadi.

Bunday materiallar oksidlovchi kuydirish jarayonida o'zidan eritma ajratadi va olinayotgan okatishlar mustahkamligi taminlanadi.

Shuning uchun okatish tarkibidagi temir miqdorini 68-69 dan 64-65% gacha kamaytirish, o'z navbatida bo'sh tog' jinslar miqdorini 2,3 dan 7,5% gacha oshirish tavsiya etilgan.

O'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha boy boyitmalardan tayyorlangan flyuslangan materiallardan foydalanilganda okatishlar mustaxkamligi bir muncha ortadi, bu esa metallashtirish samaradorligini oshiradi.

Nazorat savollari:

1. Metallashgan materiallar olishda xomashyo bo'lib qanday materiallar xizmat qiladi?
2. Metallashgan materiallar olishda xomashyolar qanday tayyorlanadi?
3. Okatishlarning kovakligining oshishiga ta'sir qiluvchi omillar qanday?

3.11. Metallashtirish uchun tiklovchilar

Hozirgi vaqtda ko'pgina hollarda tiklovchi sifatida gazdan foydalanilmoqda.

Tiklovchi gaz olish uchun har hil turdagi qattiq, suyuq va gaz holdagi yoqilg'ilar xizmat qilishi mumkin. Tiklovchi gazlarni ishlab chiqarish usullarini tanlashda iqtisodiy omillar va tiklovchi gazga bo'lgan talablar (asosiysi tiklovchi gaz tarkibidagi CO , H_2 larning maksimal darajada yuqori bo'lishi CO_2 , H_2O , CH_4 va qoldiq uglerodning minmal darajada bo'lishi) aniqlanadi.

Gazning tiklovchilik hususiyatini baholash uchun uning oksidlanganlik darajasi ifodasidan foydalaniladi:

$$\eta_{\text{OK}} = (\text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}) / (\text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O} + \text{CO} + \text{H}_2),$$

bu yerda CO_2 , H_2O , CO va H_2 -mos ravishda gaz tarkibidagi komponentlar hajmiy ulushlari, %.

Tiklovchi gazni, gaz holdagi yoki suyuq uglevodorodlarni konversiya qilish yo'li bilan yoki qattiq yoqilg'ilarni gazifikatsiyalash yo'li bilan olinadi.

Tiklovchi gazni ishlab chiqarish uchun asosiy gaz holdagi yoqilg'i bu tabiiy gaz hisoblanadi. Koks gazini desulfuratsiyaga


uchratib qoldiq gazni (56% CH₄, 10% H₂, 12% CO, 1% CO₂, 21% N₂) amiak bilan sintez qilib ham yoki homaki neft maxsulotlarini (65% CH₄, 12% H₂, 1% CO, 22% CO₂) gazifikatsiyaga uchratib hosil qilingan tiklovchi gazlardan ham foydalanish mumkin.

Konversiya jarayonida metall oxirigacha oksidlanmay, vodorod va uglerod oksidi hosil bo'lishi bilan boradi. Oksidlovchilar sifatida texnik kislorod, havo, par yoki karbonat angidrid gazidan foydalaniladi. Mana shularga mos ravishda konversiya ham kislorodli, havoli, parli yoki karbonat angidrid gazli konversiyaga bo'linadi. Aralash turdagi konversiyalar ham bo'lishi mumkin (masalan, parhavoli konversiya).


Havoli yoki kislorodli konversiya quyidagi reaksiya orqali boradi:



Parli:



Karbonatangidridli:



Shunday qilib, agar tabiiy gazning konversiyasi kislorodli yoki havoli bo'lsa jarayon ekzotermik bo'ladi, agar tabiiy gazning konversiyasi parli yoki karbonat angidridli bo'lsa u holda jarayon issiqlik sarfini talab etadi.

Avtomatik ravishda tabiiy gazni havo yoki kislorod bilan konversiya qilishda, tiklovchi gaz massa ulushini maksimal oshirish, zararli komponentlar miqdorini minimal kamaytirishni ta'minlash uchun tabiiy gaz va kislorod ma'lum haroratgacha qizdiriladi (1000°C dan yuqori).

Kislorodli konversiya maxsus gorelkalarda yoki uzluksiz ishlovchi konvertorlarda amalgam oshiriladi. Havoli konversiya uchun past qismidagi nasadkalar havo aralashmasini qizdirish uchun, yuqori qismi tabiiy gazni konversiyalab, olinayotgan tiklovchi gazni qizdirishga mo'ljallangan kauper turidagi regenerativ apparatlardan foydalaniladi.

Kislorodli konversiyaning afzallik jihatlari uni keng intervaldagi bosimlarda olib borilishidadir, bu olinayotgan gaz sifatiga ta'sir qilmaydi.

Jarayonning boshqa afzallik jaxati esa, yuqori oltingugurt tarkibli gazlardan dastlabki qayta ishlashlarsiz foydalanish imkoniyati mavjudligi.

Jarayonning kamchiliklari esa, texnologik kislorodning yuqori tan narxligi hisoblanadi.

Tabiiy gazning parli konversiyasi kauper turidagi konvertorlarda yoki nikelli yoki ishqorli katolizatorlar mavjudligidagi, maxsus trubalarda olib boriladi, bunda katalizatorlar tiklovchi gazning uglerod bilan ifloslanishining oldini olib, tiklovchi gazning yuqori konsentratsiyasini olishni ta'minlab beradi.

Kislorod yoki par bilan birga oksidlovchi gaz sifatida koloshnik gazlari tarkibiga kiruvchi karbonat angidriddan ham foydalanish mumkin.

Bu usulning afzallik tarafi shundaki, bunda koloshnik gazi tarkibidagi tiklovchilardan qayta foydalanish imkoniyatining mavjudligi, buning natijasida esa konversiya uchun tabiiy gazga bo'lgan talab birmuncha kamayadi. Karbonat angidridli konversiya $1200-1300^{\circ}\text{C}$ va undan yuqori haroratlarda sodir bo'lishi kerak. Nisbatan past haroratlarda ($950-1000^{\circ}\text{C}$) jarayon faqat katalizatorlar ishtirokida sodir bo'ladi.

Qattiq yoqilg'ilardan tiklovchi gaz olish uchun ularning gazifikatsiya reaksiyalari, oksidlovchi sifatida texnologik kislorod ishtirokida, suv bug'i yoki karbonat angidrid ishtirokida quyidagi reaksiyalar orqali sodir bo'ladi.



Gaz tarkibida azotning miqdori yuqori bo'lganligi uchun, oksidlovchi sifatida havodan foydalanish mumkin emas.

Qattiq yoqilg'ilardan foydalanilayotganda uning quyidagi xarakteristikasi hisobga olinadi: a) uchmaydigan uglerod miqdori; b) uchuvchan uglerod miqdori va tarkibi; r) kul miqdori; d) qatron mavjudligi va miqdori; e) reaksiya xususiyati.

Metallashgan maxsulotlarning xossalari.

Domna jarayonida foydalaniladigan, past metallashgan okatishlarning asosiy xarakteristikalaridan biri ularning metallashganlik darajasidir.

Metallashganlik darajasi. Metallashganlik darajasi 80% dan kam bo'lgan xomashyolarni po'lat eritish pechlarida qayta eritish samarasiz hisoblanadi. Hozircha metallashganlikning eng past samaradorlik darajasi aniqlanmagan.

Bo'sh jinslarning miqdori. Bu ko'rsatgich shlakning chiqishiga, elektroenergiyaning sarfiga, binobarin po'lat ishlab chiqarish iqtisodiga ta'sir qiladi. (SiO_2 5% dan ko'p emas).

Zararli qo'shimchalar miqdori bu ko'rsatgich ham ishlab chiqarilayotgan po'latning markasiga bog'liq bo'ladi. Sifatli po'lat olish uchun oltingugurt va fosforning miqdori mos ravishda 0,01 va 0,015% dan oshmasligi kerak.

Uglerod miqdori po'lat eritish agregatlarida po'latning erish jarayoniga va po'latning qaynash jarayoniga kuchli ta'sir qiladi. (1-2%).

Metallashgan okatishlarning zichligi bu ham po'lat eritish bo'limi uchun juda muhim, chunki vannada okatishlar erib, shlak qavatlaridan o'tishi shunga bog'liq. Ba'zi hollarda okatishlarni zichlamasdan jarayonga beriladi. ($1,8\text{t/m}^3$ dan kam bo'lmagan holda).

Gazlar miqdori. Azotning ko'pgina qismi shixta bilan kiradi. Azot miqdori ko'pligi jarayonga salbiy ta'sir qiladi (0,01-0,08% dan kam).

3.12. Temirni rudadan ajratib olishda oltingugurt va fosforni yo'qotish

Misol. 1650°C da nordonsizlantirish uchun suyuq temirdagi kislorodning muvozanat konsentratsiyasini hisoblaymiz:

a) manganets bilan quyidagi konsentratsiyasi 0,5; 1,0; 1,5%;

b) kremniy bilan quyidagi konsentratsiyasi 0,2; 0,5 i 1,0 %;

v) alyuminiy bilan quyidagi konsentratsiyasi 0,05; 0,10 i 0,15%.

Nordonsizlantirish jarayonida aktivligi birga teng bo'lgan, MnO , SiO_2 va Al_2O_3 toza oksidlar hosil bo'ladi. Kremniy uchun o'zaro ta'sirlashish parametri $E_{\text{Si}}^0 = 0,11$ ga teng.

Yechim. Kiritilgan parametrlar asosida

$$K_{Mn(1923)} = 2.6 \cdot 10^{-2}; K_{Si(1923)} = 6.1 \cdot 10^{-5}; K_{Al(1923)} = 7.6 \cdot 10^{-5}$$

Formulalardan foydalanib, reaksiya muvozanat konstantalarini aniqlaymiz: K_{Mn} , K_{Si} va K_{Al} .

Reaksiyada ishtirok etuvchi moddalar uchun aktivlik koeffitsiyentini adabiyotlardan aniqlaymiz:

$$\lg f_0^{Mn} = -0.021 [\% Mn];$$

$$\lg f_0^{Si} = 0.11 [\% Si];$$

$$\lg f_0^{Al} = [\% Al].$$

Hisobot natijalari quyidagi 3.12.1.-jadvalga kiritiladi.

3.12.1- jadval

Suyuq temirni nordonsizlantirishda elementlar muvozanat konstantalarini hisoblash natijalari

Nordonsizlantiruvchi	[% R]	f_0^{Mn}	f_0^{Al}	f_0^{Si}	[%O]	$\lg[\%R]$	$\lg[\%O]$
Mn	0.5	0.98	-	-	0.0531	-0.301	-1.275
	1.0	0.95	-	-	0.0274	0	-1.562
	1.5	0.93	-	-	0.0186	0.176	-1.730
Si	0.2	-	1.05	0.94	0.0405	-0.699	-1.392
	0.5	-	1.14	0.86	0.0170	-0.301	-1.770
	1.0	-	1.29	0.74	0.0093	0	-2.032
Al	0.05	-	-	-	0.00034	-1.301	-3.468
	0.10	-	-	-	0.00021	-1.000	-3.678
	0.15	-	-	-	0.00016	-1.824	-3.796


Kislorodning muvozanat konstantasini aniqlaymiz:

$$[\%O]_{Mn} = K_{Mn} \frac{1}{[\%Mn]_{\text{akt}}};$$

$$[\%O]_{Si} = \sqrt{K_{Si} [\%Si] 2f};$$

$$[\%O]_A = 3\sqrt{K_{Al} [\%Al]^2}$$

Olingan ifodaga muvozanat konstantasi ifodasini, nordonsizlantiruvchi konsentratsiyasini, aktivlik koeffitsiyentini qo'yib, kislorodning muvozanat konstantasini topamiz va jadvalga kiritamiz.



3.12.1.-rasm. 1650°C da suyuq temirni nordonsizlantirishda kislorodning muvozanat konstantasi

Hisobotlar natijalari asosida grafik chizamiz. Bundan ma'lum bo'ladiki, kislorodning muvozanat konstantasi 0,017%, bu eritmada kremniy konsentratsiyasi 0,5 % bo'lganda ta'minlanadi. Marganets bilan nordonsizlantirishda xuddi shunday konsentratsiyali kislorod olish uchun eritmada 2 % marganes bo'lishi kerak.

Nazorat savollari

1. Kislorodning muvozanat konstantasi qanday aniqlanadi?
2. Aktivlik koeffitsiyenti formulasini keltiring.
3. Nordonsizlantirishda kislorodning muvozanat konstantasining ahamiyati.
4. Gaz xolidagi tiklovchilarga qaysi gazlar mansub bo'ladi?
5. Gaz xolidagi tiklovchilarga qo'yiladigan talablar?
6. Metallashtirish darajasi?

3.13. Temir tarkibli boyitmalarni qayta ishlash texnologik jarayonlari tasnifi. Metallashgan temir olishda midrex, hill jarayonlarining tasnifi.

Xozirgi kunda metallashgan temir ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi rol o'ynayotgan texnologiyalar Midreks va XiL-III texnologiyalari hisoblanadi. Bu jarayonlarning prinsipial texnologik sxemalari 1 va 2 rasmda va ularning xarakteristikasi 1 rasmda keltirilgan.

Solishtirilayotgan jarayonlarning asosiy farqli jihatlari issiq tiklovchi gaz olish usuli bilan farqlanadi.



Midreks jarayonida – bu shaxtali pechlarda xosil bo'luvchi tabiiy gazning konversiya maxsulotlari bilan temirni tiklash, bunda tashqaridan hech qanday oksidlovchilar (kislorod, par) ta'sir ettiril-maydi.

Jarayondan kelib chiqib aytish mumkinki, bunda tabiiy gaz uglevodorodlarini oksidlovchi bo'lib, temirni tiklanishidan xosil bo'layotgan kislorod xizmat qiladi.

Shaxtali pechda jarayon boshlanganda temirning tiklanishida bu kislorod H_2 va CO larni oksidlab, ularni CO_2 va H_2O larga aylantiradi.



Keyin esa, pechning reformalarida xosil bo'ladigan CO_2 va H_2O gazlar tabiiy gaz uglevodorodlarini H_2 va CO gacha oksidlaydi.



Bu jarayon bitta sikl davomida ko'plab marta takrorlanadi.

XiL-III jarayoni-bunda tabiiy gazning bug'li konversiyasi. bunda tashqaridan beriladigan kislorod sifatida suv bug'lanishidan xosil bo'lgan kislorod beriladi.

Ko'pgina kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlaridagi kabi XiL-III jarayonida ham tabiiy gazning bug'li konversiyasidan keng foydalaniladi, bunda reaksiya yuqori bosim ostida, deyarli uch baravar ortiqchaligi bilan boradi. Parli konversiyadan foydalanishda parning ortiqchaligi ikkita jiddiy texnologik yechimni xal etishni talab etadi.

- shaxtali pech reaktoriga issiq konvertor gazini berishdan oldin ortiqcha parni yo'qotish maqsadida sovitish va gazni takroran pechga berishdan oldin yana uni qizdirish.

- tabiiy gazning konversiyalanishida ishtirok etmaydigan chiqindi gazlarni (колошниковой газ) yo'qotish.

Aytish kerakki, XiL-III jarayonida kovertor gazini takroran qizdirish, qizdiruvchi trubasiga $600-700^{\circ}C$ xarorat intervalida agressiv ta'sir ko'rsatadi. bu "metallning changlanishiga" olib keladi. Qizdirilayotgan gaz trubasini ximoyalash uchun va uning ishlash

muddatini oshirish maqsadida qizdirilayotgan tiklovchi gazga oltingugurt tarkibli birikmalarni puflash talab etiladi. Shular bilan bog'liq xolda bu jarayonda tabiiy gazning desulfurizatsiyalanishi Midreks jarayoniga qaraganda ancha yuqori.

Agar Midreks jarayonida turli gazlarni reformerga uzatishdan oldin faqat bitta issiqlik almashuvchi apparatdan, ya'ni rekuperatordan foydalanilsa, XiLL-III jarayonida beshta shunday apparatlardan ya'ni quyidagilardan foydalaniladi.

Reformerning konvektiv qismi, bundan tabiiy gazni (tabiiy gaz va suv bug'larining aralashmasini) trubogeneratorga berishdan oldin qizdirishda foydalaniladi. Bu yerda so'rib olingan gazlar reformerning o'zida tozalanib ushlab qolinadi.

Kotel-utilizator, bundan trubogenerator uchun par chiqariladi va issiq konvertor gazining fizikaviy issiqligi utilizatsiya qilinadi.

Issilik almashtirgich (теплообменник), konvertor gazidagi qoldiq issiqlikni utilizatsiya qilib kotel suvini qizdirish uchun.

Rekuperator, tiklovchi gazlarni dastlabki qizdirish uchun, bunda shaxtali reaktordan chiqayotgan chiqindi gazlar issiqligidan foydalaniladi.

XiLL-III jarayoni ancha murakkab texnologik sxemaga egaligi bilan Midreks jarayoniga qaraganda bir qancha katta miqdorda issiqlik almashinuvchi va gazlarni tozalash va sovutish dastgoxlaridan foydalanishni talab etadi.

Shunday qilib Midreks jarayonida – chiqindi gazlar uchun bitta trubali skrubber, XiLL-III jarayonida esa uchta qurilma – konvertor gazlarini sovutish uchun, chiqindi gazlarni tozalash va sovutish uchun, texnologik gazlarni uglekislotadan tozalash uchun.

Yordamchi dastgoxlarning ko'pligi tufayli XiLL-III jarayonida qo'llaniladigan dastgoxlarning umumiy massasi Midreks jarayonida qo'llaniladigan dastgoxlar massasidan 15-20 % ga yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.

Bu ikki jarayonning texnologik ko'rsatgichlarini solishtiradigan bo'lasak, ular quydagilardir. Birinchidan XiLL-III jarayonida pech reaktoridagi bosim Midreks jarayoniga qaraganda ancha yuqori, bu (0,55 MPa qarshi 0,2 MPa). Bu tabiiy gazning parli kanversiyasining qo'llanilishi bilan bog'liq.

Shuni ta'kidlash lozimki, XiLL-III reaktorida parli konversiya qo'llanilishi bilan bog'liq xolda reaktorda vodorod miqdori uglerod oksidinikiga qaraganda 3.5 marta ko'proq bo'ladi. Bu esa pechdagi haroratni yuqoriroq ushlab turishni talab etadi. (Midreks ga qaraganda 30-50 °C ga) chunki temir asosan vodorod bilan ko'p miqdorda issiqlik yutilishi bilan tiklanadi.

Ikkita jarayondan olinadigan maxsulotlarning ham metallashganlik darajasi deyarli bir xil.

Jarayonning samaradorligini belgilovchi sarf-xarajat ko'rsatgichlarini quyidagicha ta'kidlash mumkin.

Tabiiy gaz sarfi ikkala jarayonda ham deyarli bir xil satxda. Elektroenergiyaga bo'lgan talab XiLL-III jarayonida taxminan 2 marta kam, chunki bu jarayonda o'zining xususiy issiqlik energiyasidan elektrenergiya ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

3.11.1. Metallashtirish jarayonining texnologik sxemasi

Midrex jarayoni

Midrex texnologiyasi oksidlagan okatishlarni shaxtali pechda konvertorlangan tabiiy gaz bilan tiklash jarayonlarini qamrab oladi. Shaxtali pechlarda metallashtirish jarayoni tiklanish zonasida 900 °C xaroratda va 0,2 MPa_{izb} gacha bosimda olib boriladi. Issiq metallashgan okatish (metallashganlik darajasi 92-94%) sovutish zonasida 40 – 60 °C gacha sovutiladi va pechdan chiqariladi.

Metallashgan okatishlarni sovutish yopiq konturda kompressor yordamida sirkulyatsion gazlar bilan sovutiladi.

Metallashtirish ustanovkasining gaz potoki sxemasi 1-chizmada keltirilgan.

Sxemaga muvofiq shaxtali pechdan chiqib ketuvchi chiqindi gazlar (koloshnikli gaz) changdan tozalash va sovutish uchun skrubberga beriladi va ikkita oqimga bo'linadi:

- texnologik gaz - reformerda tabiiy gazni konversiyalash uchun foydalaniladi.

- yoqilg'i gazi, kam miqdorda tabiiy gaz bilan aralashtirilgandan so'ng reformer bosh gorelkasiga beriladi.

Bunda yoqilg'i gazi, texnologik gaz bilan solishtirilganda gazning yonuvchanlik xususiyatini oshirish maqsadida suv parlari

to'liq yo'qolguncha kuchliroq sovutiladi. Texnologik gaz esa undagi suv bug'laridan tabiiy gazni konversiyalashda konvertirlovchi agent sifatida foydalanish uchun kamroq sovutiladi. Bu gaz ketma-ket birinchi va ikkinchi boqichlarda kompressorda siqilgandan so'ng rekuperatorlarda qizdiriladi, bundan so'ng esa oltingugrt birikmalaridan ZnO yordamida tozalanadi va tabiiy gaz bilan aralashtirib tiklovchi gaz (to'yimli gaz) tayyorlanadi. To'yimli gaz rekuperatorlarda qizdirilgandan so'ng reformerning reaksiya trubasiga tushadi, bu yerda nikel katalizatori ishtirokida CO_2 va H_2O lar yordamida keltirilgan texnologik gaz bilan konversiyalanadi.

Konverterlangan gaz reformerdan chiqishda 950°C nominal haroratga ega bo'ladi. Konvertor gaziga kam miqdorda rekuperatorlarda qizdirilgan tabiiy gaz qo'shilgandan so'ng, bu gaz tiklovchi sifatida $880 - 900^\circ\text{C}$ harorat bilan shaxtali pechga puflanadi.

Pechda gaz okatish qavatlar orasidan o'tib, ularni metallashganlik darajasi 92 % ga yetgunga qadar tiklaydi. Pechga puflanayotgan gaz yuqori tiklovchanlik potensialiga ega, $(\text{CO} + \text{H}_2):(\text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O})$ munosabati 1 l dan yuqori.

Pechda xosil bo'ladigan tiklanish maxsulotlari CO_2 va H_2O ning bir qismi reformerda tabiiy gazni konversiyalash uchun ishlatiladi, qolgan qismi esa texnologik sikldan chiqariladi. Suv bug'larining ko'pgina qismi chiqindi gazlarni sovutishda yo'qotiladi.

Yoqilg'ining umumiy sarfini kamaytirish va reformerda xosil bo'ladigan xira gazlarning issiqligidan samararli foydalanish maqsadida, tabiiy gaz va yoqilg'i gazlarni yondirish paytida ularni rekuperatorlarda tozalanadi.

Rekuperatorlarda xira gazlarning harorati 1125°C dan 280°C gacha nominal ko'rsatgichgacha tushiriladi.

Xira gazlar venilyator yordamida so'riladi va atmosferaga truba orqali chiqarib yuboriladi.

Keltirilgan texnologik sxema oxirgi yillarda xayotga tadbiq etilgan Midreks ustanovkalari uchun umumiy xisoblanadi. Shu bilan birgalikda oxirgi yillarda Midreks firmasi tomonidan jarayonni tezlashtirish maqsadida kisloroddan foydalanib, tabiiy gaz sarfini kamaytirishga qaratilgan, takomillashgan texnologiyalar o'ylab chiqilmoqda.

Kisloroddan foydalanishning ikkita yo'nalishi ishlab chiqilgan: gazning xaroratini taxminan 970 °C oshirish maqsadida tiklovchi gazga kislorod puflash;

tabiiy gazning kislorodli konversiyasi, bunda olingan konvertor gaziga pechning markaziy qismidan kislorod puflash, bunda xam tiklovchi gazning xarorati 970 °C gacha yetkaziladi.

Kislorodning solishtirma sarfi 20 m³/t bo'lganda metallashtirish darajasi maksimumga yetkaziladi.

Birinchi xolatda (kislorodni tiklovchi gazga puflashda) pechning ishlab chiqarish unumdorligi 7 % ga, ikkinchi xolatda (tabiiy gazning kislorodli konversiyasida) 36–38 % ga oshadi. Tabiiy gaz sarfi mos ravishda 2 va 6 % kamayadi, maxsulotda uglerodning foiz tarkibi esa 2,2–2,5 % gacha oshadi.

3.11.2. Xill jarayoni

XiLL texnologiyasi shaxtali reaktorda 900 – 950 °C xarorat va 0,55 MPa_{abs} bosimda oksidlangan okatishlarni tiklovchi gaz bilan metallashtirish jarayonini o'z ichiga oladi. Issiq metallashgan okatish metallashganlik darajasi 92–94% sovutish zonasida 50°C gacha sovutiladi va pechdan chiqariladi.

Metallashgan okatishlarni sovutish yopiq konturda kompressor yordamida sirkulyatsion gazlar bilan sovutiladi. Bunda maxsulot tarkibidagi uglerod miqdorini boshqarib borish uchun sovutuvchi gazga tabiiy gaz qo'shish mumkin.

Metallashtirish ustanovkasining gaz oqimi sxemasi 2-chizmada keltirilgan.

Chizmaga muvofiq shaxtali pechdan chiqib ketuvchi chiqindi gazlar (yuqori gaz) (400 °C xarorat atrofida), rekuperator orqali o'tkazilib changlardan tozalanadi va skrubberda sovutiladi va ikkita oqimga bo'linadi:

-texnologik gaz (asosiy gazning 2/3 qismi), tiklovchi gaz sifatida sirkulyatsion siklda takroran foydalaniladi.

- yoqilg'i gazi, tabiiy gaz bilan aralashtirilgandan so'ng tiklovchi gazni qizdiruvchi isitishga beriladi.

Sovutilgan va changlardan tozalangan texnologik gaz kompresorlarda siqiladi va karbonat angidridni yuvish uchun absorberga tushadi. Yuvish metal-dietanolamina (MDEA) yordamida amalga oshiriladi. Aytish kerakki Xill jarayonida Midrex jarayonidan farqli o'laroq CO₂ konvertirlash agenti xisoblanmaydi va o'zini tiklanish jarayoni uchun ballast tutadi.

H₂O va CO₂ dan xoli bo'lgan gaz sovutilgan konvertor gazi bilan birgalikda rekuperatorga tushadi va gaz 900 - 950 °C gacha qizdirilib, reaktorga beriladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, XILL-III jarayonida konvertorlangan gaz tabiiy gazning parli konversiyasidan olinadi va bunda yuqori bosim va parning ortiqcha miqdori ko'p bo'ladi.

Konvertor gazini olish sxemasi, issiq konvertorlangan gazi issiqligidan foydalanib, xarorati 800 °C kotoyl utilizatorda par olishni nazarda tutadi.

Ozon suvi, qozon utilizatorga berishdan oldin issiqlik almash-tirgichdan o'tadi. Oxirgi yillarda jarayonni takomillashtirish uchun bir qancha takliflar bildirilmoqda, jumladan kisloroddan foydalanish va shaxtali reaktor (HILL Zr process) ning o'zida to'g'ridan to'g'ri tabiiy gazning anchagina qismini konversiyalash.

Bu texnologiya bo'yicha sovuq tiklovchi gazga tabiiy gaz purkaladi, bunda tabiiy gazning kislorodli konversiyasi sodir bo'ladi ($\text{CH}_4 + 0,5\text{O}_2 = \text{CO} + \text{H}_2$), hamda yangi tiklangan temir yuzasida self-reforming deb nomlanuvchi ($\text{CH}_4 = \text{C} + 2\text{H}_2$) tabiiy gazning konversiyasi sodir bo'ladi.

Bu texnologiyani yaratuvchilarning fikricha 50 nm³/t kislorod sarflanganda tabiiy gazning sarfini 8-10% ga kamaytirishga erishiladi va maxsulotda uglerodning miqdorini 4% gacha oshiriladi.

Ko'rib chiqilgan Midreks va XiL texnologiyalarining zamonaviy modifikatsiyalarida metallashgan okatishlarni shaxtali pechlardan sovutmas-dan chiqarib, issiq ko'rinishda elektropechlarga yuklash imkonini beradi.

Nazorat savollari:

1. Xill jarayoni va Midrex jarayonlarining farqli jixatlari nimada?
2. Tabiiy gaz konversiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Xill jarayoni va Midrex jarayonlarning sarf harajat ko'rsatgichlarini sanab bering?

3.14. Qattiq fazadagi kimyoviy reaksiyalar

Turli metallurgik jarayonlar uchun qattiq fazali reaksiyalar oxirgi vaqtlargacha haqiqiy baxolanmagan. Bularga qattiq oksidlarning oksidlanishi va tiklanishi, gidratlar va karbonatlarning parchlanishi, sulfidlarning oksidlanishi, bo'sh tog' jinslari va flyuslar orasidagi reaksiyalar va boshqalar kiradi.

Qattiq fazali kimyoviy reaksiyalar topoximik reaksiyalar sinfiga mansub bo'lib, dastlabki moddalar va maxsulotlar orasida xech bo'lmasa bitta qattiq modda ishtirok etadi. Topoximik reaksiyalarning umumiy xususiyati shunda namoyon bo'ladiki, bunda jarayon qattiq faza chegarasi yuzasida rivojlanadi. Reaksiyalarning borish tezligi deganda, moddaning vaqt davomida o'zgarishi tushuniladi:


$$\alpha = (N_0 - N) / N_0,$$

bu yerda N_0 va N -dastlabki va joriy modddalar miqdori.

Reaksiyaning tezligi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$v = d\alpha / dt$$

qattiq fazali reaksiyalarning zamonaviy termodinamik nazariyasi ko'plab uchraydigan quyidagi reaksiya misolida K.Vagner tomonidan taklif qilingan va G.Shmaltsridom tomonidan rivojlantirilgan:



Bu nazariyaning umumiy qonuniyatlari quyidagilardir:

1) Reaksiya tezligi qavatlar orasida hosil bo'luvchi maxsulot ionlari diffuziyasi bilan limitlanadi;

2) Reaksiyaning qavat maxsuloti kompaktili hisoblanadi va uning tarkibidagi turli massadagi defektlar (zarrachalar chegarasi, dislokatsiyalar) ionlarning harakatlanishiga ta'sir etmaydi;

3) Fazalar chegarasidagi reaksiyalar, maxsulot qavatlar orasidagi diffuziya jarayoniga nisbatan bir muncha tez boradi, shuning uchun fazalar chegarasida termodinamik muvozanat o'rnatiladi;

4) Alohida ionlar reaksiya qavatlarda bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda harakatlanadi.

Amaliy ishlar uchun qattiq fazali reaksiyalar haqida termodinamika bergan ma'lumotlar yetarlicha emas. Vaqt davomida reaksiyalar qanday boradi degan savolga kinetika javob beradi.

Kinetik tadqiqotlar odatda ikkita bosqichni o'z ichiga oladi:

1) Tezlikni eksperimental aniqlash yoki reaksiyalarni olib borish sharoitlari bilan bog'liq ravishda moddalarning o'zgarish darajasi va topilgan bog'liqlikning matematik ta'rifi;

2) Jarayonning kinetik parametrlarini baxolash va ularni sodir bo'luvchi jarayonning tabiati bilan bo'g'liq ravishda interpretatsiyalash.

Ta'kidlab o'tilganidek, metallurgiyada qattiq faza ishtiroki bilan boradigan kimyoviy reaksiyalar turlichadir.



misolidagi qattiq fazali reaksiyaning qonuniyatlariga to'xtalamiz. Bunday reaksiyalarga oksidli rudalar flyus va bo'sh tog' jinslari orasida boradigan reaksiyalar kiradi: Fe_2O_3 , Fe_3O_4 , FeO , CaO , Si_2O , MgO .

Metallurgik jarayonlar amaliyoti uchun, birlamchi maxsulot hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyalarning boshlang'ich asosiy ahamiyat kasb etadi. Metallurgik agregatlarda qattiq fazali reaksiyalar borishining asosiy xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi: birinchidan, qattiq faza elementlar zarrachalarining kichik o'lehamliligi, ikkinchidan, ularni qayta ishlashda o'zaro joylashuvining o'zgarmasligi. Shuning uchun fazalar yuzasi xarakterli xisoblanadi bu jismning boshlang'ich bosqichida qattiq komponentlar orasidagi reaksiyalar-ning tezlashishi bilan tushuntiriladi.

Bu vaqtda reaksiyaning borishiga nafaqat oksidlarning bir-biriga ta'siri, balki ularning joylashuvi, geometriyasi, zarrachalar orasidagi kontaktlar soni xam ta'sir qiladi. CaO , SiO_2 larning kimyoviy aktivligi Fe_2O_3 ning aktivligiga qaraganda ancha yuqori, shunga qaramasdan reaksiya ferit xosil bo'lishi bilan boradi. Bu CaO va Fe_2O_3 kontaktlar soni ko'p bo'lishi bilan boradi.

$CaO-FeO_2$ sistemada o'zaro ta'sirlashuv.

Oxirgi vaqtlarda bu va boshqa qator sistemalarni —eng sezgir tahlil usullaridan messbaurov spektrskopiya usulidan foydalanib tahlil qilingan. Dastlabki material na'munasi sifatida tarkibi

$\text{CaO} \cdot \text{Fe}_2\text{O}_3$ va $2\text{CaO} \cdot \text{Fe}_2\text{O}_3$ brikmasiga mos keluvchi aralashmadan foydalanilgan. Dastlabki shixtani yaxshilab aralashtirgandan so'ng, 49 MPa bosim ostida briketlashgan. Ferritlarni turli harorat-vaqt sharoitlarida oksidlovchi atmoferada sintez qilishgan.

Ta'sirlashishning birlamchi maxsuloti ikki kalsiyli ferrit hisoblanadi. Uning xosil bo'lishining boshlang'ich harorati $400^\circ\text{C} - 500^\circ\text{C}$ dan past haroratlarda CaO va Fe_3O_4 xosil bo'ladi.

Dastlab, CaO va Fe_3O_4 orasida qattiq fazada reaksiya oksidlovchi atmosferasiz bormaydi deb hisoblangan. Faqatgina, Messbader usulidan foydalanilganda reaksiya vakuumda boradi. O'zgaruvchan tarkibga ega bo'lgan $2(\text{Fe}, \text{Ca}) \text{O} \cdot \text{Fe}_2\text{O}_3$ turdagi yangi faza olingan.

$\text{MgO} - \text{Fe}_2\text{O}_3$ sistemasida o'zaro ta'sirlashuv.


Bunda ham o'zaro ta'sirlashuv Messbauerov spektroskopiya usulida taxlil qilingan. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dastlabki aralashmani turli haroratlarda kuydirish va sovutishga qaramasdan ferrit xosil qiluvchi kationlarning tarqalishi o'zgarmaydi.

Reksiyaning bog'lanishi 623 K da kuzatilgan. $\alpha - \text{Fe}_2\text{O}_3$ ning MgO bilan butkul yo'qotilishi 1273 K da kuzatilgan. Jarayon diffuzion hududlarda sodir bo'ladi.

$\text{NiO} - \text{Fe}_2\text{O}_3$ sistemasida o'zaro ta'sirlashuv.

Oxirgi yillarda metallashgan ligerlangan okatishlar olish muomosi ko'plab mutaxassislarning diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Shuning uchun temir oksidi bilan ligerlovchi elementlar orasidagi reaksiyalar katta qiziqishlar bilan o'rganilmoqda.

$\text{NiO} - \text{Fe}_2\text{O}_3$ sistemasi ham Messbauer usuli yordamida tadqiq qilingan. O'zaro ta'sirlashuvning boshlang'ich harorati 475°C ni tashkil etadi. Kinetik egri chiziqlar induksion davrga ega emas. Egri chiziqlarni past haroratli ($600^\circ\text{C} - 900^\circ\text{C}$) li va yuqori haroratli ferrit xosil bo'lishiga ajratish mumkin. Qattiq fazali reaksiyalar boshida Fe_2O_3 asosida nestexiometrik ferrit xosil bo'lishi bilan bosqichma bosqich boradi, keyinchalik quyidagi sxema bo'yicha stexiometrik ferrit xosil bo'ladi.



$$X=0$$

$$0 < x < 1$$

$$x=1$$

Diffuzion xududlar uchun aktivlash energiyasi kattaligi reaksiya maxsulotlarida Fe^{3+} va Ni^{2+} kationlarining diffuziyanishida katta rol o'ynaydi.

Nazorat savollari

1. Temirli qotishmalardagi temir qanday aniqlanadi?
2. Ishni bajarish tartibi qanday olib boriladi?
3. Ishni olib borishda temir qanday erituvchida eritiladi?
4. Qattiq fazali reaksiyalar deganda qanday reaksiyalar tushuniladi.
5. Qattiq fazali reaksiyalarning borish mexanizmlari.
6. Qattiq fazali reaksiyalarning temirni rudadan bevosita olish jarayonlaridagi ahamiyati.

1.15. Temirli qotishmalarda temirning miqdorini aniqlash

Temirni ajratib oluvchi sifatida toshko'mir va koksdan foydalaniladi. Pechga temirni ajratib oluvchini uzatish usuliga qarab jarayon 3 ga bo'linadi:

Tarkibida ko'mir bo'lgan okatishlangan temir rudasidan temir olish.

Bu usulda okatish tayyorlanish vaqtida temir rudasiga 15-20% qattiq temir ajratib oluvchi qo'shiladi va tayyor bo'lgan okatishlar 1200-1250°C haroratda 20-30 minut qizdiriladi. Okatish tarkibidagi uglerod yordamida temir ajralish jarayoni sodir bo'ladi, ajratib olinish darajasi 50-80% ni tashkil qiladi. Qizdirish uchun har xil pechlardan foydalaniladi: shaxtali, trubali va konveyerli.

Okatishlangan temir rudasiga maydalangan yoqilg'i qo'shib temir olish.

Ushbu usulda olingan okatish tarkibi quyidagicha:

Temir rudasi, dolomit yoki ohaktosh 0,8-3,0 mm. Dolomit va ohaktosh oltingugurtdan tozalash uchun qo'shiladi. Pech sifatida trubaquvrsimon pech ishlatiladi. Ushbu ketma-ketlikda agregatlar joylashuvi: qizdirish panjarasi – trubaquvrsimon pech – aylanib tu-

ruvchi trubasimon sovutgich. 1tonna uchun 350-600 kg qattiq yoqilg'i va 75-100 m³ tabiiy gaz sarflanadi.

Yurtimizda qizdirish panjarasi yuzasi 180 m³, trubaquvursimon pechning diametri 7 metr va uzunligi 92 metr, sovutgichining diametri 3,8 m va uzunligi 108 metrli agregatlar ketma-ketligi mavjud. Temirni ajratib olish darajasi (80-95%) ga teng bo'lgan ushbu agregat yig'indisi tajribalarni sanoat darajasida o'tkazish uchun qurilgan. Loyiha bo'yicha agregat 80% darajada temir ajratib olsa, ishlab chiqarish quvvati 2000 t/sutkaga yetadi. Agar 95% ga yetsa, ishlab chiqarish quvvati 2 barobarga tushadi. Ushbu usul oxirigacha o'rganib chiqilmagan.

Misol. 1650° haroratda nordonlikni yo'qotish jarayoni uchun suyuq temirdagi kislorodning muvozanat konsentratsiyasini hisoblash:

- a) 0,5; 1,0; 1,5% konsentratsiyalarda marganes bilan;
- b) 0,2; 0,5 i 1,0 % konsentratsiyalarda kremniy bilan;
- v) 0,05; 0,10 i 0,15% konsentratsiyalarda alyuminiy bilan.

Nordonlikni yo'qotish jarayonida MnO, SiO₂ va Al₂O₃ oksidlari hosil bo'ladi, bunda aktivlik 1 ga teng.

Kremniyning o'zaro ta'sirlashish parametri $S_{Si} = 0,11$.

Yechim. $K_{Mn(1923)} = 2,6 \cdot 10^{-2}$; $K_{Si(1923)} = 6,1 \cdot 10^{-5}$; $K_{Al(1923)} = 7,6 \cdot 10^{-14}$. tenglamalardan foydalanib, ma'lum haroratlarda K_{Mn} , K_{Si} va K_{Al} lar uchun reaksiyalarning muvozanat konstantalarini aniqlaymiz.

Nazorat savollari

1. Tarkibida ko'mir bo'lgan okatishlangan temir rudasidan temir olish haqida ma'lumot bering.

2. Okatishlangan temir rudasiga maydalangan yoqilg'i qo'shib temir olishning mohiyati.

3.16. Zarrachalarning kuyish jarayoni

Maydalangan temir tarkibli materiallarni termik qayta ishlashda kuyish jarayoni kuzatiladi. Agar kuyishga preslangan, kovak material berilsa, kuyish jarayoni aktivlashadi. Qaytmas jarayon hisoblanuvchi kuyish jarayonida zarrachalarning sirt energiyasi kamayishi kuzatiladi.

Ya.E.Gegudin kuyishda sodir bo'luvchi hamma jarayonlarni geometrik belgilari asosida uchta bosqichga bo'lishni taklif qilgan.

1) Boshlang'ich bosqichda zarrachalarning o'zaro yopishishi kuzatiladi. Zarrachalar orasida kontaktlar yuzasi ortadi, zarrachalar markazlari yaqinlashadi. Bu bosqichda zarrachalar o'zlarining mustaqil tuzilishini saqlab turadi, ya'ni ular orasidagi chegaralar saqlanib turadi.

2) Kuyishning ikkinchi bosqichida moddalar va bo'shliq orasida fazalarning tartibsiz aralashishi kuzatiladi.

3) Kuyishning uchinchi bosqichida asosan faqat yopiq kovaklar qoladi va materiallarning zichlashishi kovaklar hajmlari yig'indisining kamayishi bilan bog'liq.

Sanab o'tilgan bosqichlar aniq chegaralangan hisoblanmaydi, bundan tashqari ko'rsatilgan sxema xususiy jarayonlar – oksidlanish, tiklanish, suv bug'larini yo'qotish, dissosatsiya va boshqa jarayonlarni hisobga olmaydi.

Qizdirish jarayonida kristall zarrachalarning to'qnashishida zarrachalarning erkin energiyasi kam tomonga ko'chishi sodir bo'ladi, bu sistema energiyaning kamayishi tomonga harakatlanishi bilan tushuntiriladi.

Bunda moddalarni tashishning turli mexanizmlari kuzatiladi.

Barcha oqim mexanizmi. Hamma kristallik panjarada xar doim vakansiyalar mavjud bo'ladi, bu atomlarning almashinishga imkon yaratadi. Bunday almashinish atomlarning bir biriga bog'liq bo'lma-gan tarzda amalga oshadi. Buning natijasida suyuqlikning oqishiga analogik ravishda kristallarning oqishi sodir bo'ladi. Jarayonning tezligini aniqlovchi kattalik, yopishqoqlik η , diffuziya koeffitsienti D^* bilan bog'liq.

$$l:\eta = D^* \delta: kT,$$

Bu yerdav δ – kristall panjara davri.

Yopishqoq oqimda kontaktlar yuzasi ortadi, markazlari yaqinlashadi, ya'ni materiallarning cho'kishi sodir bo'ladi.

Parlanish-kondensatsiyalanish mexanizmi. Musbat radiusli krivizinali zarrachalar yuzasida bug'larning turg'unligi manfiy radiusga ega bo'lgan krivizinaga nisbatan xar doim yuqori bo'ladi. Bug'lar-

ning muvozanat bosimlari farqi ostida moddalar pufakchalar yuzasiga yopishadi.

Hajmiy diffuziya mexanizmi. Hajmiy diffuziya mexanizmi qachonki, ortiqcha vakantsiyalar shishgan yuzalarni xosil qilganda kuzatiladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, X radiusga ega bo'lgan kuyuvchi shishik orasida quyidagicha bog'liqlik kuzatiladi, bu bog'liqlik hamma mexanizmlar uchun mosdir.

$$X_n(\tau):am = A(T)\tau,$$

Bu yerda-sferik zarrachalarning radiusi; τ - vaqt; $A(T)$ - haroratga bog'liq funksiya.

Barcha oqim rejimi uchun $n=2$, $m=1$; parlanish kondensatsiyalanish mexanizmi uchun $n=3$, $m=1$; hajmiy diffuziya uchun $n=5$, $m=2$; yuza diffuziyasi uchun $n=7$, $m=3$.

Ta'riflab o'tilgan tashish mexanizmlar faqat qattiq fazali kuyishga ta'luqli hisoblanadi. Ko'pgina xollarda temir tarkibli materiallarni tiklovchi qayta ishlashda eritma xosil bo'ladi. Bunda moddani tashish uchun qo'shimcha imkoniyat paydo bo'lishini nazar'da tutish kerak.

Zarrachalarni qayta guruhlantirish. Zarrachalar orasidan o'tuvchi suyuqlik moylovchi vazifasini bajarib, tortilishni kamaytiradi va zarrachalarni bir biriga yopishtiradi.

Eritish-cho'ktirish. Bu mexanizmning ta'siri zarrachalarning kontakt joylarida suyuqlikning yuza tortilish kuchi ta'sirida qattiq fazaning mayda zarrachalari erituvchi va eritmada yirik zarrachalarning kristall anionini keltirib chiqaruvchi kappillyar bosim yuzaga kelganda seziladi.

Tiklovchi qayta ishlashda qattiq fazali kuvish.

Qattiq fazali kuyish temir tarkibli materiallarni tiklash jarayoniga ta'sir qiladi.

Temir tarkibli materiallarni tiklovchi termik qayta ishlashning bir qancha o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

a) komponentlar sonining ko'pligi (Fe, Si, Al, Ca, Mg oksidlari va boshqalar);

b) jarayon borish davomida xosil bo'luvchi gazlarning sezilarli miqdori;

v) oksidlovchi tiklovchi reaksiyalarning borishi;
g) qattiq fazali reaksiyalarning borishi (magnetit va kremnez-yom orasida, ohak va gematit orasida va boshqalar);

d) Bir qancha miqdorda o'zgaruvchan tarkibli va xususiyatli suyuq faza xosil bo'lishi mumkinligi.

Bu xususiyatlar kuyish qonunlaridan o'zgarishlarsiz foydalanish imkonini bermaydi.

Kuyish jarayonining birinchi bosqichida parallel ravishda solishtirma yuzaning kamayishi va kovaklar solishtirma yuzasining kamayishi kuzatiladi.

Shuning uchun qisqa vaqtli jarayonda kuyish jarayonining xarakterli ko'rsatgichi kovaklarning o'zgarishi hisoblanadi.

Qattiq fazali kuyish jarayonining kinetikasini quyidagi formula ifodalaydi.

$$\Delta L/L = kn \tau n,$$


Bu yerda L -na'munaning boshlang'ich chiziqli o'lchami; ΔL -chiziqli o'lchamning absolyut o'zgarishi; k - na'muna kuyishining tezlik konstantasi; n -massa ko'chishini ifodalovchi koeffitsient, ko'pgina hollarda $n < 1$.

k ning haroratga bog'liqlik tenglamasi:

$$k = k_0 \exp(-E/RT),$$

bu yerda T - kuyish harorati; E -kuyishning aktivlanish energiyasi; R -gaz doimiysi; k_0 -eksperiment oldi ko'paytmasi.

Shixtaga qo'shiladigan qo'shimchalar kuyish jarayoni kinetikasini bir qancha o'zgartirishi mumkin. Qaynar qatlamda tiklovchi kuydirish jarayonida xam zarrachalar nng kuyishi bir qancha qiyinlashadi. 3.14.1.-rasmda kuyish jarayoniga haroratning ta'siri tasvirlangan.



3.14.1.-rasm. Vaqt birligida kuyish jarayoniga haroratning ta'siri
(gematitli ruda, zarrachalar o'lchami 0,06-0,1mm).

Suyuq fazali kuyish jarayoni.

Bir qancha miqdorda suyuq fazaning xosil bo'lishi, kuyish jarayonini tezlashtiradi. Eritma temirli rudalar orasiga kirib va kovaklarni to'ldirib, zarrachalarni bir-biriga bog'lovchi kley vazifasini o'taydi, bu zarrachalarga yuqori energetik holatni egallashga imkon berdi.

Suyuq fazali kuyishning asosiy kriteriyasi bo'lib, yopishish konstanta tezligi hisoblanadi.

Kuyish jarayoniga bosimning ta'siri

Kuyish jarayoniga gazli sfera bosimi, asosan jarayon boshlanishida ta'sir ko'rsatadi.

Metallashtirish jarayonida metallning kuyishi

Kuyish metallashtirish jarayoni borishi va jarayon natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi: mustahkam metallik temir plyonkasi hosil bo'lishi oksidlarning tiklanish jarayoni tezligi va mexanizmini o'zgartiradi, metallashtirish maxsulotning oksidlanuvchanligiga ta'sir qiladi. Ba'zan metallik temirning kuyish jarayoni umumiy jarayon haroratini chegaralashi mumkin. Aynan shaxtali pechlarda jarayon haroratini okatishlarning kuyib, konglaerat hosil bo'lishi

chegaralaydi, bu esa texnologik jarayonning butkul xatoligiga olib keladi.

Nazorat savollari:

- 1) Zarrachalarning kuyish jarayonining oksid materiallarni tiklovchi qayta ishlashdagi ahamiyati?
- 2) Qattiq fazada kuyishni tushuntiring?
- 3) Suyuq fazada kuyishni tushuntiring?

3.17. Metallashgan materiallar oksidlanishining matematik modeli

Kovak temirning yonish va oksidlanish jarayonlarining yetarlicha tadqiqot qilinmagan. Birinchilardan bo'lib, jarayonning matematik modelini Edstrem g'oyasi asosida MISiS da Yu.S. Yusfin, V.R. Grebennikovlar tomonidan ishlab chiqilgan. Quyida oksidlanishning matematik modelini qurish asoslari keltirilgan.

Vazifani umumiy holda ko'rib chiqamiz. Kovaklar radiuslarining bir-biridan turli farqlanishini hisobga olgan holda, ularni shartli ravishda hamma kovaklarni i-miqdorga ajratamiz, bunda hamma guruhlar o'rtacha radiusi (r^0), umumiy kovaklik miqdori ζ_i va ochiq yuzasi S_i^0 .

Quyidagi tushunchalarni qabul qilamiz: oksidlanish jarayoniga tashqi diffuzion omillar ta'sir qilmaydi; oksidlanish reaksiyasi gomogen bo'lib, reaksiyaga kirishuvchi moddalar diffuziya orqali yetib boradi; hamma kovaklar slindrik formaga ega bo'lib, tashqi yuzaga chiqadi; oksidlanish kinetikasi parabolik belgi bilan belgilanadi.

$$\Delta m = k\sqrt{\tau},$$

Bu yerda Δm – massaning qo'shilishi; τ – vaqt; k – koeffitsient.

1-chi guruh kovaklari uchun material massasiga diffuziyaning tenglamasi quyidagicha ko'rinish oladi.

$$\frac{\partial c_i}{\partial \tau} = D^* \frac{\partial^2 c_i}{\partial x^2} + f^*(c_i),$$

Bu yerda $f^*(c_i)$ – reaksiyaning effektiv tezligi; c_i – material ichidagi reaksiyaga kirishuvchi moddaning konsentratsiyasi.

Tadqiqot qilinayotgan vaziyat uchun quyidagini qabul qilamiz.

$$D^* = D' \frac{4\pi R^2 \varepsilon}{k_1} \left(1 - \frac{k\sqrt{\tau}}{2\rho r_0} \right)^2;$$

$$D' = DD^{\text{KH}} \left(1 - \frac{k\sqrt{\tau}}{2\rho r_0} \right);$$

$$f^*(c_1) = \frac{k_1 \pi r_0 k}{\sqrt{\tau}} \left(1 - \frac{k\sqrt{\tau}}{2\rho r_0} \right);$$

Bu yerda D' – kislorodning diffuziya koeffisienti; D^{KH} – knudsenivskiy diffuziya koeffisienti; D – rekin diffuziya koeffisienti; r_0 – kovakning dastlabki radiusi; R – bo'lakchaning radiusi; k_1 – kovakning to'luvchanlik koeffisienti; ε – umumiy kovaklik; k – reaksiya-ning tezlik konstantasi; ρ – hosil bo'luvchi oksid zichligi.

Oksidlanish jarayonini, kovaklar guruhi uchun oksidlovchi diffuziyasi bilan lamitlanishini ko'rsatuvchi tenglama quyida keltirilgan.

$$Q_i = \sqrt{\frac{6D_i D_i^{\text{KH}} (c - c_p) \pi R \varepsilon c_i \beta k S_0^i}{k_1 m}} \times$$

$$\times \left\{ \frac{2\sqrt{(b - c\sqrt{\tau})\sqrt{\tau}}}{c} \left[\frac{1,5ab}{c} - 1 + \left(a - \frac{1,25a^2 b}{3c} \right) \sqrt{\tau} - \frac{a^2}{3} - \frac{5a^2 b^2}{8c^2} \right] + \right.$$


$$\left. + \frac{1}{\sqrt{c}} \left(\frac{2b}{c} - \frac{3ab^2}{c^2} + \frac{1,25a^2 b^3}{c^3} \right) \arcsin \sqrt{\tau} \sqrt{\frac{c}{b}} \right\};$$

$$Q_i = k S_0^i \left(\sqrt{\tau} - \frac{k\sqrt{\tau}}{2\rho r_0^i} \right);$$


Bu yerda Q_i – i-chi guruh kovaklarida hosil bo'luvchi oksid miqdori; β – 1 kg oksid diffuziyanishidagi oksid miqdori; c – gaz fazasidagi kislorodning miqdori; c_p – oksidlanish reaksiyasi borish sharoitlari uchun gaz fazasidagi kislorodning muvozanat konsentrat-siyasi;

$$a = \frac{k}{2\rho r_0^i}; \quad b = D_i + D_i^{\text{KH}}; \quad c = D_i^{\text{KH}} \frac{k}{2\rho r_0^i}.$$

$\varphi = a_i/R$ ni kiritamiz, bu yerda a_i – okatish yuzasidan ichki nuqtasigacha bo'lgan masofa, bu yerda $c = c_p$. $\varphi > 1$ bo'lganda jarayon (15.1.) formula bilan $\varphi < 1$ jarayon (3.15.2.) formula bilan ifodalanadi.



3.15.1.-rasm. Metallashgan okatishlarni modellashtirish (to'liq liniya - eksperiment, shtrixli liniya - hisobot).



3.15.2 – rasm. Metallashgan temirning oksidlanish jarayoniga haroratning ta'siri (model bo'yicha hisob). 1 – 500 °C; 2 - 600 °C; 3 - 400 °C; 4 - 700 °C; 5 - 800 °C.

Kovaklar o'lehamining keng diapozonlarda o'zgarishini hisobga olib, kovaklarni uchta guruxga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi: 1) $r_1 > r_c$, qachonki oksidlanish jarayoni kovaklarda gazning diffuziyasi bilan borsa; 2) $r_2 < r_c$, qachonki oksidlanish jarayoni faqat qattiq

fazadagi diffuziyaning bilan bors; 3) qachonki oksidlanish jarayoni ikkita diffuziyaning mexanizmi bilan ham limitlansa $r_3 \approx r_1$.

Nazorat savollari:

- 1) Jarayonlarning matematik modeli?
- 2) Metallashgan materiallarning qayta oksidlanishiga asosan qanday omillar ta'sir qiladi.

3.18. Temir tarkibli boyitmalarni qayta ishlash texnologik jaryonlari tasnifi. Metallashgan temir olishda midrex, hill jarayonlarining tasnifi.

XX-asrning 50- yillaridan boslab temirni rudadan bevosita olish texnologiyani yaratishga asos solina boshlandi.

Qora metallurgianing bu yo'nalishida AQSH, Avstraliya, Meksika, Kanada, Rossiya, Koreya, Italiya, Xitoy va Yaponiya metallurgiya sanoati amaliyoti e'tiborga loyiq.

Xozirga qadar temir rudalaridan metallashgan okatish olishning 70 dan ortiq usullari ma'lum bo'lib, ulardan sanoat ahamiyatiga ega bo'lganlariga quyidagilar misol bo'ladi:

-qaynar qatlamli pechining ishlash prinsipiga o'xshash dastgohda kukun va g'ovak holdagi metallashgan maxsulot olish texnologiyasi;

-truba aylanmali va minorali pechlarda xomashyoni tiklab metallashgan okatishlar olish texnologiyasi-Midrex jarayoni (AQSH)

-maxsus pechlarda(aglomerasion mashinaga o'xshash) cho'yan granularini olish texnologiyasi-HYL jarayoni (Meksika)


-ko'ptagli aylanuv pechlarda metallashgan granular olish texnologiyasi- Koke Steeli jarayoni (Yaponiya);

-suyuq vannada okatishlarni tiklash texnologiyasi-CoRex jarayoni (Avstraliya).

70-yillardan boshlab temir boyitmalarida metallashgan okatish ishlab chiqarish texnologiyalari bir qator mamlakatlar (AQSH, Meksika, Kanada, va Yaponiya) metallurgiya sanoatlarida kichik hajmdagi uskunalarda sinovdan o'tkazila boshlandi.

XXI-asr boshlarida ushbu texnologiyalar qora metallar ishlab chiqarishda sanoat miqyosida qo'llanila boshlandi. Ulardan eng keng qo'llanilayotgani – Midrex va HYL texnologiyalaridir.


Temirni rudadan bevosita olishning prinsipial texnologiyasi




3.18.1 Midrex jarayoni

Midreks jarayoni – bu shaxtali pechlarda xosil bo'luvchi tabiiy gazning konversiya maxsulotlari bilan temirni tiklash, bunda tashqaridan xech qanday oksidlovchilar (kislorod, suv bug'i) ta'sir ettirilmaydi.


Jarayondan tabiiy gazni oksidlanishi(yonishi) hisobiga tiklovchi gazlar CO va H_2 hosil bo'ladi,




Shaxtali pechida temirning oksidini tiklash jarayonida quyidagi kimyo reaksiya ifodalanadi.



Keyin esa, pechning reformalarida hosil bo'ladigan CO_2 va H_2O gazlar tabiiy gaz uglevodorodlarini H_2 va CO gacha oksidlaydi.



Bu jarayon bitta sikl davomida ko'plab marta takrorlanadi.



XiLL-III jarayoni-bunda tabiiy gazni suv bug'i ishtirokida konversiyasi, bunda tashqaridan beriladigan kislorod sifatida suv bug'lanishidan hosil bo'lgan kislorod beriladi,



Ko'pgina kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlaridagi kabi XiL-III jarayonida xam tabiiy gazning bug'li konversiyasidan keng foydalaniladi, reaksiya yuqori bosimda ($P=0,55$ MPa) o'tadi, Midrex jarayoniga ($P=0,2$ MPa) nisbatan uch baravar ortiqchaligi bilan boradi. Parli konversiyadan foydalanishda ikkita jiddiy texnologik yechimni xal etishni talab etadi;

XiLL-III jarayoni-bunda tabiiy gazni suv bug'i ishtirokida konversiyasi, bunda tashqaridan beriladigan kislorod sifatida suv bug'lanishidan hosil bo'lgan kislorod beriladi,



Ko'pgina kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlaridagi kabi XiL-III jarayonida xam tabiiy gazning bug'li konversiyasidan keng foydalaniladi, reaksiya yuqori bosimda ($P=0,55$ MPa) o'tadi, Midrex jarayoniga ($P=0,2$ MPa) nisbatan uch baravar ortiqchaligi bilan boradi. Parli konversiyadan foydalanishda ikkita jiddiy texnologik yechimni xal etishni talab etadi;

- shaxtali pech reaktoriga issiq konvertor gazini berishdan oldin ortiqcha parni yo'qotish maqsadida sovitish va gazni takroran pechga berishdan oldin yana uni qizdirish.

- tabiiy gazning konversiyalanishida ishtirok etmaydigan chiqindi gazlarni (koloshnikovoy gazlar) ni yo'qotish.

XiL-III jarayonida kovertor gazini takroran qizdirish, qizdiruvchi trubasiga $600-700^{\circ}\text{C}$ xarorat intervalida agressiv ta'sir ko'rsatadi. Qizdirilayotgan gaz trubasini himoyalash uchun va uning ishlash muddatini oshirish maqsadida qizdirilayotgan tiklovchi gazga oltingugurt tarkibli birikmalarni puflash talab etiladi. Shular bilan bog'liq holda bu jarayonda tabiiy gazning disulfurizatsiyalanishi Midreks jarayoniga qaraganda ancha yuqori.


3.18.2. Midrex va HYLL-III jarayonlarining texnologik sxemasi

Midrex texnologiyasi jarayonida tiklanish zonasida 900°C haroratda va $0,2$ MPa gacha bosimda olib boriladi. Xomaki okatishning metallashganlik darajasi $92-94\%$ ni tashkil etadi. Midrex pechning sovitish bo'limidan $40 - 60^{\circ}\text{C}$ gacha sovutiladi va pechdan chiqariladi.

Sxemaga muvofiq shaxtali pechdan chiqib ketuvchi chiqindi gazlar (koloshnikovoy gaz) changdan tozalash va sovitish uchun skrubberga beriladi va ikkita oqimga bo'linadi:

- texnologik gaz - reformerda tabiiy gazni konversiyalash uchun foydalaniladi.

- yoqilg'i gazi, kam miqdorda tabiiy gaz bilan aralashtirilgandan so'ng reformer bosh gorelkasiga beriladi.




3.16.1. rasm Midreks jarayonining prinsipial texnologik sxemasi

XiLL-III jarayoni reaktorida parli konversiya qo'llanilishi bilan bog'liq holda reaktorda vodorod miqdori uglerod oksidinikiga qaraganda 3.5 marta ko'proq bo'ladi.

Bu esa pechdagi haroratni yuqoriroq ushlab turishni talab etadi, (Midreks texnologiyasiga nisbatan 30-50 °C), chunki temir asosan vodorod bilan ko'p miqdorda issiqlik yutilishi bilan tiklanadi.

Tabiyy gaz sarfi ikkala jarayonda ham deyarli bir xil satxda.


XiLL -III jarayonida elektr energiyaga bo'lgan talab taxminan 2 marta kam, chunki bu jarayonda o'zining xususiy issiqlik energiya-sidan elektrenergiya ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.




3.16.2 - rasm XiLL-III jarayonining prinsipial sxemasi

Domnasiz metall ishlab chiqarish agregatlarida kam uglerodli va uglerodli metall olish mumkin. Bunda metalldagi uglerodning miqdori tiklovchi turi va jarayon haroratiga bog'liq. Toza temir 1539 °C da qaynaydi. Uni uglerodlantirilsa uning qaynash harorati pasayadi. Uglerod suyuq temirda, qattiq temirga nisbatan yaxshi eriydi. 1150 °S da qattik temirda 2% gacha uglerod eriydi. Suyuq temirda esa 5-6% gacha uglerod eriydi. Temirning uglerodlanish mexanizmi oxirigacha aniqlanmagan. Temirning uglerodlanishi, hali temirning qattiq holatida 450-600 °C haroratdan boshlanadi.



Uglerodlanishning kimyoviy reaksiyasini quyidagicha tasvirlash mumkin.



950°C dan yuqori haroratda temirning uglerodlanishida uglerod oksidi ishtirok etadi.



Oxirgi reaksiya ikkita bosqichda sodir bo'ladi.



Birgina harorat 900 °C dan yuqori bo'lganda temir karbidi vyustit bilan reaksiyaga kirishishi mumkin va metallik temir xosil bo'ladi.



Okatishlarni 1200 °C gacha va undan yuqori haroratlarda qizdirilsa uglerodlanish jarayoni kuchayadi.

Nazorat savollari:

1. Midrex jarayonini ta'riflab bering.
2. HYLL jarayonini ta'riflab bering.
3. Midrex va HYL L jarayonlarining texnologik sxemasini chizib ko'rsating.

3.19. Respublikamizda metallashgan okatish ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llanilishi

O'zbekistonda 200ga yaqin mayda va 3ta yirik temir ruda konlari topilgan. Ulardan sanoat ahamiyatiga ega bo'lganlariga Tebinbuloq

(Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasida), Temirkon (Dijx vil.) va Uchquloq(Toshkent vil., Bo'stonliq tumanida) konlaridir.

Konlarning sanoat quvvati va rudadagi asosiy komponentlar
Tebinbuloq koni quvvati - 4,5 mlrd. tonna.

Ruda titan—magnetitli. Asosiy komponentlarning o'rtacha miqdori; $Fe_{umum} - 16.2\%$, $TiO_2 - 2.0\%$ i $V_2O_5 - 0.15\%$.

Bundan tashqari ruda tarkibida kam miqdorda Pt, Au va Ag mavjudligi aniqlangan.

Rudani gravitatsion boyitish natijasida quyidagi tarkibli titan-magnetitli temir boyitmasi olingan; $Fe_{umum} - 63.8\%$, $TiO_2 - 7.6.0\%$ i $V_2O_5 - 0.6\%$.

Temirkon koni quvvati -150 mil. tonna. Ruda aralash, ya'ni oksidli va sulfidli bo'lib, unda asosiy komponentlarning o'rtacha miqdori; $Fe_{umum} - 34.14\%$, shu jumladan $Fe_3O_4 - 0.3 \div 17.8\%$, $S_{sulfid} - 0.6 \div 6.7\%$ i $P_2O_5 - 0.08 \div 0.3\%$.

Rudani boyitish natijasida tarkibida 33,25 – 40,01% Fe_{umum} bo'lgan temir boyitmasi olindi, shu jumladan;

– elektromagnit separatsiya okatish (qumoq), gravitatsiya boyitmasi $Fe_{umum} - 58.5 \div 65.1\%$;

– flotoboyitma $Fe_{umum} - 46.75 \div 51.48\%$ bo'lib, tarkibida quyidagi minerallar mavjud Fe_2O_3 — gematit, Fe_3O_4 —magnetit, FeS_2 —pirit. $CuFeS_2$ -xalkopirit, P_2O_5 – fosforit. Undan tashqari boyitma tarkibida Au va Ag mavjudligi aniqlangan.

Svurenota koni quvvati – 15 - 20 mil. tonna. Ruda tarkibida temir gematit va magnetit minerallari xolida kelgan.



3.17.1 –rasm. O‘zbekiston Respublikasida joylashgan temir konlarining joylashish xaritasi



3.17.2.-Rasm. Ochiq kon ishlari.



3.17.3.-rasm. Boyitish fabrikasida qayta ishlash.

Umumiy savollar.

1. Termodinamika qonunlarini bilasizmi?

2. Tiklovchi gazning bo'lakcha kovaklari orqali ularning yuzasiga diffuziyanishi?

3. Gazning tashqi diffuziyasi?

4. Fe-C qotishmasida grafitga nisbatan uglerodning aktivligi qanday aniqlangan?

5. Qotishmada C ning konsentratsiyalari qaysi qonunda sezilarli darajada og'ishini ko'rish mumkin?

6. Adsorbsiya nima?

7. Qattiq fazadagi jarayonlarga misollar keltiring.

8. Fazalar chegarasida qanday reaksiyalar oqib o'tadi?

9. Metall kurtaklari nima hisobiga xosil bo'ladi?

10. Tiklanish jarayonida bosim orttirilsa jarayon tezligi qanday o'zgaradi?

11. Haroratning ta'sirini aytib bering?

12. Tiklovchi gaz bosimi va konsentratsiyasi orttirilsa nima bo'ladi?

13. Granullangan cho'yaning sanoatdagi ahamiyatini gapirib bering?

14. Granulalangan cho'yan sifatiga ta'sir qiluvchi omillar?

15. Uglerod bilan to'yingan Fe eritmasidagi Mn ning miqdori qaysi formula orqali topiladi?

16. Uglerod bilan to'yingan suyuq temirdagi marganetsning aktivlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

17. Suyuq Fe uglerodning erish chegarasining harorat bilan bog'liqligi qaysi tenglamada ifodalanadi?

18. Metallni nima uchun uglerodlantirish zarur?

19. Uglerodning metal xossalriga ta'siri qanday?

20. Cho'yan va po'latda uglerodning foiz ulushlari qanday?

21. Nordonlik deganda nimani tushunasiz?

22. Suyuq temirdagi kislorodning muvozanat konsentratsiyalari qanday aniqlanadi?

23. Nordonsizlantirish deganda nimani tushunasiz?

24. Metallurgiyada qanday yoqilg'ilar qo'llanadi?

25. Yonish qaysi reaksiyalar orqali amalga oshiriladi?

26. Koksning yonish mahsulotlari tarkibi qanaqa?

27. Issiqlik almashuvining qanday turlarini bilasiz?

28. Qavatlarda issiqlik almashuvining qaysi turi kuzatiladi?
29. Metallashgan materiallar olishda xomashyo bo'lib qanday materiallar xizmat qiladi?
30. Metallashgan materiallar olishda xomashyolar qanday tayyorlanadi?
31. Okatishlarning kovakligining oshishiga ta'sir qiluvchi omillar qanday?
32. Xill jarayoni va Midrex jarayonlarining farqli jixatlari nima-da?
33. Tabiiy gaz konversiyasi deganda nimani tushunasiz?
34. Xill jarayoni va Midrex jarayonlarning sarf harajat ko'rsatgichlarini sanab bering?
35. Temirli qotishmalardagi temir qanday aniqlanadi?
36. Ishni bajarish tartibi qanday olib boriladi?
37. Ishni olib borishda temir qanday erituvchida eritiladi?
38. Qattiq fazali reaksiyalar deganda qanday reaksiyalar tushu-niladi.
39. Qattiq fazali reaksiyalarning borish mexanizmlari.
40. Qattiq fazali reaksiyalarning temirni rudadan bevosita olish jarayonlaridagi ahamiyati.

IV-BOB. PO‘LAT ISHLAB CHIQARISH

4.1. Po‘lat ishlab chiqarish uchun shixta materiallari.

4.1.1 Qayta ishlangan cho‘yan

Shixtaning metall qismini asosan qayta ishlangan cho‘yan, temir-po‘lat temir-tersagi va temir qotishmalari tashkil qiladi.

Marten, kislorod-konverter, ikki vannali po‘lat quyish agregatlarida po‘lat eritishda kimyoviy tarkibi GOST 805-80 talabiga javob beradigan cho‘yan ishlatiladi. Quyidagi jadvalda GOST 805-80 bo‘yicha kimyoviy tarkib keltirilgan.

Cho‘yan markasi	Si	Mn %			
		Cho‘yan guruhi			
		I	II	III	IV
111	0,5-0,9	0,5 gacha	0,51-1,0	1,01-1,5	-
112	0,5 gacha	0,5 gacha	0,51-1,0	1,01-1,5	-

Cho‘yan markasi	R, % dan past			S, % dan past				
	Cho‘yan sinfi			Cho‘yan toifasi				
	A	B	V	I	II	III	IV	V
111	0,1	0,2	0,3	0,01	0,02	0,03	0,04	0,05
112	0,1	0,2	0,3	0,01	0,02	0,03	0,04	0,05

Cho‘yan markirovkasida uning kimyoviy tarkibi shifrlangan. Masalan, “Cho‘yan 112 I guruh, B sinfi, II toifasi” metallda $\leq 0,5\%$ Si; $\leq 0,5\%$ Mn; $0,2\%$ P, $0,2\%$ S borligini bildiradi. Guruhdagi uglerodning tarkibi Si, Mn, R va boshqa aralashmalarning konsentratsiyasiga bog‘liq va u GOST bilan belgilanmaydi. Odatda qayta quyilgan po‘latda $4,0 - 4,3\%$ gacha uglerod bo‘ladi.

Ishlab bo‘lingan cho‘yandagi kremniy marten jarayoni uchun zararli element hisoblanadi. Chunki u oksidlanganda kislotali oksid SiO_2 hosil qiladi. SiO_2 ni asosiy jarayonda ohaktoshni ko‘p miqdorda sarflanishi neytrallashni talab qiladi. Bunda eritish agregatidagi shlakning miqdori oshadi. Har 100 tonna cho‘yanga $0,1\%$ oksidlangan kremniy va shlaklanishda asosiy marten pechida 1,3 tonna shlak

hosil bo'ladi. Tarkibida $<0,5\%$ kremniy bo'lgan cho'yan kimyoviy sovuq, $>0,8\%$ kremniy kimyoviy issiq hisoblanadi. Ishlab bo'lingan cho'yanda marganets ($0,15-0,4\%$) po'latni marten pechida ishlab chiqarishni cheklab qo'yadi.

Bundan tashqari tarkibida marganets bo'lgan ma'danlarni asosan marganets kam bo'lgan cho'yan ($0,2-0,4\%$ marganets) eritishda ishlatiladi.

Cho'yan tarkibidagi fosfor $0,1$ dan $0,3\%$ gacha bo'lishi mumkin. Ushbu ko'rsatilgan oraliqdagi fosforni po'lat quyishda osonlik bilan chiqarib tashlash mumkin. Cho'yan tarkibidagi fosforning ko'payishi qo'shimcha ohaktosh ishlatishni talab qiladi va buning natijasida agregatlarning ishlab chiqarish unumdorligi kamayadi. Natijada jarayon iqtisodiy jihatdan zarar ko'radi. Fosforli cho'yan tarkibida $1,0-2,2\%$ gacha (marten, konverterda ishlangan) fosfor bo'lishi mumkin.



Cho'yandagi oltingugurt ishlab chiqarish korxonalari standartlariga (ICHKS) mos kelishi kerak. Oltingugurtning ko'pligi eritish vaqtining uzayishiga olib keladi. Tarkibida kam miqdorda oltingugurt bo'lgan cho'yandan po'lat quyish iqtisodiy jihatdan qoplanmaydi.

Ba'zi zavodlarning cho'yanlari tarkibidagi Cu, Ni, As lar po'lat quyish jarayonida metallardan ajralib chiqmaydi. Bunday cho'yanlar tabiiy minerallashgan cho'yan deyiladi. Bunday cho'yanlarni po'lat quyish agregatlarida qayta ishlashda tayyor metallarda ushbu elementlarning saqlanib qolish maqsadga muvofiqdir.


S va P ni, ba'zida chiqarib tashlash uchun cho'yanni domnadan tashqari tayyorlash kerak bo'ladi.

Si ni yo'qotish uchun qattiq yoki gazsimon oksidlovchilarni qo'shish bilan amalga oshiriladi. Birinchi holatda Kovshga domna pechidan cho'yanni chiqarish vaqtida cho'yan massasining 3-4 % miqdorida yanchilgan ruda yoki okalina qo'shiladi. Bunda kremniyning tarkibi 50-60 % gacha, Cho'yanning harorati esa 30-60 °S gacha kamayadi. Ikkinchi holatda esa mikser yordamida kislorod purkaladi. 50-60 % Si va 25-50 % gacha Mn yo'qotiladi. Cho'yanning harorati 80-100 °C gacha ko'tariladi.

Cho'yanni desulfurati sifatida S ga o'ta yaqin bo'lgan moddalar qo'llaniladi. Keng tarqalgan desulfurat – bu natriy karbonat (soda)dir. Soda bilan desulfuratlash jarayoni cho'yandagi uglerod ishtirokida sodir bo'ladi. Termodinamik jihatdan Na₂O bilan chuqurroq desulfuratsiya bo'lishi mumkin. Ammo natriy oksidi mustahkam bo'lmaganligi uchun 1300 °C da S ni yo'qotish 40-60 % dan oshmaydi.

Cho'yan desulfuratsiyasi uchun kukunsimon ohak kalsiy karbid CaC₂ va magniy metali qo'llaniladi. Ohak yuqori sifatli bo'lishi kerak. Kuydirilganda yo'qotilish 7 % dan oshmasligi kerak. 0,15 mm gacha maydalangan tarkibida 90-95 % fraksiyasi bo'lgan kukunsimon ohak metalga siqilgan havoning sarfi 1 kg ohakga 0,005 m³ ni tashkil qiladi. Desulfuratsiya darajasi bu holatda 40-45 % ni, azot purkalganda esa 65 % ni tashkil qiladi.

Havo kislorodi oksidlovchi muhit hosil qilgan holda desulfuratsiya effektini kamaytiradi. Kalsiy karbid juda ham yaxshi desulfuratoridir. Desulfuratsiya quyidagi reaksiya orqali o'qib o'tadi.



Kalsiy karbid reaksiya zonasiga uglerodni kiritadi. Bu desulfuratsiya jarayonini chuqurlashishiga va tiklanish atmosferasi (muhit)ni yaratishga imkon beradi. Kalsiy karbidni purkash uchun faqatgina neytral oksidsiz gazlar ishlatiladi, masalan azot. Ishlab

chiqarishda chushka, granula yoki inert material (koks, dolamit), shlaklidagi magniy bilan desulfuratsiya usuli qo'llaniladi. Ushbu holatda temirda erimaydigan mustahkam magniy sulfid MgS hosil bo'ladi.

Po'lat temir tersagi

Po'lat quyish ishlab chiqarish uchun po'lat va oz miqdorda cho'yan temir tersaklarni ishlatiladi.

Aylanma temir tersak -metallurgik ishlab chiqarishning prokat va ishlov berish, hamda eritish jarayonida hosil bo'luvchi chiqindilari-dir.

Korxonalarda aylanma temir tersak miqdori yaroqli quymalar massasining 10 dan 35 % oralig'ida o'zgarib turadi.

Chetdan keladigan temir tersak ham xo'jaligi (ishlab chiqarish, transport, qishloq xo'jaligi) va maishiy texnikaning amartizatsion temir tersagidan hosil bo'ladi. Cho'yan temir tersagi – domna va cho'yan quyuvchi sex chiqindilari, hamda yaroqsiz holga kelgan almashtiriluvchi jihozdan iboratdir.

Bo'laklar o'lchami va ularning uyumdagi massasi metall temir tersagi zichligi bo'yicha katta nisbiy yuzaga ega bo'lgan yengil massali va og'ir massali temir tersakga bo'linadi.

Eritish jarayoniga ta'siri bo'yicha metallomdagi ugleroddan boshqa barcha elementlar shartli ravishda to'rtta guruhga bo'linadi. 1-guruhga tez oksidlanuvchi va birinchi bo'lib shlakga o'tuvchi Si, Ti, Zr, B,V kiradi. 2-guruhga metallardan to'liq chiqib ketmaydigan elementlar P, S, Cr kiradi. 3-guruhga esa metallardan mutlaqo chiqib ketmaydigan Cu, Ni, Sb, Mo kiradi. 4-guruhni parlanish harorati po'lat quyish jarayoni haroratidan past bo'lgan va shuning uchun par ko'rinishida chiqib ketadigan elementlar Zn, Cd, Bi kiradi. Keyinchalik bu guruhdagi elementlar regenerirator nasadkalari trubalarda cho'kib qoladi. Bu pechning issiqlik ishini qiyinlashtiradi. Asosiy o'rinni qo'rg'oshin egallaydi.

Qo'rg'oshin erish harorati past va yuqori zichlikga ega. Pech tubida to'planib uni sekin-asta yemira boshlaydi.

Kimyoviy tarkibi, miqdori va tashqi o'lchamiga binoan temir-tersak 2 turga bo'linadi: po'lat va cho'yan, 2 ta kategoriyaga: A –

uglerodli, B- legirlangan, 67 ta guruh – legirlovchi elementlarning tarkibiga ko'ra va 28 tur – sifat ko'rsatgichi bo'yicha.

Po'lat quyish agregatiga yuklashdan oldin temir-tersak odatda maxsus ikkilamchi chora metall zavodlarida tayyorgarlikdan o'tadi. Temir- tersak rangli metall bo'laklari portlovchi predmetlar, hamda suv bilan to'ldirilgan predmetlardan tozalanadi. Olovli keskich, press-qaychi, tegirmon yordamida temir-tersak birlamchi maydalanadi. Maydalangan temir-tersak rangli metall va plastmassalardan tozalash uchun magnit seperatordan o'tqaziladi. So'ngra mexanik yoki gidravlik presslarda paketlanadi.

Ferroqotishmalar

Kerakli kimyoviy tarkibli metall olish va kerakli xususiyatni ta'minlash maqsadida po'latni O_2 sizlantirish va legirlash uchun vanna, kovsh yoki qolipga turli metallar (odatda temirli qotishma ko'rinishidagi ferroqotishma) kiritiladi. Ferroqotishmalar maxsus elektro'choq. ferroqotishmalar o'chog'i yoki o'choqdan tashqarida metallotermik jarayonlarda quyiladi. Ular legirlovchi elementlar bilan boyitilgan bo'lishi kerak. Ortiqcha miqdorda S va qo'shimcha elementlar, po'lat uchun kerakmas bo'lgan (S, P, As, Pb va boshqalar) elementlar bo'lmasligi kerak. Ferroqotishmalar bo'laklari tegishli o'lchamga va zichlikka ega bo'lishi kerak. Kovsh yoki vannaga kiritilganda shlak qavatidan tez o'tib va metall bilan o'zaro ta'sirlanishi uchun. Ferroqotishmalar markirovkalari ularning turi va undagi asosiy element, ba'zida S ning tarkibini bildiradi. Quyidagi ferrosplavlar keng tarqalgan:

Ferromarganets – temir va marganets qotishmasi. Marganets – eng keng tarqalgan legirlovchi element. Ferromarganets bilan po'lat oksidsizlantiriladi va kovshda ham, pechda ham legirlaydi. Ferromarganets bo'laklari 100 mm gacha bo'ladi.

Ferrosilitsiy – Fe ni Si bilan qotishmasi. Marten pechlarida metallni oksidsizlantirishda qo'llaniladi.

Silikomarganets – kompleks O_2 sizlantiruvchi. Kovshdagi tinch po'latni legirlash va O_2 sizlantirish uchun.

Ferrotitan – kislorodsizlantirish, legirlash va po‘latni modifikatsiyalash uchun qo‘llaniladi.

Ferroxrom, ferrovanadiy, ferromolibden, ferrovolftram, ferroniobiy, ferrobor faqatgina po‘latni legirlash uchun ishlatiladi. Ushbu qotishmalarning sifat ko‘rsatkichlari ularning tarkibidagi legirlovchi element va qo‘shimchalarga bog‘liqdir.

Ferrosfor – avtomat po‘lat quyishda ishlatiladi va kovshiga beriladi. Uning tarkibi, %: R-14-18, Si 2,2 gacha, Mn-6, C-1,2.

Metall kislorodsizlantiruvchilardan Al, Cu, Ni ishlatiladi. Ni legirlovchi qo‘shimcha sifatida ham ishlatiladi. Ishlanayotgan metall yuzasini yaxshilash maqsadida qolipga diametri 0,5-1,0 mm bo‘lgan qo‘rg‘oshin qirqimlari qo‘shiladi.

Kompleks kisloroddan tozalovchilar bilan kisloroddan tozalan-ganda ko‘p miqdordagi qo‘shimchalar bilan birga ko‘p komponentli birikmalar hosil bo‘ladi. Bu birikmalar po‘latdan tez va oson chiqib ketadi.

4.1.2. Metallmas shixta materiallari. Qattiq oksidlovchilar.

Qattiq oksidlovchilar – bu tabiiy materiallar bo‘lib, tarkibidagi kislorod temir oksidi ko‘rinishida bo‘ladi. Bu oksidlarning kislorodi po‘lat quyish jarayoni haroratida metallik shixta qo‘shimchalarini oksidlashga sarflanadi. Masalan: S, Si, Mn va hakazo. Tiklangan temir metall vannasiga o‘tadi. Qattiq oksidlovchi sifatida temir rudasi, aglomerat, qumoqlar, temir kuyindisi.

Temir rudasi – Marten jarayonidagi eritishga va toblashda beriladi; konverter jarayonida qo‘shimcha oksidlovchi, shlak hosil bo‘lish jarayonini tezlatish uchun sovutuvchi sifatida qo‘llaniladi. Temir rudasi quyidagi talablarga javob berishi kerak: temir oksidlarining ko‘p miqdorda bo‘lishi va oz miqdorda bo‘sh mineral-lar va zararli qo‘shimchalar (6-8% SiO₂, 0,2-0,3 % P, 0,05 % S) bo‘lishi kerak. Bo‘laklar o‘lchami 40-150 mm (mayda bo‘laklar minimal miqdorda va chang umuman bo‘lmasligi kerak).

Rudaning mayda bo‘laklari va chang pechga yuklanayotgan vaqtda qisman gazlar bilan birgalikda chiqib ketadi, mayda bo‘lak-

larning bir qismi esa shlakda qolib ketadi. Namlik 5 % dan yuqori bo'lmashligi kerak.

Boy temirga 21-sinf rudasi kamdan-kam uchraydi. MDX da temir rudalari zaxiralari Uralda, Krivoyrog basseynida, Shimoliy Sibirda joylashgan. Bu rudalar zaxiralarining cheklanganligi tufayli po'lat quyish ishlab chiqarishda tarkibida kremnezem va mayda bo'laklar ko'p bo'lgan 22-sinf rudasi ishlatiladi.

Temir kuyindilar – temir kuyindisining asosiy qismi Fe_2O_3 dan iborat. Kuyindining kimyoviy tarkibi quyidagicha, % Fe_2O_3 -96 %; SiO_2 -1,0-1,25; Mn-1,0; R-0,04; S-0,02. Shlakda eriydigan kuyindi shlakda temir oksidlarini tarkibini va uning oksidlovchi xususiyatini oshiradi, ohakning erishini tezlashtiradi. Kuyindining oksidlovchi effekti ruda bo'lagiga qaraganda kam, chunki uning mayda bo'lakchalari shlakda eriydi.

Aglomerat – 21 va 2 sinfdagi ruda tanqisligi tufayli qattiq oksidlovchi sifatida ishlatiladi. Agglomerat mayda ruda yoki temir ruda boyitmasini aglofabrikadagi konveyer mashinalarida ko'machlash orqali olinadi. Agglomeratning xususiyatlariga quyidagilar kiradi: namlikning yo'qligi va temir rudasining erish harorati (1430-1520 °S) ga nisbatan erish harorati (1205 °S) ning pastligi. Buning oqibatida shlak hosil bo'lish tezlashadi. Agglomeratning kamchiliklari oksidlovchi potensialining pastligi va kam mustahkamligidadir. Agglomeratni eritish davridagi sarfi 2800-3300 kg/m³, ruda esa 4700-4900 kg/m³ ni tashkil qiladi. Agglomeratning taxminiy kimyoviy tarkibi quyidagicha, %: Fe_2O_3 62-69, FeO 10-19, SiO_2 6,6-7,6, CaO 3,8 -9,7, P 0,034-0,15, S 0,035-0,047. Qumoq (okatish) lar rudadan keyingi effekti yuqori bo'lgan oksidlovchi. U mayda yanchilgan temir ruda boyitmalarini maxsus uskuna-granulatorlarda qumqlash natijasida hosil bo'ladi. Ularning yirikligi 10-17 mm ga teng.

Shlak hosil qiluvchilar

Shlak hosil qiluvchilar –bu metallmas materiallardir. Ular shlakni hosil bo'lish va uning kimyoviy tarkibini tartibga soluvchi: ohaktosh, ohak, asosli agregatlarda nordon oksidlarni neytrallovchilar, oksidli agregatlarda - kvarsitlardir.

Oxaktosh- tarkibida 98% gacha CaCO_3 bo'lgan mineral. Zararli qo'shimchalari S va SiO_2 . Ohaktoshda S 0,05-0,08 % gacha cheklangan, $\text{SiO}_2 \leq 1,0\%$, Mg 1-2 %. Ohaktosh 40-190 mm li bo'laklarda ishlatiladi. Ohak oxaktoshni shaxtali pechlarda kuydirganda hosil bo'ladi. Ohaktoshni kuydirishda odatda yoqilg'i sifatida koksdan foydalaniladi. Boshqa holatlarda gazsimon yoqilg'ilar ishlatiladi. Eng yaxshi natijalar ohaktoshni 1200-1300 °C haroratda kuydirilganda olinadi. Yuqori haroratlarda ohak past reaksiyon xususiyatga ega bo'ladi, u shlakda sekin eriydi. Me'yorida kuydirilgan ohakning tarkibi quyidagicha bo'ladi, %: SaO 92-97,8; SiO_2 0,36-1,5; $\text{Al}_2\text{O}_3 + \text{Fe}_2\text{O}_3$ 0,33-0,64; SO_2 0,91-2,59; bo'laklar o'lchami 40-50 mm, so'ndirilish vaqtidagi reaksiyon xususiyati 5-10 min, g'ovaklik darajasining yig'indisi 41-42 %, atom massasi 1,6-1,8 g/sm³ ga teng.

Po'lat ishlab chiqarishda faqatgina yangi kuydirilgan ohak ishlatiladi. Ohak saqlanganda zudlik bilan namlikni o'ziga tortib kalsiy gidrooksid Sa(OH)_2 hosil qiladi. Bunday birikma tez kukunga aylanib ketadi. Bunday ohakni ishlatish mumkin emas, chunki uning ko'p miqdori pechning ishchi hajmidan chiqib ketadi va vaqtdan oldin regeneratrlar nasadkalari tiqilib qoladi. Bundan tashqari, ohak bilan pechga kirgan namlik po'lat quyish jarayonidagi issiqlik natijasida O_2 va H_2 ga parchalanib ketadi. Bu holatda po'lat bilan to'yinadi.

Metallurgik ohak. Marten va elektrda po'lat quyish jarayonida qo'llaniladigan metallurgik ohak quyidagi kimyoviy tarkibga ega, %: $\text{SaO} + \text{MgO}$ 91; SiO_2 2; $\text{MgO} \leq 8$; $\text{S} \leq 0,09$; R_2O_3 2,8; $\text{P} \leq 0,1$; qizdirilgan davridagi yo'qotish (q.d.y.) $\leq 5\%$. Bo'laklar o'lchami 20-60 mm bo'lishi kerak.

Flyuslar

Eritish jarayoni haroratini va shlaklarning qovushqoqligini kamaytiruvchi materiallar- flyusdir.

Flyuslarga boksit, plavik shpati, shamot siniqlari kiradi.


Boksit - tarkibida asosan glinozem, kremnezem va temir oksidlari bo'lgan mineraldir. Boksitning suyultiruvchi xususiyati shlakdagi

SaO va boksitdagi Al_2O_3 orasida tez eriydigan birikmalar hosil qilishi bilan bog'liqdir.

Boksit - 6 markali rudaning kimyoviy tarkibi quyidagicha, %: $\leq 37\text{Al}_2\text{O}_3$; $\text{Al}_2\text{O}_3/\text{SiO}_2 \leq 2,1$; $\text{S} \leq 0,2$; $\text{P} \leq 0,6$; boksitdagi boshqa qo'shimchalarning tarkibi (loy, ohaktosh, tuproq va boshqalar) 1 % dan oshmasligi kerak. Boksitning eng katta kamchiligi undagi yuqori (7-22%) namlikdir. Shuning uchun eritish vannasiga solishdan oldin uni yaxshilab quritish kerak. Nam boksit po'lat eritishda vodorod manbaidir.

Plavik shpati (flyurit) - tarkibida 20-97% CaF_2 bo'lgan mineraldir. Flyuritning tarkibida SiO_2 -5,9 %, S, P $\leq$ 0,3% bor.

Plavik shpati tabiatda kam uchraydigan (defitsit, tanqis) material bo'lib, uni qo'llanilishi chegaralangan. Plavik shpati-shlakni yaxshi suyultiradi, asosan yuqori sifatli po'latlarni elektrda po'lat olish va konvertorda po'lat ishlab chiqarishda ishlatiladi. Plavik shpati suyultirish xususiyatlarining o'ziga xosligi – uning qisqa vaqt ichida suyultirishdadir, suv bug'lari ta'sirida quyidagi reaksiya orqali parchalanadi:



Shamot siniqlari – tarkibida 35-40 % gacha Al_2O_3 bor, qolgani SiO_2 . Uning suyultirish xususiyati boksitga juda ham o'xshash. Shamot siniqlarining kamchiliklaridan biri tarkibida SiO_2 ning ko'pligi. Bu shlakning asoslilikini kamaytiradi. Afzalligi esa – arzonligidadir. Chunki bu ishlab chiqarish chiqindilaridan hosil bo'ladi. Shamot siniqlari marten va elektrda po'lat eritishda flyus sifatida ishlatiladi.

Nazorat savollari:

1. Qayta ishlangan cho'yan haqida qanday tushunchaga egasiz.
2. Po'lat temir tersagi haqida ma'lumot bering.
3. Ferroqotishmalar.
4. Metallmas shixta materiallari. Qattiq oksidlovchilar.
5. Shlak hosil qiluvchilar.

4.2. Po'lat quyish jarayonlarining termodinamikasi.

Reja:

1. Shlaklarning fizik-kimyoviy xususiyatlari

2. Po'lat quyishda hosil bo'lgan asosli va nordonshlaklar va ularning xarakterli xususiyati.

Kimyoviy termodinamikaning asosiy tushunchalaridan biri-termodinamik sistema tushunchasidir. Sistema-bu xaqiqatdan yoki hayolan tashqi muhitdan ajratilgan modda yoki moddalar guruhidir. Quyidagi sistemalar farqlanadi:

-izolyasiyalangan (tashqi muhitdan ajratilgan) – sistema modda bilan xam, energiya bilan xam tashqi muhit bilan almashilmaydi;

-yopiq – sistema tashqi muhit bilan faqat energiya almashadi, ammo modda almashmaydi;

-ochiq – sistema tashqi muhit bilan modda va energiya almashadi.

Sistema o'ziga xos fizik-kimyoviy xususiyati bilan xarakterlanadi: bosim, energiya harorati, moddaning mol miqdori. Sistemani xolatini xarakterlovchi bu xususiyatlar sistema **parametriari** deyiladi va pirometallurgiya jarayonlari nazariyasi kursida mukammal ko'rib chiqilgan.

Sitemaning xolati yana fazalar soni va komponentlari (gomogen va geterogen sistemalar) bilan ham xarakterlanadi.

Agar termodinamik parametrlar vaqt o'tishi bilan o'z-o'zidan o'zgarmasa va xar bir faza chegarasida bir xil qiymatga ega bo'lsa, bu xolat muvozanat hisoblanadi.

Kimyoviy reaksiyalar issiqlik chiqishi yoki yutilishi bilan boradi. Issiqlik ajralib chiqadigan reaksiyalar ekzotermik reaksiyalar, issiqlik yutilishi bilan boradigan reaksiyalar esa endotermik reaksiyalar deyiladi. Belgilangan sharoitlarda boradigan fizik-kimyoviy jarayonlarning issiqlik effekti jarayonning borishiga bog'liq emas, faqatgina sistemaning boshlang'ich va yakuniy xolatiga bog'liq. Bosim yoki hajm jarayonning boshidan oxirigacha o'zgarmas bo'lib qoladi (Gess qonuni).

Demak, uglerodning kislorodda yonishi natijasida to'g'ridan to'g'ri uglerod dioksidi SO_2 olish mumkin yoki avvalo uglerod

monooksidi SO olib, so'ng uni yondirib uglerod dioksidi SO₂ olish mumkin bo'ladi.

Birinchi usul: $S + O_2 = SO_2$;	$\Delta N^0_{298} = -393120 \text{ kDj/mol}$
Ikkinchi usul: $S + 1/2O_2 = SO$;	$\Delta N^0_{298} = -110435 \text{ kDj/mol}$
$S + O_2 = SO_2$;	$\Delta N^0_{298} = -282685 \text{ kDj/mol}$
Jami	-393120 kDj/mol

4.2.1. Po'lat quyishda hosil bo'ladigan shlaklarning asosiy xususiyatlari va komponentlari.

Po'lat quyish jarayonida shlak muhim ahamiyatga ega. To'g'ri tanlangan shlak rejimi po'lat quyish agregatlarining yuqori ishlab chiqarish unumdorligini va kerakli miqdorda po'lat olishni ta'minlaydi.

Po'lat quyishda hosil bo'lgan shlaklarning asosiy komponentlari metallik shixtaning elementlarini oksidlanishidan hosil bo'lgan SiO, Mn, Cr, Fe, P va boshqalar, hamda po'lat quyish agregatlariga ohak, ohaktosh, temir rudasi, aglomerat, boksit, magniy va xrom oksidlari bilan birgalikda kelib tushadigan Ca, Si, Fe, Al oksidlari; issiqqa chidamli qoplamalarning yemirilish natijasida va asosli po'lat quyish agregatlarning tubining erishi, hamda nordon pechlardagi kremnezemlardir. Bu birikmalar o'zaro ta'sirlanib silikatlar, alyumosilikatlar, shpinellar, fosfatlar hosil qiladi. Shlakda metall sulfidlari ham mavjud. Silikatlar va alyumosilikatlar minerallarning umumiy yig'indisining 70%, shpinellar -15%, ozod oksidlar va turli minerallar -15% ni tashkil qiladi.

Shlaklarning tarkibida eritish davrida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Asosli marten pechlarida po'lat eritish vaqtida eritish davrining boshlanishida shlakda Si, Mn, Fe larning yuqori konsentratsiyasi kuzatiladi. Eritish davrining oxiriga kelib kalsiy oksidining konsentratsiyasi ortib ketadi.

Pechga temir rudasi va ohak kiritilgandan keyingi eritishni me'yoriga etkazish davrida shlakning tarkibi sezilarli darajada o'zgaradi. Pechning tubi va yonbog'ining yemirilishi natijasida magniy oksidining konsentratsiyasi ko'tariladi.

Po'lat quyishda hosil bo'lgan shlaklarning asosiligi uning muhim texnologik xarakteristikasi hisoblanadi. Uni $(\text{CaO}/\text{SiO}_2)$ nisbat yoki $(\text{CaO})/(\text{SiO}_2+\text{P}_2\text{O}_5)$ nisbati orqali aniqlanadi. Keyingi nisbat orqali tarkibida ko'p miqdorda (1,4-1,6%) fosfor bo'lgan cho'yan va yuqori miqdorda (1,4-1,6%) P_2O_5 bo'lgan shlak aniqlanadi.

Po'lat quyishda hosil bo'lgan shlaklarning asosiy oksidlari bu CaO , SiO_2 va FeO lardir. Ularning birinchisi asosli shlaklarning xususiyatlarini aniqlaydi, ikkinchisi- nordon, uchinchisi-shlaklarning oksidlovchi xususiyatini belgilaydi. Nordon shlaklarda 55-60% gacha SiO_2 , asoslilik birdan kam. Asosli shlaklarda SiO_2 15-30% gacha, SaO -45-50% gacha, asoslilik $(\text{CaO}/\text{SiO}_2)$ -2,0-3,5 % gacha bo'ladi.

Shlaklar quyidagi muhim funksiyalarni bajarishi kerak:

- Po'lat quyish pechlarida kimyoviy reaksiyasining yo'nalishini boshqarishi kerak;
- Metall vannasining kerakli bo'lgan issiqlik uzatish tezligi va kislorod bilan to'yinishini ta'minlashi kerak;
- Zararli qo'shimchalar bo'lgan S va P ni yo'qotish uchun qulay sharoitlar yaratish kerak;
- Metall vannasi orqali ko'p miqdorda zararli gazlarni (vodorod azot) yutilishiga yo'l qo'ymaslik kerak;
- Metall vannasidan metallmas qo'shimchalarni yutishi; metall vannasidagi temir va qimmatli qo'shimchalarni kimyoviy birikma ko'rinishida (oksid ko'rinishida) ko'p miqdorda yo'qotilishini oldini olish.

Bunday funksiyalarni p.q.x.b. shlaklar quyidagi sharoitlarda bajarishi mumkin:

- Nursimon energiyani yutuvchi xususiyatini xarakterlovchi qoralik darajasi;
- Metall vannasini qizish tezligini aniqlovchi-issiqlik o'tkazuvchanlik;
- Jarayon kinetikasiga ta'sir qiluvchi qovushqoqlik;
- Vanna yuzasiga chiqayotgan metallmas qo'shimchalarni yutilish jarayonini aniqlovchi – shlak yuzasining tortilishi.

4.2.2. Po'lat quyishda hosil bo'lgan asosli va nordon shlaklar va ularning xarakterli xususiyati.

Shlaklarning fizik-kimyoviy xususiyatlari eritib olinayotgan metallning sifati va po'lat quyish agregatining ishi unumdorligini aniqlaydi.

Po'lat quyida hosil bo'lgan shlakning tarkibidagi oksidlar kimyoviy xususiyatlariga ko'ra 3 asosiy guruhga bo'linadi:

- Asosli (CaO , MnO , MgO , FeO)
- Kislotali (SiO_2 , P_2O_5 , V_2O_5)
- Amfoter (Al_2O_3 , Fe_2O_3 , Cr_2O_3)

Amfoter oksidlarning xususiyati shundaki, asosli shixtalarda o'zini kislotali oksid kabi, kislotali shixtalarda esa asosli kabi namoyon qiladi.

Tarkibida asosli (CaO , MnO , MgO , FeO) oksidlar ko'proq bo'lgan shlaklar asosli shlaklar hisoblanadi. Yuqori asosli shlaklarga asoslilik $\geq 2,5$ bo'lgan shlaklar kiradi. Nordon shlaklarning asosiy xarakteristikasi SiO_2 ($\text{FeO}+\text{MnO}$) yoki $\text{SiO}_2/(\text{FeO}+\text{MnO}+\text{CaO})$ - kislotali shlak deyiladi.

Nordon po'lat quyish shlaklari po'lat quyish agregatlarining futerovkasiga katta ta'sir ko'rsatadi. 50-60 % ni tashkil qiladigan SiO_2 kremniy oksidi nordon shlaklarning asosi hisoblanadi. SiO_2 ning nordon shlaklardagi bunday konsentratsiyasi uning erish chegarasiga tegishli va shuning uchun uning erishi 1 ga teng. FeO ning eritishdan oldingi shlakdagi tarkibi 20-30 % ni, erish oxirida esa 10-15 % gacha kamayadi. Nordon shlaklarning asosiy kamchiliklaridan biri shundaki, ular metall vannasini fosfordan tozalay olmaydi.

Asosli po'lat quyish shlaklari rafinirlovchi xususiyatga ega, ular S va P ni yo'qotadi. Asosli shlaklarning asosiy komponentlaridan biri kalsiy oksididir. Uning tarkibi jarayon oxiriga borib 45-50 % ga yetadi. Agar shlakga SaO ni miqdorini ko'paytirish uchun ohak qo'shilsa u geterogen xususiyatga ega bo'lib qolishi mumkin. U holda fosfor va oltingugurtdan tozalash xususiyati kamayishi mumkin. Shlakning geterogen xususiyatini oldini olish uchun turli xil suyultiruvchilar boksit, plavk shpati va boshqalardan foydalaniladi.

Asosli shlaklarning ikkinchi asosiy komponentlaridan biri kremniy oksididir. SiO_2 shixtaning metall qismidagi kremniy oksidlanishidan hosil bo'ladi. U shixtaning metallmas qismidagi SiO_2 va mikser shlakida hosil bo'ladi. Eritish davri boshida SiO_2 ning miqdori 25-35 % ga teng bo'lsa, oxiriga borib esa 15-20 % ni tashkil qiladi. Metall chuqurroq fosfor va oltingugurtdan tozalanganda SiO_2 miqdori 10-12 % gacha kamayadi.

MgO ning miqdori 8-10 % bo'lguncha shlakning xususiyatiga yomon ta'sir qilmaydi. Miqdori bu chegaradan oshganda shlakda ohakning erishi qiyinlashadi. Uning oltingugurt va fosfordan tozalash xususiyati kamayadi.

Aluminiy oksidining miqdori 5-10 % yetguncha ohakning erishini tezlashtiradi, suyuq oquvchanlikni oshiradi. Shlakning fizik-kimyoviy xususiyatini oshishiga yordam beradi. Yuqori konsentrat-siyalarida esa shlakning aktivligini kamaytiradi.

Asosli shlaklarning asosiy texnologik xarakteristikasi ularning oksidlovchi xususiyatidir. Shlakdan metallga metall vannasidagi elementlarni oksidlash uchun o'tishi bilan xarakterlanadi. Buni metallda O_2 ning konsentratsiyasi ko'tarilganda amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bunday tarkibli shlakning metalldagi kislorodning amaliy jihatdan muvozanati quyidagicha bo'ladi:

$$[\text{O}]_{\text{r.sh}} - [\text{O}]_{\text{f}} = \Delta[\text{O}] > 0$$

Bu yerda $[\text{O}]_{\text{r.sh}}$ – shlak bilan muvozanatda bo'lgan metalldagi kislorodning miqdori, %;

$[\text{O}]_{\text{f}}$ – metalldagi kislorodning amaliy miqdori, %;

$\Delta[\text{O}]$ – kislorodni amaliy miqdoridan ortiqligi.

Shlak bilan muvozanatda bo'lgan metalldagi kislorodning miqdorini aniqlash uchun quyidagi tenglamadan foydalanish mumkin:

$$[\text{O}]_{\text{r.sh}} = \alpha_{(\Sigma \text{FeO})} / \eta_0 = (\Sigma \text{FeO}) \gamma_{(\Sigma \text{FeO})} / \eta$$

Bu yerda $\alpha_{(\Sigma \text{FeO})}$ va (ΣFeO) – shlakdagi temir oksidlarining faolligi va konsentratsiyasi;

η_0 – kislorodni taqsimlanish koeffitsienti;

$\gamma_{(\Sigma \text{FeO})}$ – shlakdagi temir oksidlarining faollik koeffitsienti.

Agar shlakdagi temir oksidlarining konsentratsiyasini kamay-tirsak (0.5 – 1.0 % gacha), unda $\Delta[\text{O}] < 0$ bo'ladi, ya'ni shlak kisko-

rodni metallga o'tkazish xususiyatini yo'qotadi va metalldagi kisdlorodni yuta boshlaydi. Bunday xususiyatli shlak kisloroddan tozalovchi yoki tiklovchi xususiyatga ega bo'ladi. Shlakning oksidlovchi xususiyati undagi temir oksidlari, asosiligi, uglerod konsentratsiyasi, shlakdagi metallning haroratiga bog'liq bo'ladi.

Po'lat eritishda hosil bo'ladigan shlaklarning kamchiliklari ularning gazlar – azot va vodorodlarni erituvchanligidadir. Bu shuni anglatadiki, gaz fazasidagi gazlarning faolligi metalldagi faolligidan ancha yuqoridir. Shuning uchun ular shlak va metallda eriydi. Tarkibida temir oksidlari bo'lgan shlaklarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan azot anion N^+ ko'rinishda bo'ladi. Azotning miqdori quyidagicha, % larda; asosli marten jarayonida 0.0001 - 0.0003, tomas jarayonida 0.0001 - 0.0007, nordon marten jarayonida 0.0001 - 0.0003, elektr yoyli jarayonda (karbid shlaki) ≤ 0.3 .

Shlakda vodorod gazining mavjud bo'lish holati anion ON^- ko'rinishidagidir. Bu anion gaz – shlak chegarasida hosil bo'ladi:



Reaksiyaning muvozanat konstantasi

$$Lg K = lg (OH^-)^2 / (P_{H_2O} O^2) = 2160 T + 8.144$$

Ushbu tenglamadan ko'rinib turibdiki, kislorod anionlarining konsentratsiyasi ko'tarilishi bilan vodorodning shlakdagi eruvchanligi ortadi.

Nordon shlaklarda eritish davrida vodorodning miqdori 10 – 20 $sm^3/100g$ shlakni tashkil qiladi. Asosli marten va kislorod konverterlarida vodorodning konsentratsiyasi 25 – 45 $sm^3/100$ oralig'ida bo'ladi.

Nazorat savollari:


1. Shlaklarning fizik-kimyoviy xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

2. Po'lat quyishda hosil bo'lgan asosli va nordonshlaklar va ularning xarakterli xususiyati.

4.3. Po'lat quyishda hosil bo'lgan shlaklarning fizik-kimyoviy xossalari

Po'lat quyishda hosil bo'lgan shlaklarning asosiy xususiyatlari: erish temperaturasi, qovushqoqlik, zichlik, sirt tarangligi, elektr o'tkazuvchanlik.

Shlaklarning *erish temperaturasi* ularning asosiy fizik xususiyatidir. U shlakning boshqa muhim fizik-kimyoviy xususiyatlarini belgilaydi. Shlaklarning erish temperaturasiga uning kimyoviy tarkibi, ayniqsa SiO_2 ning miqdori ta'sir qiladi. 7.1.- rasmda marten shlaklarining erish temperaturasini uning tarkibidagi SiO_2 ga bog'liqligi ko'rsatilgan.



4.4.1. – rasm. Marten shlaklarining erish haroratining uning tarkibidagi SiO_2 ga bog'liqligi. I - asosli jarayon; II - nordon jarayon.


Ushbu bog'liqlik quyidagi tenglama orqali ifodalanadi;

$$t_{\text{er}} = 1680 - 28 (\text{SiO}_2) + 0.43 (\text{SiO}_2)^2$$

Tarkibida 30-40 % gacha SiO_2 bo'lgan po'lat quyishda hosil bo'lgan shlaklar nisbatan yengil eruvchan (t_{er} -1200-1300) bo'ladi. Rasmdan ko'rinib turibdiki, SiO_2 ning shlakdagi miqdori ko'payganda ham, kamayganda ham shlakning erish haroratini ko'tarilishiga olib keladi. Eritish davrining boshlanishida nordon va asosli shlaklarda ham SiO_2 ning shlakdagi miqdori 30-40% ni tashkil qiladi. Asosli

jarayonlarda eritish vaqtida SiO_2 ning miqdori kamayadi, nardon jarayonlarda esa ko'payadi.

Po'lat eritishda hosil bo'lgan suyuq shlaklarning muxim texnologik xarakteristikasi — bu ularning *qovushqoqligidir*, bu qovushqoqlik shlakning harorati va tarkibiga bog'liqdir. Shlak qovushqoqligining haroratga bog'liqligi 4.4.2. da ko'rsatilgan.



4.4.2.-rasm. Asosli (1) va nordon (2) shlaklarning qovushqoqligini haroratga bog'liqligi.

Kremniy - kislorodli komplekslarning o'lchamlari shlakdagi SiO_2 ning miqdoriga qarab ortadi, shu bilan birgalikda uning qovushqoqligi ham ortadi. Tarkibida $> 50\%$ gacha SiO_2 bo'lgan shlaklar qovushqoqligi > 10 Pa.s. bilan xarakterlidir.

Shlaklar qovushqoqligining ba'zi mohiyatlari:

Modda	Temperatura, °S	Qovushqoqlik, Pa.s
Suv	25	0,00089
Po'lat	1600	0,005-0,0085
Marten shlaki	1600	0,020-0,040

Asosli shlaklarning suyuq holatdan qattiq holatga o'tish haroratining intervali qisqadir, bunday shlaklarning qovushqoqligi harorat $< 1500^\circ\text{C}$ gacha pasaytirilganda zudlik bilan ortadi. Asosli shlaklarning qovushqoqligi uning tarkibidagi qiyin eriydigan birikmalar SaO va MgO ga bog'liq bo'ladi.

Shlakning qovushqoqligi harorat va shlakning tarkibiga bog'liq. Haroratning ta'siri umumiy ko'rinishda quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$\eta = k_{\text{exr}} E_{\eta} / RT$$

bu yerda η - shlakning qovushqoqligi; k - eksponensialdan oldingi ko'paytiruvchi; E_{η} - qovushqoq oqimining faollashuvchi energiyasi.

Qovushqoqlikning qiymatlari odatda quyidagilarni tashkil qiladi. Pa.s: eritish davridagi shlaklar 0,1-0,3, tez xarakatlanuvchan shlaklar < 0,1, quyuq shlaklar 0,8-1,0. Shlakning qovushqoqligini tez oshiruvchi qo'shimchalar MgO (10-12 %) va Sg_2O_3 (5—6 % va undan yuqori). Ular shlakni mayin qattiq zarrachalar bilan boyitadi. Asosli shlaklarni tarkibida 5-7% Al_2O_3 , 2-5% SaR_2 , 5-7% N_2O yoki K_2O bo'lsa shlaklarning qovushqoqligi pasayadi. Nordon po'lat quyish shlaklari ko'proq eruvchan bo'ladi.

Shlakning sirt tarangligi odatda $a_{\text{sh-Gch}}$ bilan belgilanadi. U shlakni tashkil qiluvchi elementar zarrachalar orasidagi bog'lanish kuchi bilan aniqlanadi. Shlaklarning sirt tarangligi tarkib va haroratga bog'liq. Harorat 1400-1600°C bo'lganda 200-600 kDj/m ni tashkil qiladi, ya'ni metallning sirt tarangligi (1200-1900 kDj/m) dan ancha kam. Shlakga faol birikmalar qo'shilganda shlakning sirt tarangligi kamayadi. Asosli shlaklarda faol birikmalar TiO_2 , SiO_2 , Na_2O , SaF_2 va R_2O_3 hisoblanadi. Haroratni 100°Cga ko'tarilsa $a_{\text{sh-g}}$ na 25-40 kDj/m ga kamaymaydi, ya'ni haroratning ko'tarilishi unchalik ahamiyatga ega emas.

Metallni shlak bilan o'zaro ta'sirining barcha murakkab jarayonlari ushbu fazalarning o'tga chidamli materiallar bilan ta'siriga bog'liq. Bunda metallmas qo'shimchalarning hosil bo'lishi va ajralishi avvalo ularning yuzaga yopishishi bilan bog'liq. U odatda yuzaga yopishish f burchagi bilan xarakterlanadi. U suyuq tomchining substar (подложка) deb nomlanuvchi qattiq yoki suyuq yuzaga joylashishini belgilaydi.




4.4.3. – rasm. Metall sirt ustiga shlakning suyuq tomchilarini joylashishining asosiy polatlari sxemasi. a- to'liq yoyilish ($f = 0$); b – qisman yoyilish ($f < 90^\circ$); v – yomon yoyilish ($f > 90^\circ$); g – umuman yoyilmaslik ($f = 180^\circ$).

Po'lat ishlab chiqarishda posil bo'lgan shlaklarning normal polatdagisi metall ustiga yoyilish xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Odatda $f = 30-60^\circ$ qiymat bilan xarakterlanadi. Yuqori qiymatlarda (yomon yoyilish) metallni shlak bilan rafinirlash xususiyati sustlashadi. Tubli jarayonlarda metall yuzasining ochiq bo'lishi, parda metallga gaz fazasidan gazlarning yutilishi xavfi kuchayadi. To'liq yoyilish holatida esa ($f < 30^\circ$) metallni shlakdan ajralishi qiyinlashadi, bu esa metallmas qo'shimchalarni metall tarkibida ko'payishiga olib keladi. F kattalik metall-gaz $a_{m,g}$, metall-shlak $a_{m,sh}$ va shlak-gaz $a_{sh,g}$ chegaralaridagi fazalararo kuchlanishga bog'liq. Bu bog'liqlik substar (подложка) ustidagi tomchining muvozanat holatini xarakterlovchi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\text{SUM-G} = v_{m-sh} + a_{sh,g} \cdot \text{soz } f$$

$$\text{bundan } \text{soz } f = (a_{m,g} - a_{m-sh}) / a_{sh,g}$$

Po'lat eritish jarayonida *shlakning ko'pirishi* shlak tarkibiga SO mayda zarrachalarining ko'p miqdorda kelib tushishi bilan bog'liq. Ushbu zarrachalar metall-shlak chegarasidagi va shlakdagi uglerodli metall zarrachalarining yuzasida uglerodning oksidlanishi natijasida hosil bo'ladi. Shlakning ko'pirishi metall ishlab chiqarishda asosan zarar yetkazadi. Sababi, ko'pirgan shlaklarning issiqlik o'tkazuvchanligi juda past, metallni qizish (erish) davomiyligini uzaytiradi, metall bilan o'zlashtirilmagan issiqlik futerovkani qizdirib yuboradi va natijada futerovkaning yemirilishiga olib keladi. Xaddan tashqari ko'pirib ketgan shlakning hajmi ortishi natijasida xar qanday agregatdan toshib ketishi mumkin. Bu esa umuman mumkin emas.



4.4.4.-rasm. H_{shl} ning haroratga bog'liqligi

Shlakni tashkil qiluvchi oksidlarning zichligi turlicha bo'ladi. Normal haroratda shlak komponentlarining r zichliklari quyidagilarni tashkil qiladi:


Oksidlar	R_2O_5	SiO_2	SaO	MgO	Al_2O_3	Sr_2O_3	Re_2O_3	MpO	FeO
$r, g/sm^3$	2,39	2,65	3,40	3,65	4,0	5,21	5,24	5,43	5,7

Nazorat savollari:

1. Shlaklarning erish temperaturasi qanday aniqlanadi?
2. Shlakning ko'pirishi shlak tarkibiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Shlakning sirt tarangligi qanday belgilanadi?

4.4. Uglerodning oksidlanishi asosiy reaksiyasi, uning po'lat eritish jarayonidagi roli

Uglerodning oksidlanishi – po'lat eritish jarayonining asosiy fizik-kimyoviy reaksiyalardan biri bo'lib, quyidagicha ifodalanadi.




Ikkinchi reaksiyada tarkibida $<0,05\%$ uglerod bo'lgan vannaga quyiladi. Ikkinchi reaksiyada $1600^\circ C$ da $SO + SO_2$ gazlar aralashmasi 2 kPa ni tashkil qiladi. $R=101,3\text{ kPa}$ bosimda va $Y(C)$ va $Y(O)=1$ faolligida reaksiya tengligi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi.

$$K_p = 1/([C][O])$$

$1580-1620^\circ C$ va $R_{CO}=101,3\text{ kPa}$ konsentratsiyalari tengligini hosil qiluvchi $m=[C][O]=0,0025-0,0026$ ni tashkil qiladi.

Uglerodning oksidlanish jarayoni kislorodning fizik konsentratsiyasi tenglikdan yuqori bo'lganda o'tishi mumkin, 4.5.1-rasmda $[C]$ va $[O]$ tarkibi bir-biri bilan bog'liqligi metallidagi tengligi uchun haqiqiy po'lat eritish jarayonlari sharoiti ko'rsatilgan.



4.5.1-rasm. [C] va [O] tarkibi bir-biri bilan bog'liqligi metallidagi tengligi uchun (2) va haqiqiy (1) po'lat eritish jarayonlari sharoiti.

Uglerodning past konsentratsiyasida (<0,10%) uglerod tarkibidan tashqari kislorodning tarkibiga boshqa eritmalarning parametrlari ham ta'sir qiladi: shlakning oksidlanishi, metallidagi konsentratsiyasi, po'lat eritish vannasining harorati.

CO uglerod oksidi pufakchalari, (1) reaksiyaga binoan, metall-dan ajralib chiqishi faqat qaysi holatdagi agar y PCO miqdorga atmosfera bosimi (P_{atm}) va metall tortilish yuzasining ichki pufakchalarini bog'lanish bosimi (R_{kap}).

$$P_{CO} = P_{fer} + P_{atm} + P_{kap}$$

Ferrostatni va kapilyar bosim quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$P_{fer} = h_{met} \rho_{met} + h_{shl} \rho_{shl}$$

$$P_{kap} = \tau_{m-g}/r$$

Bu erda P_{atm} – po'lat eritish agregatining ish joyidagi bosimi; h_{met} va h_{shl} – hosil qilingan pufakning ustidagi metall va shlak qavatlarining balandligi m; ρ_{met} va ρ_{shl} – metall va shlak zichligi; τ_{m-g-r} – gaz va metall chegarasining tortilish yuzasi, MDj/m²; r- SO ni pufak radiusi.

Marten pechlarida qaynash rudali va toza qaynashga bo'linadi. Rudali qaynash natijasida shlak- metall chegarasida SO mayda

pufakchalari hosil bo'ladi. Toza qaynash – metall – osti chegarasida (bu holatda pufakchalar 30-40 marta ko'p).

Uglerod oksidlanishining reaksiyasi E faollashtirish energiyasi miqdori 63000-147000 kDj/k mol orasida bo'ladi. Bu jarayonni diffuziya maydonida oqib o'tishini ko'rsatadi, E miqdor quyidagi tenglama orqali aniqlanadi.


$$E=19,155 \lg(K_2 / K_1) T_1 T_2 / (T_2 - T_1)$$

Bu yerda K-muvozanat konstanta temperaturasi T,

19,155 – R qiymatining ln dan lg ga o'tish ko'effitsienti.

Marten vannalariga toza qaynash davrida kislorod pech atmosferasiga shlak orqali o'tadi. $T_1 = 1800$ K da uglerodning oksidlanish tezligi $VC_1 = 0,1$ %, C/ch, $T_1 = 1900$ K da $VC_1 = 0,13$ % S/ch ga teng.

Ushbu reaksiyani sxema ko'rinishida ifodalash mumkin.



Boshqa shu kabi sharoitlarda $K_2/K_1 = v_{c2}/v_{c1}$.

Shunga ko'ra $E = 71500$ kDj/k mol.

Uglerod oksidlanish reaksiyasi faollashtirish energiyasini olingan miqdori shuni ko'rsatadiki, jarayonni bitta diffuziya bosqichini limitlaydi.

Metall zarrachalari metall va shlak fazasida o'rtasida issiqlik va massa almashuvi tezlanishda muhim rol o'ynaydi, metallda shlak yuzasi kattalashuvini asosiy qarshiligidir. Uglerodni monooksid pufakchalari shlak qatlami orqali kiradi, o'zi bilan metall qobiqlarni tashiydi. Shlak yuzasini buzilishi pufakchalarni yorilishidan, shar ko'rinishli shakli qabul qilingan. Zarrachalar tarkibi 0,1 dan 5,5 mm gacha o'lchamlari o'zgaradi.

Metall tomchilarini uglerod oksidlanish tezligi intensivligi ikkita diffuzion jarayonlar orqali aniqlanadi – ichki diffuziya va tashqi diffuziya. Vannani kislorod yoki siqilgan havodan tozalashda zarrachalar rolini o'sishi sezilarlidir.

CO pufakchalari yuzasi uglerod – kislorod bog'lanishida osti g'adir-budur ko'rinishda, elementlar ko'rsatkichlari diffuziya koefitsienti miqdorini taqqoslash shuni ko'rsatadi. Uglerod diffuziya

koefitsienti avtoradio grafik uslubda aniqlanadi (izotop ^{14}C) tarkibida

$$4 \cdot 10^{-9} - 1,92 \cdot 10^{-8} \text{ m}^2/\text{s}$$

Interval temperaturada 1550-1680°C kislorod diffuziya koefitsienti aniqlanish tenglamasi.

$$D_0 = 3,34 \cdot 10^{-2} e^{12000 \pm 2000}$$

Temperaturani keyingi ko'rsatkichlari berilgani:

Temperatura, °C 1550 1600 1680

D_0 , m^2/s 1,22 1,33 1,52

Uglerod monooksidini kritik o'lchamdagi hosil bo'lgan o'lchamini quyidagi tenglama orqali aniqlash mumkin.

$$r = 2\sigma_{\text{M-r}} V_B / (kT \ln p/p)$$

Bu yerda r - kritik o'lchamni hosil bo'lgan radiusi, $\sigma_{\text{M-r}}$ - metall - gaz chegarasidagi tortilish yuzasi; V_B - hosil bo'lgan fazaning bitta molekula hajmi; K - Bolsamana doimiysi; T - absolyut temperatura.

Shlak-gaz chegarasini tortilish yuzasi 400-600 mDj/m², metall-gaz chegarasida esa 1100-1500 MДж/м², $\sigma_{\text{M-r}}/\sigma_{\text{ш-r}} \approx 3$.

Nazorat savollari:

1. Uglerodning oksidlanishining asosiy reaksiyasi.
2. Po'lat eritish jarayonida uglerod oksidlanishining ahamiyati to'g'risida ma'lumot bering.
3. Metall tomchilarining uglerod oksidlanish tezligiga ta'siri.

Umumiy savollar.

1. Qayta ishlangan cho'yan haqida qanday tushunchaga egasiz.
2. Po'lat temir tersagi haqida ma'lumot bering.
3. Ferroqotishmalar.
4. Metallmas shixta materiallari. Qattiq oksidlovchilar.
5. Shlak hosil qiluvchilar.
6. Shlaklarning fizik-kimyoviy xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
7. Po'lat quyishda hosil bo'lgan asosli va nondonshlaklar va ularning xarakterli xususiyati.
8. Shlaklarning erish temperaturasi qanday aniqlanadi?
9. Shlakning ko'pirishi shlak tarkibiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

10. Shlakning sirt tarangligi qanday belgilanadi?
11. Uglerodning oksidlanishining asosiy reaksiyasi.
12. Po'lat eritish jarayonida uglerod oksidlanishining ahamiyati to'g'risida ma'lumot bering.
13. Metall tomchilarining uglerod oksidlanish tezligiga ta'siri.

V- BOB. KISLOROD-KONVERTER JARAYONI.

5.1. Konverter jarayonining asoslari va maqsadlari.

Reja:

1. Kislorod-konverter jarayoni.
2. Kislorod furlalarining purkovchi rejimi va konstruksiyasi
3. Kislorod furlalarining purkovchi rejimi va konstruksiyasi
4. Kislorod-konverter po'latining sifati.
5. Konverter konstruksiyasi. Futerovkani ta'mirlash.
6. Gazlardan tozalash.

Kislorod-konverter jarayoni bilan dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan po'latning 60% ni, MDHda esa 35% ni tashkil qiladi. Konverter jarayoni cho'yan va metall temir – tersakdan tashkil topgan shixtani oksidlovchi gazlar (kislorod, havo, SO_2 gazi) purkash bilan po'lat olishdan iborat.

Konverter metallurgik agregat bo'lib, noxsimon ko'rinishga ega bo'lgan metallurgiya sanoatida qo'llaniladigan pechdir. Konverter gorizonta o'q atrofida uzatgich yordamida xarakatlanishi mumkin.

Konverter suyuq metall vannasiga oksidlovchi gazlarni uzatuvchi qurilma. Dastlabki materiallarni yuklash uchun darcha (bo'yincha) va oksidlangan gazsimon mahsulotlarni chiqaruvchi. metallni quyib oluvchi qurilmalar bilan jihozlangan. Suyuq issiqlixi temirni qo'shimchalarini (S, Mn, R va boshqalar) oksidlanishi reaksiyalari konverterning issiqlik manbayidir. Konverterning eritish davridagi issiqlik balansini bir maromda ushlab turish kerak. Chunki po'latni, shlakni, gazlarni qizdirish uchun sarflanadigan issiqlik va issiqlikning yo'qotilishi issiqlikning kelishidan yuqori bo'lmasligi kerak.

Konverter jarayonlari issiqqa chidamli materiallarning xususiyatiga ko'ra nordon va asosli jarayonlarga bo'linadi.

Yirik va kichik Bessemerlash jarayoni nordon jarayon hisoblanadi. Bu jarayon tabiiy ligerlangan cho'yandan va konverter jarayonlarida uzluksiz po'lat quyish jarayonlarni bosqichlarga bo'lishda qo'llaniladi. Masalan, kremniydan tozalashda, po'latni kisloroddan tozalashda qo'llaniladi.

Asosli jarayonlar ko'proq tarqalgan. O'tga chidamli materialning CaO, MgO, CrOlardan tashkil topgan bo'lib, C va P ning ko'p qismini yo'qotishga yordam beradi. Oksidlovchi gazlarni uzatishi bo'yicha pastdan, yonidan, yuqori qismidan furma orqali purkaladigan konvertorlar farqlanadi.

Hajmi kichik bo'lgan konvertorlarda yon tomonidan purkash qo'llaniladi. Ko'proq kambinerlangan yuqori va pastki qismidan purkaladigan konvertorlar ishlatiladi. Havo kislorod bilan boyitilgan tarkibida P va C miqdori oz bo'lgan cho'yanlar uchun Bessemer jarayoni va tarkibida (P ning miqdori ko'p bo'lgan jarayonlar uchun Tomas jarayonlari qo'llaniladi). Havo va toza kislorod bilan purkaladigan konvertorlar farqlanadi. Bularga yana kislorod va inert gazlar purkaladigan agregatlar ham kiradi. Yana changsimon materiallarni erigan vannaga purkaydigan konvertorlar ham mavjud.

Kislorod konvertor agregati o'zining vertikal o'qiga nisbatan simmetrik joylashgan. Sferik yuzasi silindrik ko'rinishga o'tuvchi pastki qismi tub bilan chegaralangan va yuqori qismi konussimon bo'yingacha ega bo'lgan agregatdir. Konvertor ostida relislar orqali harakatlanuvchi temirchi va shlak tashuvchi uskuna mavjud. Purkalayotgan kislorodning vanna bilan ta'sirlanishi gaz oqimiga va ularni metallga kirituvchi qurilmaga bog'liq. Eritishning purkovchi rejimiga quyidagilar kiradi:

- gazning bosimi;
- gazning vaqt birligida nisbiy sarfi;
- soplolarning o'lchami va ularning vanna sathiga nisbatan joylashishi kiradi;

Soplo — bu gaz oqimining patensial energiyasi kinetik energiyasiga o'zgartirish uchun kerakli yo'nalishini boshqaruvchi nasadkadir.

5.1.1. Kislorod furlmalarining purkovchi rejimi va konstruksiyasi

Ko'p soploli furlmalar reaksiya zonadan bir maromda gaz ajralishini amalga oshirishga metall aylanishini yaxshilab borishiga issiqlik va massa almashinuvi, metall yo'qotilishini kamaytirish, shlak hosil bo'lishini tezlashtirishga yordam beradi.

Furmaning uch qismida 3-9 ta gacha loval saplosi joylashtiriladi. Ularning o'qi konvertorning vertikal o'qiga qarab og'gan bo'ladi. Kislorod oqimi yelpig'ichsimon ko'rinishda furma uchlaridan tarqaladi. Oqim o'zgarib ketmaslik uchun soplolarning og'ish burchagi boshqarilib turadi. Og'ish burchagining kattaligi soplolar soni va konvertorning sig'imiga bog'liq bo'ladi, soplolar soni 3 ta bo'lsa, og'ish burchagi $8-10^0$, 4 ta bo'lsa, og'ish burchagi $12-14^0$, 5 ta bo'lsa, og'ish burchagi $16-18^0$, 6 ta bo'lsa, og'ish burchagi $20-22^0$ gacha og'gan bo'ladi.

Furmaning soplolar sonini ko'paytirib metall yuzasiga yaqinlashtirilganda, zudlik bilan sovutishni talab qiladi. Yuqoridan purkash uchun mo'ljallangan kislorod furmalari bir-biriga kiydirilgan 3 ta furmadan iborat. Markazdagi quvurdan kislorod yuboriladi, ichki quvurdan sovutuvchi suv o'tkazilib tashqi va o'rta quvurlar oraqali chiqib ketadi. Berilayotgan sovutuvchi suv 0,6-1 mPa bosim ostida yuborilib turiladi. Odatda har minutda haydalayotgan suv miqdori 5000 l ga yetadi. Furmaning sovutuvchi chiqib ketayotgan suvning harorati 45^0 dan oshmasligi kerak. Furmani yasash uchun yaxlit tortilgan po'lat quvurlar ishlatiladi. Furma uchlari misdan yasalgan. Ular 50-200 marta gacha po'lat eritishga chidamli bo'lishi kerak. Furmalarning vannaga nisbatan joylashishi jarayonlarning texnologik davrlarga bog'liq bo'ladi.

Konvertor bo'yinchasidan furma uchlari o'tkazilgandan so'ng, purkash boshlanadi. Furma oxistalik bilan tushirish bilan berilgan shixtagacha qancha kislorod sarflanishining hisobi olinadi. Purkash vaqtining 15-20% qismida ya'ni 1-2 min davomida nominal darajada yuqoriroq joylashtiriladi. Bu vaqtda konvertor bo'yinchasi ustida yorqin alanga hosil bo'lishi uglerodning zudlik bilan oksidlanayotganligini bildiradi. Demak, eritish mustahkam boshlagan bo'ladi. Ana shu vaqtda kislorod furmalari kerakli darajagacha tushiriladi. Metallni kislorod bilan purkash davrida tutun hosil bo'lishi yaroqli metall chiqishini 1-1,5% ga kamaytiradi. Gazdan tozalovchi qurilmalarni talab qiladi.

Eritishning purkash davri davomiyligi uglerod oltingugurt fosforning metall tarkibida bo'lish bilan belgilanadi. Uglerodning oksidlanish tezligi purkashning tezligi orqali aniqlanadi.

Fosfor va oltingugurtning yo'qotilishi tezligi esa shlak hosil bo'lish tezligi bilan aniqlanadi. Shlak tarkibining o'zgartirilishini futerovkaning ishlash muddatini kamaytirishi, metall oksidlari bilan shlakdagi temir zarrachalari bilan yo'qotilishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

5.1.2. Konvertor konstruksiyasi

Bessinmer va Tomas konvertorlarda po'lat ishlab chiqarish usullarining qator kamchiliklari tufayli ularda sifatli po'lat olish ancha cheklanadi.


Asosli konvertorlarga qo'yilgan qayta ishlanadigan cho'yan sarfiga texnik toza kislorod xaydash yo'li bilan turli markali uglerodli va kam legirlangan po'latlar olish mumkin. Bu usul oddiyligi, va ixchamligi, yoqilg'i talab etmasligi, ish unumdorligi yuqoriligi, ishlash sharoitining yaxshiligi, po'latda N va H_2 gazlarning kamligi, kapital mablag'larni kam talab etishi, chiqindilar ko'proq qayta ishlashga imkon berishiga sababli sanoatda keng qo'llanilmoqda.

5.1.3. Metall qo'shimchalarini yo'qotish.

Uglerodning oksilanishi. Purkalayotgan kislorodning o'zlash-tirilish koeffitsienti 0,8-1% ni tashkil qiladi. Metall vannasida o'zlashtirilmagan kislorod gaz fazasiga o'tib changni va SO ni SO_2 gacha oksidlaydi. Purkalayotgan kislorodning umumiy hajmi-ning 0,1-0,3% temirni shlakga chiqib ketuvchi qismiga sarflanadi. Purkash jarayoning o'rtasiga kelganda uglerodni oksidlanishiga sarflanayotgan kislorodning sarfi 1 ga yaqinlashadi. Uglerod ikkinchi reaksiyon zonada oksidlanadi va 90% SO gacha va 10% SO_2 gacha oksidlanadi.

Uglerodning oksidlanish dinamikasi kremniyning miqdori, harorat, purkash rejimiga bog'liq. Eritish jarayonida uglerod yonishining tezlashishi va sekinlashishi kuzatiladi. Bu esa temir oksidlarining yig'ilishi va sarflanishi bilan bog'liq. Bu jarayon esa alanganing bo'yincha tepasidagi pulsatsiyasi, ba'zida chiqindilarni (выбросами) otilib chiqishi bilan namoyon bo'ladi. Temirning oksidlanishi natijasida shlakning harorati ortadi, ammo uglerodning oksidlanishi endotermik, temperatura pasayadi va (FeO)ning sarfi

kamayadi va uning yig'ilishi kuzatiladi. So'ngra ushbu sikl takrorlanadi.




5.1.1.-rasm. Uglerod oksidlanishining tezligi dinamikasi va kislorod-konverterli eritishda metal temir tersaklarini erishi.

Kremniyning oksidlanishi erish jarayonining boshida intensiv rivojlanadi. Shlakda SiO_2 ning mavjudligi kremniy oksidini bog'laydi (ekzotermik reaksiya) va kremnezyomni aktivligini pasaytiradi. Kremniyning oksidlanish jarayoni 3-5 min dan so'ng boshlanadi.

45 minutdan so'ng marganetsni oksidlanishi boshlanadi va muvozanat holatga keladi. Muvozanat sharoitida marganetsning oksidlanishiga haroratning pasayishi, shlakdagi temir oksidi miqdorining ko'tarilishi yordam beradi. Erish jarayonining oxiriga kelib uglerod bilan tiklanishi natijasida marganetsning miqdori ortadi.

Defosforatsiya va desulfuratsiya jarayonlari ushbu jarayonlarning umumiy qonuniyatlari asosida amalga oshadi.

Kislorod bilan purkash vaqtida kislorod potentsiali yuqori bo'lgan xududida oltingugurtning (5-15%) gaz fazasiga o'tishi kuzatiladi:



Issiqlik va harorat rejimi.

Issiqlik rejimining asosiy vazifasi metallni texnologik operatsiyalar o'tkazish temperaturasi gacha qizdirishdir, ya'ni mog'orlarga metallni quyishda 1580-1620° gacha va MNLZ da metall quyishda 1620-1660°C gacha qizdirishi lozim.

Metallni qizishi Lekvidus temperaturasidan qancha yuqori bo'lsa, sistemaning suyuq xarakatlanishi shuncha tez, reaksiyalarning borishi shuncha intensiv bo'ladi.

Temperatura rejimi eritish davrlaridagi issiqlikning kelishi va sarflanishi nisbati bilan aniqlanadi.

Po'lat temir tersagining cho'yanda erishi uchta davrdan iborat:

- 1) Eritmada temir tersak bo'laklari yuzasining qotishi va erishi
- 2) Diffuzion erish, ya'ni eritmada o'zining erish haroratidan past haroratda erishi;

- 3) Metall bo'laklarining erish haroratigacha qizdirish

Yengil eruvchan temir tersak eritmaning haroratini 200°S, og'ir eruvchan temir tersak esa 50-100 °C gacha kamaytiradi.

Issiqlikni asosiy kelish manbai suyuq cho'yanning fizik issiqligi, cho'yan tarkibidagi qo'shimchalarning oksidlanishi natijasidagi yuz beradigan ekzotermik reaksiyalardir. Assosiy issiqlik kremniy va fosforning oksidlanishi natijasida hosil bo'ladigan Tomas jarayonidan farqli ravishda, kislorod-konverter jarayonida asosiy issiqlik uglerodning oksidlanishi natijasida hosil bo'ladi.

Kislorod-konverter jarayonida issiqlikdan unumli foydalanish koeffitsienti 70-72%ni tashkil qiladi, lekin, uglerodning juda kam miqdori SO₂ gacha oksidlanishini hisobga olganda, issiqlikdan foydalanish 40-45%ni tashkil qiladi, bu esa marten jarayonidagi issiqlikdan foydalanish koeffitsientiga tenglashadi.

Kislorod-konverter jarayonidagi issiqlik balansini yaxshilash usullari:

1. Oddiy jarayonlarda SO ni SO₂ gacha yoqish SO ni kislorod oqimiga qo'shish va shlakdagi temir oksidi bilan ta'sirlashishi natijasida amalga oshiriladi, ya'ni furma qancha yuqori joylashtirilsa, uglerodni SO₂ga o'tish darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Suyuq vannadan yuqorida yengil eriydigan metallolomni bo'lishi, chiqib ketayotgan gazlarning issiqligidan foydalanish darajasini oshiradi.

Furmalarni purkash davrida siklik joy almashinuvi SO_2 ni chiqib ketuvchi gazlardagi miqdorini 8-12% ga oshiradi va 1 tonna po'lat ishlab chiqarishda 30 kg cho'yanni iqtisod qilish imkonini beradi. Uglerodni to'liq yondirishni effektiv usullaridan biri, bu ikki darajali furalardan. kombinirlangan purkashdan foydalanishdir. Lekin issiqlik yonish alangasidan metall shixtasiga uzatilishi (FIK) bor-yo'g'i 30-35 % ni tashkil qiladi.

5.1.1-jadval.

**Kislorod-konverter jarayoning issiqlik balansi
(100 kg metall shixtasi uchun)**

Issiqlikning kelishi	kDi	%	Issiqlik sarfi	kDi	%
Qaynoq cho'yan	94325.3	49.6	Qizdirish		
Qo'shimchalarning oksidlanishi bilan	80468.9	42.1	po'lat	132402	69.2
Shu jumladan			shlak	30290.7	15.9
uglerod	40831.5	21.4	SaSO ₂ , namlik, rudaning temir oksidlarini	4686.6	2.4
kremniy	20070.1	10.5	Yo'qotishlar:		
marganets	4525.2	2.4	Chiqib ketuvchi gazlar bilan	15602.5	8.2
fosfor	2597.8	1.9	Chiqindilar	628.5	0.3
temir FeO, Fe ₂ O ₃ gacha(shlak)	12444.3	6.5	Shlakdagi zarrachalar bilan	967.9	0.5
Fe ₂ O ₃ (tutun) gacha	8882.8	6.5	Tutun bilan	2262.6	1.2
Mikser shlaki	1311.5	0.7	boshqalar	4085.2	2.3
Shlak hosil bo'lish reaksiyalari	5937.2	3.1			
Jami	190926.	100	Jami	190926.7	100

2. Shixta materiallarini qizdirish. 1 tonna po'latga 60-80 kg ohak-ni 1000°Cgacha qizdirib qo'shish, metallolom sarfini 28-38 kg/tga oshirish imkonini beradi, shlak hosil bo'lishini tezlashtiradi.

Metall temir tersak va chiqindilarini 800°Cgacha qizdirish keng qo'llanilmoqda.

3. Konverterga kislorod furma orqali yoqilg'idan (mazut, tabiiy gaz, koks, ko'mirlar, karbidlar) foydalanish. Konverter hajmi ancha miqdorda metall temir tersak va chiqindilari miqdorini oshirish imkonini beradi. Ammo ko'pikli, geterogen shlak natijasida FIK ni pasayishi bu jarayonni keng tarqalishiga imkon bermaydi.

5.1.4. Konverter konstruksiyasi. Futervkani ta'inirlash. Gazlardan tozalash.

Kislorod-konverter po'latining sifati.

Kislorod-konverter usuli bilan yuqori sifatli uglerodli va legirlangan po'latlarning juda ham ko'p turdagi po'latlar ishlab chiqarish mumkin. Bu po'latlarda rangli metall, vodorod, azot kabi turli qo'shimchalar marten pechida ishlab chiqarilgan po'latga nisbatan ancha kam.

Vannaga gazlar havo bilan, ohak namligi (N) bilan, purkash davrida kelib tushadi. Kelib tushgan gazlar esa o'z navbatida purkalayotgan havo bilan metall zonasida metall vannasiga yutladi. Kisloroddagi namlik miqdori 8-10 g/m³ bo'lganda metalldagi vodorodning konsentratsiyasi 10-13 sm³/100g ga etadi. Purkash davrida azotning konsentratsiyasi 0,5-3% bo'lganda, uning metalldagi konsentratsiyasi 0,01-0,025% ni tashkil qiladi. Ammo amaliy jihatdan yuqorida keltirilgan gazlarning miqdori ancha kam. Sababi gazlar inert gazlar bilan maxsus purkalgan vaqtida SO gazi pufakchalari bilan chiqib ketadi.

Purkash davrida vannadagi metallning tarkibi turlicha bo'ladi. Ushbu xar xillikni yo'qotish uchun argon bilan pechning tubi orqali portlash (продувка) qilinadi.

5.1.5. Konverter konstruksiyasi.

Futerovkani ta'mirlash. Gazlarni tozalash.

MDH davlatlarida kislorod konverterlarining quyidagi sig'imli turlaridan foydalaniladi (suyuq metall bo'yicha): 50, 100, 130, 160, 200, 300, 350, 400, 500t. Koverterning keng tarqalgan xarakteristikasi uning sadkasidir. Ya'ni eritishga yuklanayotgan metall shixta materiallarining massasi sig'im koeffitsienti orqali belgilanadi.

Kislorod konverterining asosiy parametrlari nisbiy hajmi, vannaning chuqurligi va diametri, ishchi yuzaning balandligi, bo'yinchasining diametri, futerovkaning qalinligidir. 1 tonna metallning hajmi 0,14-0,15 m, shlakni hisobga olganda 0,2 m /t ni tashkil qiladi purkash davrida bu hajm 2-3 barobarga ortadi. Bundan kelib chiqqan xolda konverter nisbiy hajmining kattaligi (hajmini nominal sig'imga nisbati) 0,8-1,0 m³/t deb qabul qilinadi. Bunda metallni minimal yo'qotilishiga, o'tga chidamli materiallarning optimal sarfi va pechning nisbiy hajmi oshirildganda issiqlik futerovka orqali chiqib ketishini oldini olishga erishiladi.


Minimal issiqlik yo'qotilish $N/D = 1$ bo'lsa ham, N/D ning nisbati 1,4-1,8 oralig'ida bo'ladi. Konverterning balandiligining yuqori bo'lishi chiqib ketayotgan chiqindi bilan metallni yo'qotilishini kamaytiradi, ammo binoning umumiy balandligi ortib ketadi. Konverterning diametrini oshishi futerovka yemirilishini oldini oladi, lekin sirkulyatsiya jarayonini qiyinlashtiradi. Pechning sig'imi ortgan sari N/D nisbat kamaya boradi.

Vannaning chuqurligi h_v konverter sadkasiga va purkash usuliga bog'liq.

Bo'yincha diametri D_R metalolomni tezda yuklash, namuna olish, haroratni o'lchash imkonini berishi kerak. Juda keng bo'lgan bo'yincha issiqlikni yo'qotilishi, chiqib ketayotgan chiqindilar bilan metallni yo'qotilishi va havoni vannaga kelib tushishiga olib keladi. Bo'yincha diametri D_R 50-350-t konverterlar uchun 2-4 m atrofida bo'lishi kerak. Bo'yincha 25-27°gacha og'gan konussimon shaklda bo'ladi. Bo'yincha ushbu qiymatdan yuqoriroq og'dirilsa uning yuqori qismidagi futerovkaining mustahkamligi kamayadi.

Vannaning quyi qismi metall turib qolishini oldini olish uchun sferik yoki konus shaklda yasaladi.

Konverter konstruksiyalari tubi yaxlit ochilmaydigan, kiygiziladigan va tagi olinadigan turlari mavjud. (14.1 rasm.). Keyingi ikkita turi futerovka remontini osonlashtiradi, ammo metallni chiqib ketish xavfi bor. Olinadigan tublar ularga eritilgan magnezitdan tayyorlangan maxsus o'tga chidamli bloklar bilan biriktirilgan furlmalar bilan birgalikda almashtiriladi.



5.1.2.-rasm. Kislorod konverteri tubining konstruksiyasi: a- yaxlit tubli; b- yechiladigan; c- kiygiziladigan.

Oksidlamaydigan gazlarni purkash ochiq teshikli o'tga chidamli bloklar orqali amalga oshiriladi. Furlmalar kislorod kollektor-taqsimlagich bilan biriktirilgan. Bu taqsimlagich tubning tashqi tarafidan mustahkamlangan. Odatda bu quvurlar katta diametrli bo'ladi. Kislorodni bo'luvchi kollektor kukunsimon ohakni furlamalarga bir maromda taqsimlab beradi. Markazdan qochuvchi kuchli taqsimlagichlar keng tarqalgan. Purkashlar davrlari orasida halqali bo'shliqlar orasidan azot kelib tushadi.

Konverter ustki qoplama sifatli eskirmaydigan qalinligi 80-150 mm bo'lgan po'lat listlardan tayyorlanadi. Uning po'lat quyish vaqtidagi harorati 200-300°C gacha boradi. Ustki qoplamaning yuqori qismida joylashgan bo'yincha qismini qalin po'lat qoplamalar himoya qiladi.

Sapfalar kojuxga yechiladigan yoki yechilmaydigan maxsus konstruksiyalar yordamida biriktiriladi. Sapfalar o'qi yuklangan konverterning og'irlik markazidan yuqorida joylashtiriladi. Bu esa konverterni aylantiruvchi uzatgichlar buzilgan vaqtida konverterni vertikal holatga kelishini ta'minlaydi. Konverterning tagi olinmay-

digan turlari qalin shveller tipidagi po'lat list bilan qoplangan. Ularning kamchiligi – kojux qiziganda sapfalarning og'ib ketishi ehtimoli borligi va podshipniklar deformatsiyasidir.

Yechiladigan konstruksiyaning tayanch xalqasi korpus bilan "suzuvchi" ko'rinishda birlashtiriladi. Bu esa o'z navbatida bema'lol issiqlik kengayishini ta'minlaydi.

Sapfalar turli kommunikatsiyalarni o'tkazish uchun yarimoy ko'rinishida yasaladi. Ular havo yoki suv bilan sovutuvchi moslama bilan jihozlangan. Sapfalar podshipniklar yordamida po'lat staninalarga tiraladi, uning fundamenti bino fundamenti bilan bog'lanmagan va o'tga chidamli g'ishtlar bilan futerovkalanagan bo'ladi.

Elektromexanik mexanizm yordamida konverter o'z o'qi atrofida xarakatlaniriladi. Konverterning xarakatlanish tezligi $0,1-1,5 \text{ min}^{-1}$. Xarakatga keltiruvchi uzatgichlar bir tomonlama (160 tonnagacha) va ikki tomonlama bo'ladi. Kuchlanish silindrik reduktorlar, universal shpindellar va sapfaga birlashtiruvchi muftalar orqali uzatiladi.

Yuqori yoki quyi furlarlar orqali kukunimon materiallarni purkash sistemaga materiallarni saqlash uchun bunkerlar, sarflovchi bunkerlar, taqsimlovchi torozilar, tarqatuvchilar, o'tkazuvchi quvurlar kiradi. Kukunlar aeratsiyasi va pnevmatik uzatish uchun kislorod va azotdan foydalaniladi.

Suyuq cho'yanni kislorod-konverterining yuklash maydoniga cho'yan tashuvchi kovshlarda olib kelinadi va yuklovchi kran orqali konverterga quyiladi. Metall temir-tersagi xuddi o'sha maydonga temiryo'l platformalarida keltiriladi va ko'priqli kran yordamida konverterga yuklanadi. Konverter maydonining ishchi yuzasida saqlash, transportirovka qilish va sochiluvchan materiallarni taqsimlash, ferroqotishmalarni toblash va eritish uchun maxsus jixozlar bilan jixozlangan. Po'lat temiryo'llarda xarakatlanuvchi maxsus aravachalarga o'rnatilgan po'lat quyish kovshiga, shlak esa shlak yuklanuvchi idishlarga chiqariladi.

Kislorod konverterining futerovkasi g'isht, blok va yamovchi massalar yordamida amalga oshiriladi. Futerovkaning yemirilishi bir tekisda bo'lmaydi o'tga chidamli materiallardan maksimal darajada foydalanish uchun qoplamaning bir tekisda yemirilishini ta'minlash kerak bo'ladi. Buning uchun qoplamalarning turli uchastkalaridagi

ko'p yemiriladigan joyining qalinligini ushlab turishga erishish uchun differensiallangan kladdadan foydalaniladi.

Bo'yinchaning yuqori qismi metallolom yuklanganda, haroratning o'zgarishi natijasida yig'ilib qolgan metallning ko'chib tushishi natijasida mexanik yemiriladigan joylarga kuydirilgan o'tga chidamli qoplamalar avvaldan qatron bilan to'yintiriladi. Konverterning silindrik qismi shlakning ta'siri natijasida yemiriladi. Yemirilishni oldini olish uchun ko'p yemiriladigan qismiga qatronli bog'lamlar yordamida qalinlashtirilgan o'tga chidamli qoplama bilan futerovkalanadi.

Tubi xar tarafidan qatronli bog'lovchilar yordamida biriktirilgan magnezit g'ishtidan tayyorlanadi. Tubi biriktiriladigan pechlarda esa, qatronmagnezitli massa bilan qoplanadi va aravacha (домкратная тележка) bilan mustaxkamlanadi.

Po'lat quyib olish tuynugi magnezitli g'isht va eritilgan magnezitli bloklar bilan futerovka qilinadi. Atrofi magnezitli kukunni magniy sulfatli aralashmasi bilan to'ldiriladi.

Futerovkaning yemirilish tezligi periklazoshpindelli g'ishtar uchun 2,5 mm/eritish ni va qatrondolomitli qoplama uchun 1.5 mm/eritishni tashkil qiladi. Futerovkaning yaroqlilik muddati periklazoshpindelli g'ishtar uchun 300-400 va qatrondolomitli qoplama uchun 500-900 eritish (плавка)ni tashkil qiladi. Futerovkaning chidamliligini oshirish uchun

- g'ishtning sifatini oshirish,
- Differensirlangan qoplamadan foydalanish,
- sochiluvchan materiallar tarkibidagi SiO_2 cho'yan tarkibidagi kremniyning miqdorini kamaytirish,
- asosli shlakni hosil bo'lishini tezlashtirish,
- purkash vaqtini kamaytirish,
- eritish davrlari orasidagi vaqtlar oralig'ini kamaytirish,
- shlakni magniy oksidi bilan 6% gacha boyitish,
- vaqtida pechni issiq remont qilib turish lozim bo'ladi.

Issiq remontning eng oson va sodda usuli Futerovkaning ta'mirlanayotgan qismida shlakli garnissaj (подварка) hosil qilishdir. Buning uchun konverterda shlak shunday qoldiriladi-ki, shlak yemirilgan joyini to'ldirishi kerak va uning ustiga o'tga chidamli g'ishtning

siniqlari sepiladi. 15-20 minutdan so'ng eritish yana davom ettiriladi. Garnissajning chidamliligi 3-4 ta eritishga yetadi.

Bundan tashqari, yemirilgan qismlarga o'tga chidamli material kukunini maxsus furlmalar yordamida siqilgan havo bilan purkab to'ldirish mumkin. Pech qizdirilgandan so'ng purkalgan massa futerovka bilan birlashib ketadi. Ushbu usulning quruq, nam va olovli (alangali) turlari mavjud. Bunday usullar sovuq remontga to'xtashlarni bir necha barobarga qisqartiradi.

Sovuq remontda armatura qavatini va yemirilib ketgan futerovkani almashtirish, pechni 15-20 sutka davomida uzluksiz ishlaganda va konverterni yopishib qolgan shlak va metall qoldiqlaridan tozalashda, tubni ajratib olishda, futerovkani 500-600°C gacha havo va suv bilan sovutish, futerovkani maxsus mashina yordamida buzish, armatura va futerovka remonti, 6 soat davomida 1200°Cishchi haroratgacha qizdirish nazarda tutiladi. Sovuq remont 72-130 soat davom etadi.

Issiqlikni ajratib chiqarish va gazlarni tozalash.

Tubdan havo purkaladigan konverterlar gazi tarkibida 5-35% SO, 2-15% SO₂, 60-90% Mg bo'ladi, changlanish 1-5 g/m³, temperatura 1000-1600°S. Pastdan kislorod bilan purkaladigan pechlarda tarkibida 85-88 kg/t po'lat (60-80m³/t) ga tarkibida 75-90% SO, 8-20% SO₂, do 5% N₂, changlanishi 30-120 g/m³, harorati 1400-1700°C bo'lgan gaz hosil bo'ladi. Tartibli normaga asosan gazning changlanish miqdori 0.1 g/m bo'lishi shart. Shuning uchun gazlar changdan tozalanishga yuboriladi. Gazlar tarkibida portlovchi N₂ va SO gazlar bo'lganligi tufayli ularni tozalashdan oldin havo kislorodi bilan yondiriladi, yoki chiqarib yuborish va tozalashni yondirmasdan gaz chiqaruvchi traktga havo tushirmasdan o'tkazib yuboriladi.

Gaz chiqaruvchi trakt suv bilan sovutilib turuvchi kessonlar bilan jihozlangan bo'lib, gazlar bo'yinchadan chiqqanidan so'ng, konverter gazlarni sovutuvchi radiatsion qismi bo'lgan kaminga o'tadi. Ushbu kamin qozon-utilizator deb nomlanadi.

Gazlar quruq, nam va elektr yordamida tozalanadi. Nam tozalash sistemasi ketma-ket o'rnatilgan skrubber, Venturi quvurlari, tomchi

ushlovchi apparatlar bilan jixozlangan. Zarrachalarning namlanishi natijasida koagulyasiya sodir bo'ladi.

Quruq usullarda matoli filtrlardan foydalaniladi. Buning uchun gazning harorati albatta pasaytirilishi kerak. Quruq va nam elektro-filtrlardan foydalanish changning zararlangan zarrachalarini elektromagnit plastinalari yuzasiga cho'ktirishga asoslangan. Bunday usul o'ta portlash xavfi mavjud. Bu usullardan keng foydalanilmaydi

5.1.6. Kislrod furmasining purkash rejimi va konstruksiyasi. Konvertorda tutun va shlak hosil bo'lishi. Temperatura va issiqlik rejimi

Ko'pteshikli furlar reaksiya zonasidan gaz ajralib chiqishini bir maromda ta'minlaydi, metallning sirkuliyatsiyasini tashkillash-tiradi, issiqlik va massa almashinuvini tashkillashtirib, metallning yo'qolishini kamaytiradi, shlak hosil bo'lishini tezlashtiradi. Furma-niing uchi qismida 3-9 gacha o'qlari vertikal o'qqa tomon egilgan havvol teshiklari joylashgan. Oqim vertikal tarzda furmani uchi qismidan tarqaladi. Egilgan burchak oqimni to'kilmasligini va reaksiya zonasining ust qatlamga yaqinlashib qolmasligini ta'min-laydi. Egilish burchagining kattaligi konvertor sig'imiga va teshik-chalar miqdoriga bog'liq.

Teshikchalar miqdori n	3	4	5	6
Egilish burchagi α	8-10	12-15	16-18	20-22
Teshiklar diametrik	$d_n = d_0$			

Bu yerda d_0 – bitta furmaning hisoblangan diametri.

n – teshiklar miqdori.

Furmaning teshiklarini ko'paytirib metallning ust qatlamlariga yaqinlashtirilganda, furmaning jadal ravishda sovutib turish lozim. Kislrodli furlar yuqoridan purkashda 3 xil konsentrik joylashuvga ega, markazdan kislrod beriladi. Sovutish uchun ichki xalqadan suv, ustki hamda o'rta truba oralig'idan o'tadi. Shunday furlar borki, unda O_2 ichki xalqa oralig'idan beriladi.

Furmani sovutish uchun suvning harorati $45^{\circ}C$ dan oshmasligi shart.

Furma tayyorlash uchun o'ta pishiq po'lat qo'llaniladi. Furma-ning uchi qismi qizil misdan tayyorlanib, 50-200 tagacha eritish jarayonida bardoshli bo'lishi kerak. Furmaning joylashuvi jarayon-ning texnologik davriga qarab o'zgartiriladi. Purkash jarayoni furma-ning uchi konvertorlovchi (bo'g'zi)dan o'tgandan keyin boshlanadi. Eritma maromida kuydirilgandan so'ng, furmani nominal darajasiga pastlatiladi. Metallni O_2 bilan purkashda hosil bo'lgan tutun metallni oksidsizlantiradi. Bu esa o'z navbatida mukammal gaz tozalash uskunalariga talabni oshiradi. Tutun tarkibida qisman temir va uni oksidi (0,03-0,02 mkm-60-80%) va shlak ko'piklarining qoldiqlari shu bilan birga tiklovchi vositalar qoldiqlari bo'ladi. Ko'p teshikli furmalardan foydalanish metallni chang bilan chiqib ketishini 1,2-2 martagacha kamaytiradi. Tutun hosil bo'lishi, shlak hosil bo'lishi uchun metallning ust qatlamiga O_2 bilan qo'shib berilayotgan qattiq, suyuq va gazsimon vositalarning harakatiga ta'sir qiladi.

C, S, P ning eritma tarkibida qanchaligiga qarab purkash vaqti aniqlanadi. C ning oksidlanish tezligi [q_0 , $m^3/(min.t)$], purkashning jadalliligiga, S va P ning yo'qolish tezligiga va shlak hosil bo'lish tezligiga bog'liq. Shlak tarkibining o'zgarishi o'tga chidamli futerovkaga, metallning chiqindi tarkibiga chiqishiga oksidiga ta'sir qiladi. Birlamchi shlak cho'yanni konvertorga quyishdan, oldingi quyishdan qolgan shlakdan metall ifloslanishidan cho'yanning quyishdagi oksidlanishdan va konvertorga yuklangan ohak oksididan hosil bo'ladi. Eritish paytida shlak tarkibi o'zgarishiga Si oksidlanish. Mn, P, S, ohak erishi, temir rudali materiallarning konvertorga yuklashda futerovkaning buzilishiga ham bog'liq. Asosiy jarayon ustki qismida Fe va Mn ion va oksidlari bo'lgan ohak bo'lagining erishidir. Bo'lakga ichki massa uzatish $CaO-FeO-MnO$ sistemasida yengil eruvchanlik hosil qiladi, erigan CaO shlak hajmiga ta'sir qiladi.

Jarayon tezligi ohak bo'laklarining shlak bilan aloqasidagi maydonga bog'liq. Tashqi massa uzatish shlakning qovushqoqligiga, temperaturaga, qaysiki uglerodning kuyishi bilan aniqlanadigan vannadagi jadal almashinishiga bog'liq. Tutashish maydonining kengaytirilishi bo'laklarining yuqori harorat qismiga tushib

yorilishiga va shlak tarkibida temir oksidlarining kamligi va ohakning kesaklanishini kamayishiga yordam beradi.

SiO_2 ni shlakdagi yuqori konsentratsiyasida ohak bo'laklarining ustki qatlamida $2\text{CaO} \cdot \text{SiO}_2$ ning 2130°C da eriydigan mustahkam qobig'i hosil bo'ladi. Buning oldini olish uchun ohakning nisbiy ustki qatlamini oshirish, birinchi qo'shimcha bilan kiritiladigan ohak massasini ko'paytirish, erish harorati 1400°C bo'lgan ikki kalsiyli silikat birikmasini hosil qiluvchi plavik shpatni qo'shish lozim.

Ohakning kristall panjarasiga erituvchilarning ion (oksidlr)ning diffuziyasi ohak nuqsonlarining mavjudligig bog'liq. Purkash bosqichida shlak tarkibida FeO , Fe_2O_3 , SiO_2 bo'lgani uchun ohakning erishi yuqori bo'ladi. Ohakning va SiO_2 , Fe va Mn oksidlanishi natijada shlak massasi tez o'sadi. Furma o'rtacha ish holatiga o'tganda shlak sachrab uchqunlar konverter bo'g'zidan otilib chiqa boshlaydi. Bu davrda suyultirilgan shlakga eritiladigan plavik shpati, temir rudali material qo'shiladi va furma ko'tariladi.

III davrda C konsentratsiyasining kamayishi natijasida uglerodlanish tezligi V_c tushib ketadi, shlakdagi oksidning miqdori o'shadi. Natijada ohakning erishi intensivlashadi va shlakning massasi ortadi.

5.1.7. Kislorod konverterining material balansi.

Kislorod sarfi

Texnik kislorod bilan ($99,5\% \text{O}_2 + 0,5\% \text{N}_2$) ustidan purkalanadigan, metall sig'imi 150 tonna bo'lgan konverterni hisoblash. Shixtani tarkibida 77% cho'yan va 23% skrap bo'ladi, ularni oksidlansizlashtirishdan oldingi tarkibi quyidagicha bo'ladi:

	C	Si	Mn	P	S
Cho'yan (77 %)	3,8	1,0	0,9	0,2	0,05
Skrap (23 %)	0,1	-	0,5	0,04	0,04
Shixtaning o'rtacha miqdori	2,759	0,72	0,763	0,033	0,045
Kislorodsizlantirishdan oldingi skrap	0,1	-	0,4	0,025	0,01

Futerovkani sarfini (periklazoshpinelidli g'isht) cho'kish massasini 0,25% ga teng deb olamiz.

Konverterni hisobi o'z ichiga oladi; 1) material balansi hisobi; 2) konverterni asosiy o'lchamini hisobi; 3) kislorodli furmani hisobi; 4) issiqlik balansi hisobi.

Material balansi

Chala yongan qo'shimchalar po'latni oksidlanishidan oldingi va shixtadagi elementlarni o'rtacha tarkibi farqi orqali aniqlanadi (100 kg shixta uchun).

C.....	2,759 - 0,1 = 2,659 kg
Si.....	0,72 kg
Mn.....	0,763 - 0,04 = 0,723 kg
P.....	0,033 - 0,01 = 0,023 kg
S.....	0,045 - 0,025 = 0,02 kg
Fe.....	1,5 kg
Jami	1,5 kg

10% uglerod CO_2 gacha va 90% uglerod esa CO gacha oksidlanishini nazarda tutgan holda, qo'shimchalarni oksidlashga sarflanadigan kislorodning massasini aniqlaymiz.

Kislorod sarfi, kg	Oksid massasi, kg
$\text{C} \rightarrow \text{CO}_2 \dots 0,2659 \cdot 32 : 12 = 0,709$	$0,2659 + 0,709 = 0,975$
$\text{C} \rightarrow \text{CO} \dots 2,3931 \cdot 16 : 12 = 3,190$	$2,3931 + 3,190 = 5,584$
$\text{Si} \rightarrow \text{SiO}_2 \dots 0,72 \cdot 32 : 28 = 0,823$	$0,72 + 0,823 = 1,543$
$\text{Mn} \rightarrow \text{MnO} \dots 0,723 \cdot 16 : 55 = 0,210$	$0,723 + 0,210 = 0,933$
$\text{P} \rightarrow \text{P}_2\text{O}_5 \dots 0,023 \cdot 80 : 62 = 0,030$	$0,023 + 0,002 = 0,004$
$\text{Fe} \rightarrow \text{Fe}_2\text{O}_3 \dots 1,5 \cdot 48 : 112 = 0,643$	$1,5 + 0,643 = 2,143$
5,607	11,235

Nazorat savollari

1. Shixtaning o'rtacha miqdori qanday aniqlanadi?
2. Kislorod sarfini aniqlashda kislorodning miqdori qanday aniqlanadi?
3. Oksid massasini aniqlash uchun qaysi natijalardan foydalaniladi?

5.2. Kislorodli konverteridan ajralayotgan

shlakni miqdori va tarkibini aniqlash

Avvalgi mashg'ulot natijalaridan foydalangan holda, shlakning miqdori va tarkibini aniqlash uchun boksit sarfini 0,6 kg (100 kg shixtaga) deb olamiz. Ohak miqdori sarfini x ga teng deb qabul qilsak, metallmas materiallar tarkibini 1-jadval orqali topamiz:

Shlak qoldig'idagi CaO miqdorini, kg, aniqlaymiz:

Futerovka..... $0,25 \cdot 0,02 = 0,005$

Boksit..... $0,60 \cdot 0,01 = 0,006$

Ohak..... $0,85x \cdot 1,6155 + 0,035x$

Shlak qoldig'idagi SiO₂ miqdorini aniqlaymiz:

Metall shixta.....1,543

Futerovka..... $0,25 \cdot 0,05 = 0,0125$

Boksid..... $0,60 \cdot 0,10 = 0,06$

Ohaktosh..... $0,035x \cdot 1,6155 + 0,035x$

Shlak tarkibi

1-iadval

	SiO ₂	CaO	MgO	Al ₂ O ₃	Cr ₂ O ₃	S	MnO	P ₂ O ₅	Fe ₂ O ₃
Temir shixtasi	1,543	-	-	-	-	0,018	0,933	0,053	-
Futrovka	0,0125	0,005	0,175	0,0075	0,03	-	-	-	0,02
Boksit	0,06	0,025	-	0,324	-	0,0006	-	0,0005	0,15
Ohak	0,271	6,593	0,271	0,039	-	0,010	-	0,0078	0,027
Ja'mi	1,8865	6,623	0,446	0,3705	0,03	0,0286	0,933	0,0613	0,197

Shlakni negiziga e'tibor bergan holda $\text{CaO/SiO}_2 = 3,5$ ohakni sarfini hisoblaymiz

$$\frac{\text{CaO}}{\text{SiO}_2} = \frac{0,011 + 0,85x}{1,6155 + 0,035x} = 3,5$$

Bu yerda $x = 7,757 \text{ kg}$.

Endi 1- jadvaldan foydalangan holda, shlakni qoldig'i tarkibini oson aniqlaymiz.

	SiO_2	CaO	MgO	Al_2O_3	Cr_2O_3
Kg.....	1,8865	6,623	0,446	0,3705	0,03
%.....	14,54	51,05	3,44	2,86	0,23
<i>davomi</i>					
S	MnO	P_2O_3	Fe_2O_3	FeO	
Kg.....	0,0286	0,933	0,0613	0,649	1,946
%.....	0,22	7,19	0,47	5,00	15,00

Temir oksidlanadi, kg:

$$\text{Fe}_2\text{O}_3 \text{ gacha} \dots\dots\dots 0,649 - 0,197 = 0,452$$

$$\text{FeO gacha} \dots\dots\dots 1,946$$

Bu yerda 0,197 kg –turli xil manbalardan kelib tushgan Fe_2O_3 miqdori.

Metalldan shlakka o'tgan temir

$$1,946 - 56 : 72 + 0,452 \cdot 112 : 160 = 1,514 + 0,319 = 1,833 \text{ kg.}$$

Yaroqli metallning chiqishi

$$100 - 5,645 - 0,5 - 1,0 - 1,833 = 91,022 \text{ kg,}$$

Bu yerda 5,645 – qo'shimchalarni yonishi, kg; 0,5 – shlak bilan chiqib ketadigan temir miqdori, kg; 1,0 – chiqindilar bilan yo'qotiladigan temir, kg; 1,833 – shlakda temir oksidlarini hosil bo'lishiga sarflanadigan temir, kg.

Temir oksidlanishiga ketadigan kislorod sarfi (oksidlar massasi va dastlabki element orasidagi farq orqali aniqlaymiz):

$$(1,946 - 1,514) + (0,649 - 0,319) = 0,762 \text{ kg.}$$

Xamma qo'shimchalarni oksidlanishiga sarflanadigan kislorod miqdori

$$5,607 + 0,762 = 6,369 \text{ kg.}$$

Nazorat savollari

1. Shlak qoldig'idagi CaO miqdorini aniqlang.
2. Shlak qoldig'idagi SiO₂ miqdorini toping
3. Ohak sarfini qaysi usulda hisoblaymiz?
4. Yaroqli metallning chiqishini hisoblash qanday parametrlar orqali bajariladi?

5.3. Kislorod konverteridan ajralayotgan gazning tarkibini aniqlash

Vannaga berilayotgan kislorodni o'zlashtirish koeffitsientini 0,9 deb qabul qilganda, 100 kg cho'kindiga kerak bo'lgan texnik kislorod miqdori

$$6,369 \cdot 22,4 / (0,995 - 0,9 \cdot 32) = 4,98 \text{ m}^3$$

1 t cho'kindiga sarflanadigan kislorod miqdori 49,8 m³/t ga teng. Berilayotgan azotning miqdori

$$4,98 \cdot 0,005 = 0,025 \text{ m}^3 \text{ yoki } 0,031 \text{ kg ga teng.}$$

O'zlashtirilmagan kislorodning miqdori

$$(4,98 - 0,025) \cdot 0,05 = 0,248 \text{ m}^3 \text{ yoki } 0,354 \text{ kg ga teng.}$$

Texnik kislorodning massasi

$$6,359 + 0,031 + 0,354 = 6,754 \text{ kg ga teng.}$$

Endi ajralayotgan gazning tarkibi va miqdorini aniqlash mumkin.

	Kg	m ³	%
CO ₂	0,975 + 0,0048 + 0,537 = 1,517	0,772	13,84
CO	5,584	4,467	80,05
H ₂ O	0,054	0,067	1,20
O ₂	0,354	0,248	4,44
N ₂	0,031	0,025	0,45
SO ₂	0,004	0,001	0,02
Jami	7,544	5,580	100,0

Eritishning material balansi.

Keldi	kg	Olindi	kg
Cho'yan	77,000	Po'lat	91,022
Skrab	23,000	Metallni shlak bilan yo'qotilishi	0,500
Boksit	0,600	metallni chiqindilar bilan yo'qotilishi	1,000
Ohak	7,757	shlak	12,974
Futrovka	0,250	gazlar	7,544
Texnik O ₂	6,754	F ₂ O ₃	2,143
Jami	115,361	Jami	115,183
		Bog'lanmagan	- 0,18 kg

5.3.1. Kislorod konverterning asosiy o'lchamlarini aniqlash.

Konverterning ichki diametrik D_{VH} va tinch holatidagi suyuq vanna chuqurligi h , umumiy balandligi H_1 uning cho'kindisiga bog'liq.

Cho'kindi, t ...50	100	150	200	250	300
$D_{VH}, m \dots \dots \dots 3,3$	4,2	4,93	5,5	6,2	6,9
$h, m \dots \dots \dots 1,1$	1,4	1,5	1,6	1,7	2,0
$H_1/D_{VH} \dots \dots \dots 1,55$	1,47	1,4	1,3	1,22	1,25

Konverter futrovkai qalinligi odatda konus qismi 508 – 888 mm; silindr qismi 711 – 990 mm; tubi 748 – 1220 mm deb qabul qilinadi.

Berilgan takliflarga asosan $D_{VH} = 4,93$ m va $H_1/D_{VH} = 1,4$ tanlanadi. bunda ishchi maydon balandligi

$$H_1 = 4,93 \cdot 1,14 = 6,9 \text{ m.}$$

Bo'yincha diametrini

$$D_g = 0,55 D_{VH} = 0,55 \cdot 4,93 = 2,7 \text{ m. deb olamiz.}$$

Bo'yincha qiyaligi $\alpha = 60^\circ$ ga teng bo'lganda. bo'yinchaning balandligi

$$H_g = 0,5(D_{VH} - D_g) \operatorname{tg} 60^\circ = 0,5(4,93 - 2,7) 1,732 = 1,93 \text{ m.}$$

Konverter xajmini soddalashtirilgan formula orqali topamiz.


$$V = \frac{\rho D_{\text{m}}^2}{4} H = \frac{3,14 \cdot 4,93^2}{4} 6,9 = 131,65 \text{ m}^3.$$

Tub futerovkaining qalinligi $\delta_f = 1\text{m}$, kojux qalinligi $\delta_{\text{koj}} = 0,03\text{m}$ ga teng deb qabul qilganda, konverterning umumiy balandligini aniqlaymiz:

$$H = 6,9 + 1,0 + 0,03 = 7,93 \text{ m}.$$

Devorlar futerovkaining o'rtacha qalinligini $\delta_{f, \text{st}} = 0,85\text{m}$ ga teng bo'lganda, kojuxining qalinligi $\delta_{\text{koj}} = 0,03\text{m}$ ga teng bo'lganda, konverterning tashqi diametri

$$D_{\text{tash}} = 4,93 + 2 \cdot 0,85 + 2 \cdot 0,03 = 6,69 \text{ m ga teng}.$$



5.1.1. -rasm. Kislorod konverterining sxemasi Kislorod konverterining kislorod furmasini hisoblash

Material balansini hisoblashda 1 t cho'kindi uchun sarflangan texnik kislorodning miqdori $49,8 \text{ m}^3$ ga teng ekanligi topiladi. 150 t cho'kindiga sarflangan kislorodning hajmi $49,8 \cdot 150 = 7470 \text{ m}^3$ ga teng bo'lishi kerak. Puflash intensivligini $8,38 \cdot 10^{-5} \text{ m}^3/(\text{kg} \cdot \text{s})$ deb qabul qilamiz. Bu orqali kislorodning sarfi $8,33 \cdot 10^{-5} \cdot 150 \cdot 10^3 = 12,5 \text{ m}^3/\text{s}$ ekanini topamiz.

Bunda puflash jarayonining davomiyligi $7470 : 12,5 = 597,6 \text{ s}$ (9,96 min) ga teng bo'ladi.

Purkash jarayonlari orasidagi to'xtashlar davomiyligi 1080 s (18 min) deb qabul qilamiz. Demak, davrning umumiy davomiyligi $597,6 + 1080 = 1678$ s (27,96 min) ga teng.

150 t cho'kindiga sarflanayotgan texnik O_2 ning umumiy miqdori $6,754 : 100 \cdot 150 \cdot 10^3 = 10131$ kg (bu yerda 6,754 kg – 100 kg cho'kindiga sarflanayotgan texnik O_2 ning massasi, material balansidan olingan)ga teng. Uning 1 sekunddagi sarfi $10131 : 9,96 : 60 = 16,95$ kg/s ga teng.

7 - misolda keltirilgan usul bo'yicha, sexdagi texnik O_2 ning bosim kattaligiga asosan furma oldidagi O_2 bosimini aniqlaymiz. So'ngra 8 – misolda (konussimon soplo)ga va 9 – misolda (soplo Lavlya)dagi kabi soplarni hisoblaymiz. Soplosi ko'p bo'lgan furmada kislorodni sarfini soplolar soniga bo'lamiz.

Olti yuklash furmali silindrsimon soplo diametrini hisoblash uchun B.L Markovning quyidagi formulasidan foydalanishimiz mumkin.

$$d = 7,13 \cdot 10^3 \sqrt[3]{v_F} \text{ mm,}$$

bu yerda, v_F - furmaga sarflanayotgan O_2 ning sarfi, m^3/s .

5.3.2. Kislorod konverterining issiqlik balansini hisoblash.

Issiqlik kelishi

1. Cho'yan bilan keladigan issiqlik ($t_{ch} = 1300^\circ C$)

$$Q_{ch} = 150 \cdot 10^3 \cdot 0,77 [0,745 \cdot 1200 + 217,22 + 0,837(1300 - 1200)] = 138013 \cdot 10^3 \text{ kDj} = 138,013 \text{ GDj.}$$

2. Skrap bilan keladigan issiqlik ($t_{sk} = 20^\circ C$)

$$Q_{sk} = 0,469 \cdot 150 \cdot 10^3 \cdot 0,23 \cdot 20 = 342 \cdot 10^3 \text{ kDj} = 0,342 \text{ GDj.}$$

3. Ekzotermik reaksiya issiqligi

$$C \rightarrow CO_2 \dots 0,002659 \cdot 150 \cdot 10^3 \cdot 34,09 = 13596,80$$

$$C \rightarrow CO \dots 0,023930 \cdot 150 \cdot 10^3 \cdot 10,47 = 37582,06$$

$$Si \rightarrow SiO_2 \dots 0,007200 \cdot 150 \cdot 10^3 \cdot 31,10 = 33588,00$$

$$Mn \rightarrow MnO \dots 0,007230 \cdot 150 \cdot 10^3 \cdot 7,37 = 7992,77$$

$$P \rightarrow P_2O_5 \dots 0,000230 \cdot 150 \cdot 10^3 \cdot 25,00 = 862,50$$

$$S \rightarrow SO_2 \dots 0,000020 \cdot 150 \cdot 10^3 \cdot 9,28 = 27,84$$

$$Fe \rightarrow Fe_2O_3 \dots 0,004520 \cdot 150 \cdot 10^3 \cdot 7,37 = 4996,86$$

$$Fe \rightarrow FeO \dots 0,019460 \cdot 150 \cdot 10^3 \cdot 4,82 = 14069,58$$

$$\text{Fe} \rightarrow \text{Fe}_2\text{O}_3 \dots 0,015000 \cdot 150 \cdot 10^3 \cdot 7,37 = 16582,50$$

$$Q_{\text{ekz}} = 129289,14 \text{ MDj} = 129,300 \text{ GDj}.$$

4. Shlak paydo bo'lishidagi issiqlik

$$\text{SiO}_2 \rightarrow (\text{CaO})_2 \text{SiO}_2 \quad 0,01543 \cdot 150 \cdot 10^3 : 28 \cdot 60 \cdot 2,32 = 5369,142$$

$$\text{P}_2\text{O}_5 \rightarrow (\text{CaO})_3\text{P}_2\text{O}_5 \cdot \text{CaO} \quad 0,00053 \cdot 150 \cdot 10^3 : 62 \cdot 142 \cdot 4,71 = 372,166$$

$$Q_{\text{shl ob}} = 5741,308 \text{ MDj} = 5,741 \text{ GDj}.$$

5.3.3. Kislorod konverterining issiqlik balansini hisoblash.

Issiqlik sarfi

1. Po'latning fizik issiqligi

$$Q_{\text{st}} = 0,91022 \cdot 150 \cdot 10^3 [0,7 \cdot 1500 + 272,16 + 0,837 (1600 - 1500)] = 191946 \cdot 10^3 \text{ kDj} = 191,946 \text{ GDj}.$$

2. Shlak bilan yo'qotiladigan po'latning fizik issiqligi

$$Q_{\text{st-shl}} = 0,005 \cdot 150 \cdot 10^3 [0,7 \cdot 1500 + 272,16 + 0,837 (1600 - 1500)] = 1054 \cdot 10^3 \text{ kDj} = 1,054 \text{ GDj}.$$

3. Shlakning fizik issiqligi

$$Q_{\text{shl}} = 0,12974 \cdot 150 \cdot 10^3 (1,25 \cdot 1600 + 209,35) = 42996 \cdot 10^3 \text{ kDj} = 42,996 \text{ GDj}.$$

4. Gazsimon maxsulotlardan issiqlikning $t_{\text{yx}} = 1550^\circ\text{C}$ temperatura bilan chiqishi

$$Q_{\text{yx}} = 0,0558 \cdot 150 \cdot 10^3 \cdot 2397,543 = 20067 \cdot 10^3 \text{ GDj}.$$

$$i_{\text{CO}_2+\text{SO}} \dots (0,1384 + 0,0002) 3545,34 = 491$$

$$i_{\text{CO}} \dots 0,8005 \cdot 2200,26 = 1761,308$$

$$i_{\text{H}_2\text{O}} \dots 0,012 \cdot 2758,39 = 33,107$$

$$i_{\text{O}_2} \dots 0,0444 \cdot 2296,78 = 101,977$$

$$i_{\text{H}_2} \dots 0,0045 \cdot 2170,55 = 9,767$$

$$i_m^{1550} = 2397,543 \text{ kDj} / \text{m}^3.$$

Gaz entalpiyasi $t_{\text{yx}} = 1550^\circ\text{C}$ ni II tenglama bo'yicha aniqlaymiz.

5. Fe_2O_3 bo'laklari bilan chiqayotgan issiqlik miqdorini aniqlaymiz

$$Q_{\text{Fe}_2\text{O}_3} = 0,02143 \cdot 150 \cdot 10^3 (1,23 \cdot 1600 + 209,36) = 6999 \cdot 10^3 \text{ kDj} = 7,0 \text{ GDj}$$

6. Konverter bo'yinchasi orqali nurlanish bilan chiqayotgan issiqlik yo'qotilishi:

Purkash vaqtida

$$Q_{nur1} = 5,7 \left[\left(\frac{1600 + 273}{100} \right)^4 - \left(\frac{30 + 273}{100} \right)^4 \right] \frac{3,14 \cdot 2,7}{4} \cdot 597,6 = 2400 \cdot 10^3 \text{ kDj} = 2,4 \text{ GDj},$$

Vaqtincha to'xtatilgan vaqtida

$$Q_{nur2} = 5,7 \left[\left(\frac{1500 + 273}{100} \right)^4 - \left(\frac{30 + 273}{100} \right)^4 \right] \frac{3,14 \cdot 2,7^2}{4} \cdot 1080 = 3480 \cdot 10^3 \text{ kDj} = 3,48 \text{ GDj}.$$

Nurlanish bilan yo'qotiladigan issiqlik miqdori

$$Q_{nur} = 2,4 + 3,48 = 5,88 \text{ GDj}.$$

7. Konverter futerovkai ushlab turadigan issiqlik. To'xtatib turilgan vaqtida konverterning ichki futerovkai soviydi. Bunda issiqlik bo'yincha orqali chiqib ketadi. Puflash vaqtida esa yana qiziydi. Ushbu kattalik oxirida farqlar usuli orqali hisoblanadi.

Hisob - kitobni soddalashtirish uchun futerovkaning ichki yuzasi harorati va qalinligini hamma joyda bir xil deb qabul qilamiz. ($\delta_{behl} = 0,9m$ yangisi uchun va $\delta_{bugash} = 0,45m$ eskirgan futerovka uchun). Eng ko'p yo'qotishlar futerovkaning yupqa joyida bo'lgani uchun hisobotda futerovkaning qalinligini $\delta_k = 0,45m$ deb qabul qilamiz.

$$F_{vn} = \pi D_{vn} H_l + \pi D_{vn}^2 / 4 = 3,14 \cdot 4,93 \cdot 6,9 + 3,14 \cdot 4,93^2 / 4 = 125,9 \text{ m}^2.$$

$$\alpha_{lam} = 10 + 0,06 \cdot 300 = 281 \text{ t} / (\text{m}^2 \cdot \text{K}).$$

$$Q_{akk} = V_{fuf} (t_f^{kon} - t_f^{hush}) = 22,662 \cdot 3150 \cdot 920 (1220,3 - 1196,4) = 1380 \cdot 10^3 \text{ kDj} = 1,38 \text{ GDj}.$$

Bu yerda $V_f = F_{vn} \cdot 10x = 125,9 \cdot 10 \cdot 0,018 = 22,662 \text{ m}^3$

$$t_{f^{kon}} = \frac{1409 + 1302 + 1289 + 1247 + 1242 + 1218 + 1186 + 1146 + 1104 + 1060}{10} = 1220,3^\circ \text{C},$$

$$t_{f^{hush}} = \frac{1163 + 1242 + 1277 + 1284 + 1263 + 1232 + 1191 + 1148 + 1104 + 1060}{10} = 1196,4^\circ \text{C}.$$

8.

$$Q_{konv} = \frac{1500 - 30}{\frac{0,45}{3,125} + \frac{1}{28}} (3,14 \cdot 14 \cdot 6,69 \cdot 7,93 + 3,14 \cdot 6,69^2 / 4) \times 597,6 = 850 \cdot 10^3 \text{ mDj} = 0,85 \text{ GDj}.$$

$$9. Q_{f} = 348,9 \cdot 10^3 \cdot 3,14 \cdot 0,2 \cdot 5,8 \times 597,6 = 760 \cdot 10^3 \text{ kDj} = 0,76 \text{ GDj}$$

Kelish	GDj	sarfi	GDj (%)
Fizik		Fizik issiqlik:	
issiqligi:	138,013(50,48)	Po'lat...	191,946
Cho'yan...	0,324(0,12)	Shlak bilan	(70,21)
Skrup...		yo'qotiladigan	
Ekzotermik	129,300(47,30)	po'lat...	1,054 (0,39)
reaksiya		Shlak...	42,996
issiqligi...		Gaz bilan chiqib	(15,73)
Shlak hosil	5,741 (2,10)	ketadigan shlak	
bo'lishidagi	273,378	Fe ₂ O ₃ zarrachalari	
issiqligi...	(100,0)	bilan chiqib	
Jami...		ketadigan issiqlik...	7,00 (2,56)
		Nurlanish bilan	
		yo'qotiladigan	5,48 (2,00)
		issiqlik...	
		Qoplama bilan	1,38 (0,50)
		ushlab turiladigan	
		issiqlik...	0,85 (0,31)
		Issiqlik uzatilishida	
		yo'qotiladigan	0,759 (0,28)
		issiqlik...	1,846 (0,68)
		Sovituvchi suv bilan	273,378
		yo'qotiladigan	(100,0)
		issiqlik...	
		Ortiqcha...	
		Jami...	

Nazorat savollari


1. Shlak qoldig'idagi CaO miqdorini aniqlang.
2. Shlak qoldig'idagi SiO₂ miqdorini toping.
3. Ohak sarfini qaysi usulda hisoblaymiz?
4. Yaroqli metallning chiqishini hisoblash qanday parametrlar orqali bajariladi?

5.4. Marten pechlarida po'lat ishlab chiqarish usullari

Yuqorida qayd etilganidek, Bessemer va Tomas konvertorlarida po'lat ishlab chiqarish usullarining kamchiliklarini kamaytirish borasidagi izlanishlar marten usulining yaratilishiga olib keldi. Bu usul XIX asrning ikkinchi yarmida yaratildi (Rossiyada dastlabki Marten pechi 1869 yilda Sormov zavodida injener A. A. Iznoskov va usta YA. I. Plechkov tomonidan qurilgan bo'lib, uning SIG'IMI 2,5 t bo'lgan, xolos). Zamonaviy pechlarning SIG'IMI 200—900 t atrofida bo'lib, ularda uglerodli, kam va o'rtacha legirlangan konstruksion po'latlar olinadi.

Marten pechining tuzilishi va ishlashi. Marten pechi (5.4.1.-rasm) alangali regeneratorli pech bo'lib, uning eng muhim qismi ish bo'shlig'i (kamerasi)dir. Asosli pechlarda uning tag qismi magnezit g'ishtidan terilib, sirtidan magnezit kukuni, kislotali pechlarda esa dinas g'ishtidan terilib sirtidan kvarts qum kukuni sepiladi. Pechning sirti *po'lat* list bilan qoplanadi. Uning devorining puxtaligi bo'yiga va kundalangiga tortilgan po'lat armaturalar bilan ta'minlanadi. Fosfori ko'p cho'yanlardan (Mf1, Mf2, MfZ markali) po'latlar olishda pechlar tebranadigan qilinib, oldirilgan holatda ajralayotgan ko'p miqdordagi shlakning ravon chiqishi ta'minlanadi.

Pechning old devorida shixta materiallarini kiritish uchun bir necha yuklash darchalari bo'ladi (pechni ishlash vaqtida darchalar maxsus to'sqich bilan berkitiladi va unga o'rnatilgan o'yqa orqali jarayonning kechishi kuzatiladi), darchalardan namuna metalli olinadi va yuqori fosforli shlak chiqariladi. Orqa devorida esa suyuq metall va shlakni pechdan chiqarish uchun maxsus teshik bo'lib, ularga novlar o'rnatilgan.



5.4.1. - rasm. Marten pechining sxemasi:

1— suyuqlantirilgan metall; 2 — shlak; 3 — pech shipi; 4 — pechning tubi; 5 — pechning orka devori; 5— pechning old devori; 7— shixta kiritiladigan darcha; 8 — gaz regeneratori; 9 — havo regeneratori; 10 — sirtqi ish sathi; 11,11 — pechga haydaluvchi havo kiritiladigan va yonish maqsulotlari chikarib yuboriladigan kanallar; 12, 12' — pechga haydaluvchi gaz kiritiladigan va yonish maqsulotlari chiqarib yuboriladigan kanallar; 13 — klapan; 14 — mo'ri; 15 — suv bilan sovitib turiluvchi kislorod furmasi.

Pech ishlayotganda bu teshik o'tga chidamli tiqin bilan berkitiladi. Pechning yon devorlarida qizdirilgan yonuvchi gaz va havoni pechning ish bo'shliqlariga kirituvchi kallaklari bo'ladi. Kallaklarga gorelka, mazutda ishlaganda esa forsunka o'rnatiladi. Pechning old qismida esa pol satxidan ancha pastroqda juft regenerator 5, 9 o'rnatiladi. Regeneratorlar bilan pechning ish bo'shliqlari oralig'ida esa «shlakovik» deb ataluvchi kameralari bo'ladi. Metallurgiya zavodlarida 250—500tli pechlar ko'proq tarqalgan. Ular vannasining o'lchami 20x6 m gacha bo'lib, tag yuzi 115 m² ga yetadi. Ma'lumki, bu pechlar uzluksiz ishlaydi. Ko'pincha 400—600 marta po'lat olingandan keyin kapital remont qilinadi.

Pechni ishga tushirish. Pech bo'shliqlariga shixta materiallari ma'lum tartibda yuklangandan keyin uning kanallaridagi gorelkalarga bosim ostida qizdirilgan yonuvchi gaz va havo yuborilib kamerada yondiriladi. YONISH mahsulotlari o'z yo'lida shixta materiallarini qizdira borib, qarama-qarshi tomondagi kallaklar kanallari orqali sovuq regeneratlarning katak-katak kanallaridan o'tib pech devorlarini qizdirib mo'riga yoki bur qozonlariga chiqariladi.

